Ona tili



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
4-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan
to‘qqizinchi nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi
vazirligi tasdiqlagan

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2020

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K: 811.512.133(075)
KBK 81.2O‘zb(ya71)
O-58

Mualliflar:

R. IKROMOVA, X. G‘ULOMOVA,
SH. YO‘LDOSHEVA, D. SHODMONQULOVA

Mas’ul muharrir – Abdushukur Musayevich Shofqorov

Taqrizchilar:

M. Shodiyeva – Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM PCHD;
D. Boynazarova – Toshkent shahar Yunusobod tumani 302- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Ekspertlar guruhi:

D. Bobomurodova – Toshkent shahar Uchtepa tumani 287- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;
F. Karimova – Toshkent shahar Chilonzor tumani 281- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;
X. Ziyoxonov – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR

 – O‘qing

 – Yozing

 – O‘ylang!

 – Tinglang

 – So‘zlarning izohi

 – Bilimingizni tekshiring

 – Uyga vazifa

 – Darsning tugashi

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-049-2

© R. Ikromova va b.
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2020

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

TAKRORLASH

1-mashq. Matn nima haqida ekanini ayting.

O‘zbekiston taraqqiyot yo‘liga chiqdi. U o‘z bayrog‘iga ega bo‘ldi. O‘z tug‘rosini tasdiqladi. Birinchi Bosh qonunini yaratdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqida mustaqil davlatlar qatori uning bayrog‘i ham hilpiradi. Osmon darvozalaridan, temiryo‘l qopqalaridan yetti iqlim elchilari yurtimizga kirib kelmoqda. O‘zbekiston qadimiy va hamisha navqiron diyordir. *(Oydin Hojiyevadan)*

O‘zbekiston haqida yodlagan she’rlaringizdan ayting.

Oxirgi gapni ko‘chiring. Yozganingizni tekshiring.

tug‘ro – gerb
qopqa – darvoza

2-mashq. Gaplarni tinch ohang bilan o‘qing, chegarasini aniqlang. Ibn Sino haqidagi gaplarni ko‘chiring.

Qadim zamonda bir g‘or bo‘lgan ekan G‘orda dunyoning turli bilimlari yashiringan ekan, g‘orning og‘zi bir yilda bir marta ochilib, yana bekilarkan Ilmga tashna odamlar g‘or ochilishi bilan kirib ulgurganlaricha bilim olib chiqishar ekan Buni eshitgan Ibn Sino g‘orga kelibdi g‘or ochilishi bilan ichkariga kiribdi U bilan kirganlar g‘or yopilmay chiqib ketishibdi Ibn Sino g‘orda bir yil qolibdi va jamiki ilmlarni egallab olibdi. *(Abdusaid Ko‘chimovdan)*

Bilimlarni qanday egallayotganingiz haqida 2–3 ta gap tuzing va yozing. So‘zlar nimalardan tuziladi?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3-mashq. O‘qing. Gaplarni tugallangan shaklga keltirib yozing.

1. Bilagi zo‘r birni yiqar, ... 2. Bulbul chamanni sevar, ... 3. Suvsiz hayot bo‘lmas, ...

Bulbul, hayot so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.

TOVUSHLAR VA HARFLAR

4-mashq. Shoir she’ri orqali sizga nima deb murojaat qilyapti?

Vatanni sev, tuprog‘ini o‘p,
Har **qarichi muqaddas** bizga.
Cho‘lidagi hatto quruq cho‘p
Jondan aziz yuragimizga.

Oybek

Ajratilgan so‘zlarda nechta tovush bor? Ular nechta harf bilan yozilgan?

O‘zbek tilida nechta tovush bor?
Tovushlar yozuvda nima bilan ifodalanadi?
Tildagi tovushlar nechta harf bilan ifodalanadi?

5-mashq. O‘qing. Maqol va hikmatli gaplarning ma’nosini tushuntirib bering. Bir va ikki tovushi bilan farq qilgan so‘zlarni topib, ma’nosini izohlang.

1. To‘g‘ri odam o‘sib borib gul bo‘ladi, Egri odam o‘sib borib kul bo‘ladi. *(Maqol)* 2. Yolg‘onchidan shon qolmas, nomidan nishon qolmas. *(Maqol)* 3. Maqtanchoqda

aql bo‘lmas, Aql bo‘lsa ham, naql bo‘lmas. *(Maqol)*

4. Yoz bilan kuz – ishniki,
   Bekorchilik – qishniki! *(Olloyor)*

Ko‘chiring. Bir va ikki tovushi bilan farq qilgan so‘zlarning tagiga chizing.

shon – dovrug‘, dong, shuhrat
nishon – belgi, iz
naql – hikmatli gap

! Tovushlar qanday vazifa bajaradi?

6-mashq. O‘qing. Har bir so‘zda nechta tovush va nechta harf borligini aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna: *shabada – 6 ta tovush, 5 ta harf va 1 ta harflar birikmasi.*

Fasl, tong, futbol, shaftoli, choy, daraxtzor.



7-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. So‘z ma’nolarini farqlayotgan tovushlarni ifodalovchi harflarning tagiga chizing. So‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Mard – mart, yod – yot, sop – sof, adib – adip.
2. Shoh – shox, xush – hush, uxladi – uhladi.

So‘zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang. Qaysi tovushlarning aytilishi yozilishiga mos kelmaydi? Nima uchun? O‘ylab ko‘ring.

8-mashq. Bir tovushi bilan farq qilgan so‘zlarni aniqlang.

Kuz

Yana xazonrezgilik,
Bog‘lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi.

Oq yaktakli qayinlar
Taqdi yana zar baldoq.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag‘chag‘laydi zarg‘aldoq.

Tursunboy Adashboyev

Tovushlar qanday vazifa bajaradi?

She’r mazmunini o‘z so‘zingiz bilan qayta hikoyalang.



9-mashq. O‘qing. So‘zlar tarkibidagi tovushlar o‘rnini almashtirib, yangi so‘zlar hosil qiling va yozing.

Namuna: *anhor – nahor*

Anhor, nok, qanor, osmon, fan, faraz.





10-mashq. Matnni o‘qing. Unga sarlavha toping.

Ushoq **polvon** (chumoli)lar quyoshni juda yaxshi ko‘rishadi. Ular qor, **yomg‘ir**, **sovuq**ni yomon ko‘rishadi. Bugun ertalab uyalari eshigi quyosh nuridan yorishdi. Ular shod-u **xurramlik** bilan **jamoa** yig‘ilishini o‘tkazishyapti. Yig‘ilishda qishga oziq-ovqat **jamg‘arish** masalasi ko‘rildi. Ota-onalar ishchilarga hozirgi **serne’mat** kunlarni boy bermaslikni **uqtirish**di. Shundan keyin hamma ish-ishiga tarqalib ketdi. *(Rahim Bekniyoz)*

Chumolilar hayoti kimlarning hayotiga o‘xshaydi? Nima uchun?

Ajratilgan so‘zlardagi unli tovushlar talaffuzi va yozilishida qanday farqni kuzatdingiz?

boy bermaslik – yutqazmaslik

Qaysi tovushlarsiz so‘z hosil bo‘lmaydi?
Unli tovushlar qanday aytiladi?
Unli tovushlar tarkibi nimalardan iborat?

11-mashq. So‘zlarning tushirib qoldirilgan harflarini qo‘yib, to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qing. Qaysi tovush talaffuzida xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkinligini ayting.

L.vlagi, **l.vozim,** h.vli, l.g‘mon, **n.vkar,** n.vro‘z, k.mpot, q.loq, **q.lpoq, q.rqunoq,** q.ssob, g.vjum, g.rov, kar.m, karav.t.

A va **o** unlisi yoziladigan so‘zlarni guruhlab yozing. Yozganlaringizni lug‘atdan tekshiring. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

12-mashq. So‘zlarni yozilganidek o‘qing, qanday yozilishini bilib oling.

Havo, **navo,** Kamol, Shavkat, shavla, gavda, vahm, shaftoli, **ravshan**, qavs.

Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarni qatnashtirib ikkita gap tuzib yozing.

13-mashq. So‘zlardagi **i** va **u** unli tovushlarining talaffuziga diqqat qiling. Qaysi so‘zlarning talaffuzi va yozilishida farq sezdingiz?

Erta bilan havo deyarli ochiq edi. Moviy osmonda oppoq bulutlar shamolning zo‘ridan quyosh tarafga

erinibgina suzib borardi. Tushga yaqin kunchiqar tarafdan qop-qora vahimali bulut yopirilib kela boshladi. Hayal o‘tmay qora bulut quyosh nurini butunlay to‘sib qo‘ydi. Qir ustida salqin shabada esdi. Bulutlar quyuqlashgandan quyuqlashib bordi. Hamma yoq zimziyo bo‘lib ketdi. Birdan momaqaldiroq gumburladi, yomg‘ir quyib berdi. *(O. Husanovdan)*

Talaffuzi va yozilishi farq qilgan so‘zlarni yozing.



14-mashq. O‘qing. Har bir gapning mazmunidan qanday xulosaga keldingiz? Fikringizni og‘zaki bayon qiling.

1. Inson fazilatlari bilan buyuk. 2. G‘ururli bo‘l, lekin dimog‘dor bo‘lma. 3. Ona tilini unutmoq – o‘z onasini unutmoq bilan teng. *(O‘tkir Hoshimov)*

Ko‘chiring. **I** va **u** unlili so‘zlarning talaffuzi va yozilishini izohlang.



15-mashq. Tez aytishlarni o‘qing va mashq qiling.

Bulturgi burgutni bugun Urgutda ko‘rdim.

Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa, chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi.

Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini eslab qoling.





16-mashq. Unlilarning talaffuziga diqqat qiling. Matnda siz haqingizda nimalar deyilgan?

Aziz bolajonlar, siz go‘zal bog‘larga, ona tabiatga, nurli olamga bir olam havas bilan boqasiz. Siz zavq-

shavq bilan shaxdam-shaxdam yurganingizda olam jonlanadi. Bog‘lar, chamanlar sizga talpinib quchoq ochadi. Shaloladay sho‘x kulgingiz mudroq qalblarni uyg‘otadi. Siz bilimga, go‘zallikka, mehrga chanqoqsiz.

Siz ham ona-Vatan bog‘ida o‘sib ulg‘ayasiz!.. Ona-Vatan yo‘lingizga ko‘z tikib, sizni kutmoqda. *(Qutlibeka Rahimboyeva)*

17-mashq. Yonma-yon kelgan unlili so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qing.

Oila, teatr, kakao, soat, manfaat, tabiiy, taassurot, tabiat, akkordion, Saida, muallim, Saodat, matbuot, inshoot, shuur.

So‘zlarni ikki guruhga ajratib yozing. Qaysi xususiyatiga ko‘ra guruhga ajratdingiz? So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting. *Manfaat* so‘ziga ma’nodosh so‘zlar toping va ularni tovush-harf tomonidan tahlil qiling.

18-mashq. O‘qing. Ko‘chiring.

Badiiy, million, jamoa, mozaika, muallif, muomala, mutolaa, koinot, pansionat, pianino, radio, qoida, Noila, teatr, muallim.

So‘zlarning talaffuzi va yozilishini yodingizda tuting.

Hozir siz qaysi badiiy asarni mutolaa qilyapsiz? Shu haqida 2 ta gap tuzib yozing.

19-mashq. O‘qing. Matn mazmunini qayta hikoyalang. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Xalqimizda „Va’daga vafo – mardning ishi“ degan maqol bor. Boburning farzandi Humoyun taxt uchun

kurashlarning birida chekinishga majbur bo‘ladi. U Chauza daryosidan o‘tayotganda oti cho‘kib, uni ham suv ostiga tortib ketadi. Podshoning baxtiga ho‘kiz terisidan yasalgan meshda suzib kelayotgan meshkobchi uni qutqarib qoladi. Shunda minnatdor bo‘lgan shoh: „Senga podsholik taxtimni berganim bo‘lsin“, – deb yuboribdi. Humoyun saroy a’yonlarining qarshiligiga qaramay, meshkobchini taxtga o‘tqazib qo‘yibdi. „Meshkobchi ikki kun kimga nimani hadya etsin va qanday mansab bersin qarshilik qilmaysizlar“,– deb buyuribdi. Shu tariqa Humoyun so‘zining ustidan chiqibdi. *(O‘tkir Hoshimovdan)*

mesh – suv solib qo‘yiladigan, tashiladigan idish.
meshkobchi – meshda suv tashuvchi.

1-gapni ko‘chiring. Jarangli undoshlarning tagiga bir chiziq, jarangsiz undoshlarning tagiga ikki chiziq chizing.

20-mashq. Topishmoqni o‘qing, javobini toping.

Makoni osmon – dengiz,
Kemaday suzar izsiz.
Suv-yomg‘irga serob u,
Nima ekan-a, top, bu?

b				

Topishmoqni yoddan yozing. O‘qilishi yozilishiga mos kelmagan undosh tovushni toping. Shu so‘zlarning yozilishini tushuntiring.

Osmon so‘ziga yaqin ma’noli so‘zlar topib yozing.

21-mashq. „Maktabimizda shanbalik“ mavzusida kichik hikoya yozing. Hikoyangizda *Muattar, Saodat, Toir* kabi ismlarni qo‘llang.



22-mashq. Matn mazmunini qayta hikoya qiling.

Oyda ham Yerdagiga o‘xshash tog‘lar, tekisliklar bor. Lekin havo qatlami va suv yo‘q, shu sababli unga ko‘plab osmon jismlari kelib uriladi. Natijada Oy sirtida qiya chuqurliklar hosil bo‘lgan. Ulardan biri Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Oy sirtida qora dog‘lar bo‘lib, ular „dengiz“ deb ataladi. Lekin bu „dengiz“larda suvdan asar ham yo‘q. *(M. Mirakmalov)*

23-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib ko‘chiring.

Bir kuni ol.in bali. va bulbul bahslashi.di. Bulbul deb.i.

– Qani endi, senga o‘xsha. baliq bo‘li. qolsam. Xursan. bo‘lib, katta suvda suzardim.


Baliq debdi:

– Nodon ekansan, sening joying osmonda, bog‘lar va gullar orasida. Sen ozo. bo‘lishing kerak. Qani endi men ham senga o‘xsha. ucha olsam, sayrasam.

Nuqtalar o‘rniga qaysi harflarni qo‘ydingiz? Bu harflar qaysi tovushlarni ifodalaydi?

24-mashq. Zarur harflarni qo‘yib o‘qing va ko‘chiring. So‘zlarning o‘qilishi bilan yozilishini yodingizda tuting. Topishmoqning javobini qanday topdingiz?

1. Tog‘da talaymonni ko‘rdim,
Suvda Sulaymonni ko‘rdim,
Tu.siz pish.an oshni ko‘rdim,
Dumala. yot.an toshni ko‘rdim.



2. Olmasang yarim na.as,
Yo‘l.an o‘.gani qo‘ymas.

v					l

25-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib, so‘zlarni o‘qing.

Zumra., maqsa., aji., tarvu., shogir., isro., sar., a.tobus, ka.t, ban., a.t, to.la, fu.bol, .ursat.

Jarangli va jarangsiz undoshlarning tagiga chizing. Qaysi undoshlarning talaffuzi yozilishidan farq qiladi?

26-mashq. So‘zlarning talaffuziga diqqat qiling. Qaysi so‘zlarning talaffuzi yozilishidan farq qilayotganini ayting.

Bir daraxtning ikki xil meva berganini eshitgan-misiz?

Braziliya o‘rmonlarida ajoyib daraxt o‘sadi. Unda bir vaqtning o‘zida ham olma, ham yong‘oq hosili pishib yetiladi. Mahalliy aholi uning bargi bilan tishlarini to-zalaydi. *(„Gulxan“dan)*

mahalliy aholi – o‘sha joyda yashaydigan xalq

27-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib o‘qing va yozing. Ularning yozilishini tekshirish usuli bilan aniqlang.

Namuna: *kito. – kitobi – kitob,*

Ay., avlo., arbo., adola., ajdo., zar., savla., bur., kura., avtobu., pardo., bigi., teki., bur. .

So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting. Shu so‘zlardan qatnashtirib ikkita gap tuzing.

Ko‘chiring. Jarangli va jarangsiz undoshlarning tagiga chizing. Qaysi undoshlarning talaffuzi yozilishidan farq qiladi?



28-mashq. O‘qing. Matn kim haqida?

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari haqida sanoqsiz kitoblar yozilgan. Ammo uning bebaho insoniy fazilatlari, aql-u idroki, salohiyati, adolati, halolligi, mehr-u muhabbati haqida hali ko‘p o‘qishimiz kerak. Uning fazilatlarini o‘rganishimiz lozim.

Amir Temur umrining oxirida o‘z farzandlariga vasiyatida: „Men aql-u ehson bilan olamni obod etibmen“, – degan ekan. *(Muhammad Ali)*

Amir Temur haqida nimalarni bilib oldingiz? **X** va **h** undoshli so‘zlarning talaffuzi va imlosini izohlang. **X** va **h** undoshli so‘zlarni guruhlab yoddan yozing.

salohiyat – qobiliyat, iqtidor

29-mashq. Ko‘chiring. Xato yozishingiz mumkin bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

Quchog‘ing bolga to‘la,
Hosil iqbolga to‘la.
Qulluq saxovatingga,
Huzur-halovatingga.
Lazzatlisan, sehrjon,
Xush kelibsan, Mehrjon!

Qambar Ota

X va **h** harfli so‘zlar ishtirokida gap tuzib yozing.



30-mashq. O‘qing. Maqollar nima haqida? **H** va **x** undoshlarining to‘g‘ri talaffuzini mashq qiling.

1. Mehnatli non – shakar,
   Mehnatsiz non – zahar.
2. Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
   Non topilar yo‘lingda.
3. Hunar – tuganmas xazina.

Ko‘chiring. Maqollarni yod oling.



31-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. Maqol va hikmatli gaplarni o‘qib, nimalarni bilib oldingiz?

1. **Harchand** o‘qibsan – bilimdonsan,
   Agar amal qilmading – nodonsan. *(Maqol)*
2. Aql ulug‘likka etadi **payvand**,
   Aqlsizning doim oyog‘ida **band**. *(Firdavsiy)*
3. **Do‘stlik** barcha boylikdan afzal. *(Maqol)*

Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning talaffuzi va yozilishini taqqoslang. Bu so‘zlar qanday talaffuz qilinishi kerak deb o‘ylaysiz?



32-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur harfni qo‘yib, maqol va hikmatli gaplarni o‘qing va yozing. Ma’nosini izohlang.

1. Yolg‘onchining ros. so‘zi ham yolg‘on. 2. Odobli farzan. – oila ko‘rki. 3. Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan bax. va davlat ketadi.

4. Do‘s. so‘zini tashlama,
Tashlab boshing qashlama.



33-mashq. *Asil – asl, asr – asir, qisim – qism* so‘zlarini qatnashtirib gap tuzing va yozing. Tuzgan gaplaringizning mazmunini izohlashga tayyorlaning.



34-mashq. So‘zlarni o‘qing. Shakli va ma’nosidagi farqni ayting.

Qattiq – qatiq, tilla – tila, cho‘qqi – cho‘qi, mashshoq – mashoq, silla – sila.

Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.



mashshoq – sozanda



35-mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida 5–6 ta gapli hikoya tuzib yozing.

Hamma, Abbos, xatti-harakat, taajjublanmoq, tushuntirmoq, izza bo‘lmoq.



36-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.

Novvot, hissa, izzat, lo‘ppi, jarroh, labbay, achchiq, sakkiz, gramm, jajji, naqqosh, pilla, muattar.

Yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning jarangli yoki jarangsiz ekanini aniqlab, tagiga chizing.



BO‘G‘IN VA BO‘G‘IN KO‘CHIRISH

37-mashq. Hikmatlarni o‘qing, ma’nosini izohlang.

1. Agar biror kishi **yolg‘onchilikni odat** qilgan bo‘lsa, **uning** oldiga borma. Hargiz u rost so‘zlamas. 2. **Hunarmand** kishilarning qadri va martabasi **baland** bo‘lgan. Kishi hunardan qo‘l **tortsa**, u **aqlsizlikdir**. *(Kaykovus)*

Gaplardagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib o‘qing. Har bir bo‘g‘inning nechta tovushdan tuzilganini ayting.

Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga ko‘ra yozing.

So‘z nimalardan tuziladi?
Qaysi tovush bo‘g‘in hosil qiladi?
So‘zning necha bo‘g‘inli ekanini qanday aniqlaysiz?
Qanday so‘zlar bo‘g‘inlab ko‘chirilmaydi?

38-mashq. Gaplar ohangiga diqqat qiling.

Til va tish

Til tishlarga dedi:

– Siz qachon o‘z holimga qo‘yasiz. Siz doim yo‘limni to‘sasiz. Men sizning manfaatingizga xizmat qilishni istamayman.

– Biz aqlning yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish tutamiz. Arzingni aqlga ayt, – chug‘urlashdi tishlar.

Til bu javobdan o‘ng‘aysizlandi va Aqlga yorildi. Aql uqtirdi:

– Biz seni o‘z vaqtida tiyib turmasak, sen egamizning yuzini shuvut qilasan, uni elning nazaridan qoldirasan. *(G‘ani Abdullayevdan)*

Matn mazmunini o‘g‘zaki to‘liq qayta hikoya qiling.

39-mashq. Hikmatli gaplarni o‘qing, ma’nosini izohlang.

1. Kishiga chiroydir uyat-andisha,
   U asrar nojo‘ya ishdan hamisha.

Yusuf Xos Hojib

2. Til shirinligi ko‘ngilga yoqimlidir,
   Muloyimligi esa foydalidir.

Alisher Navoiy

Har bir so‘zni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘lib yozing.

Qaysi so‘zlar bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘linmaydi?

40-mashq. Matn kim haqida ekan? Undan nimalarni bilib oldingiz?

Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-martda tug‘ilgan. Otasi Shohrux Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li bo‘lgan. Shohrux Samarqandda katta kutubxona tashkil etgan. Dunyoning turli burchaklaridan ko‘p fanlarga oid kitoblar keltirgan. Yoshlarning ilm egallashlari uchun imkoniyat yaratgan. Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim bilimdon ayol bo‘lgan. Ulug‘bekning ota-onasi farzandlarining ilm egallashiga alohida e’tibor berishgan. Ulug‘bek 1424-yilda rasadxona qurdirgan va unda sayyoralar sirini o‘rgangan. *(„Gulxan“dan)*

Raqamli ifodalar bir satrdan ikkinchi satrga bo‘lib ko‘chiriladimi? Nima uchun?

41-mashq. Rasm asosida 4–5 ta gapli matn yozing. Unga sarlavha qo‘ying.





Bir xil undoshli so‘zlar tagiga chizing. Yozilishini yodingizda tuting.

42-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing, ularni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

Assalom, taajjub, g‘ijjak, hissa, izzat, quvvat, **labbay**, **minnatdor**, millat, qimmat, raqqosa, tennis, cho‘qqi, taassurot, mashaqqat.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida 2 ta gap tuzib yozing.

43-mashq. She’rdagi so‘zlarning talaffuzi va ma’nosiga diqqat qiling. She’r kimlar haqida ekanini ayting.

Qiyos etgim keladi ustozlarni quyoshga,
O‘z mehrining nurini baxsh etadi har yoshga.
Ustoz yo‘li porloqdir, ustoz yo‘li yorug‘dir,
Ustoz ko‘ngli xazina, saxovatga to‘liqdir.

Po‘lat Mo‘min

Ustozlar haqida yod bilgan she’rlaringizdan ayting.

44-mashq. O‘qing. Matnga sarlavha toping. Matnga sarlavha topishda nimalarga e’tibor berdingiz?

Bir zamonlarda jarangdor ovozli kichkina qushcha bo‘lgan ekan.

Bir kuni qushcha osmonda uchib borayotib mevasi g‘arq pishib yotgan bir daraxtga ko‘zi tushibdi. U o‘zining topilmasidan behad xursand bo‘lib:

– Bu meniki, bu meniki, – deya qichqiribdi.

Qushcha shunchalik qattiq qichqiribdiki, uning ovozini tevarak-atrofdagi qushlarning hammasi eshitibdi. Ular uchib kelib birpasda hamma mevalarni yeb tugatishibdi. Mittigina ochko‘z qushcha ship-shiydon bo‘lgan daraxt atrofida chir aylangancha qolaveribdi.

Sh, ch, ng harflar birikmalari ishtirok etgan so‘zlarni topib, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra yozing.

45-mashq. Harflar birikmalarining har biriga 5 tadan so‘z toping. Ularni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga binoan yozing.



46-mashq. O‘qing. So‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini tushuntiring.

1. Ma’lum, ma’rifat, a’lo, she’r, ta’rif, e’tiroz, e’lon, ta’til, ta’m, ta’zim, e’zoz.
2. Sur’at, san’at, qal’a, mash’al, qit’a, in’om.

So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga binoan yozing.

Qaysi so‘zlarda tutuq belgisi tushirib qoldirilsa, ma’no o‘zgaradi? Ularning ma’nolarini tushuntiring.

47-mashq. Matnni o‘qing. Matnda nima haqida hikoya qilinadi?

Yurtimizda yog‘och o‘ymakorligi san’ati qadimdan rivojlangan. Xiva shahri o‘zining yog‘och o‘ymakorligi bilan butun dunyoga tanilgan. 1937-yil xivalik ustalar ishlagan naqshinkor ustun Parijda oltin medal bilan taqdirlangan.

Xivalik ustalar Alisher Navoiy teatrini bezashda ham qatnashganlar. *(„Gulxan“dan)*

Matnda nechta xatboshi bor? Ularning har birida nimalar haqida fikr bayon qilingan?

So‘zlardagi **o‘** va **g‘** harflarining va tutuq belgisining yozilishiga diqqat qiling.

48-mashq. O‘qing.

Rahmdilning daraxti

Rahmdil onasi bergan pulga etik va yegulik olish uchun bozorga bordi. U bozorda ochlikdan madori qurigan kampirni uchratdi. Rahmdil kampirga achindi va undan terak ko‘chatlarini sotib oldi. Rahmdil ko‘chatni tomorqaga o‘tqazdi, tagiga suv quydi. U tongda hovliga chiqdi. Teraklarni ko‘rib, hayratdan turgan joyida qotib qoldi... *(Olloyor Begaliyevdan)*



Rasm asosida ertakning davomini yozing.

Bilimingizni tekshiring.
Qaysi xususiyatiga ko‘ra tovushlar unli va undoshlarga ajratiladi?
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning farqini ayting.
Qaysi unli va undoshlar imlosida ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yasiz? Nima uchun?
So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lishning ahamiyatini ayting.

SO‘Z VA UNING MA’NO TURLARI

49-mashq. O‘qing. She’rdagi har bir so‘zning ma’nosiga diqqat qiling.

Erta tongdan uyqudan
Kuz ko‘zini ochgan dam,
Ko‘rdi maysa o‘tlarning
Ko‘zlarida yosh-shabnam.
Kuz hayron: nega boshin
Egib turar dov-daraxt?
Kuz ko‘rdi keng bog‘larni,
Shirin sharbatga to‘lgan
Olma, uzum bog‘larni…

Abdurahmon Akbar

She’r nima haqida? Kuzning ko‘rinishini shoir qanday tasvirlagan?

So‘zlar ma’no turlariga ko‘ra o‘zaro ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli bo‘ladi.

50-mashq. Birikmalardagi bir xil so‘zlarni aniqlang va ma’nosini taqqoslang. Qaysi so‘z o‘z ma’nosida, qaysi so‘z boshqa ma’noda qo‘llangan?

Odamning oyog‘i – karavotning oyog‘i, ko‘ylakning etagi – qirning etagi, qushning dumi – varrakning dumi, qushning tumshug‘i – kemaning tumshug‘i.

Ko‘chiring. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning tagiga chizing.

So‘zlar qanday ma’nolarda qo‘llanar ekan?

51-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab birikmalar tuzing va yozing.

Namuna: *shirin choy, shirin bola,*

Shirin, qattiq, kumush, uxlamoq, tovush, harf, ko‘z.

Berilgan so‘zlardan foydalanib 4 ta gap tuzing va yozing.



52-mashq. Matnni o‘qing. Undan nimalarni bilib oldingiz? Yozuvchi sizda qanday taassurot qoldirdi?

Dadamning marvarid tut haqidagi hikoyasi yodimga o‘rnashib qolgan. Bog‘ devorimizning orqasida shoxlari tarvaqaylab ketgan marvarid tut daraxti bor edi. Dadam shu tut bilan bobomni davolagan ekan. Bir yili **ko‘klamda bobom qattiq** og‘rib, uch oy to‘shakda yotib qolibdi. Uning **eti** suyagiga yopishib, **tamom madori** ketibdi. Dadam bir kuni bir kosa **marvarid** tut terib bobomga bermoqchi bo‘libdi. Lekin **odamlar:**

„Berma! Battar **o‘g‘rib qoladi**!“ – deyishibdi. Bobom esa zo‘rg‘a boshini ko‘tarib: „Mayli, Normatjon, olib kelaver! Armonda qolmay, shu tutdan **tatib** ketay!“ – deb tutni kapalab-kapalab yebdi. Shundan keyin dadam tut terib keladigan bo‘libdi. Bobom esa tut yeb **quvvatga** kira boshlabdi. *(Turob Maqsuddan)*

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni *otam, buva, bahor, kasal bo‘lib, butunlay, kuchi, balxi tut, kishilar, yeb, kuchga* so‘zlari bilan almashtirib o‘qing.

Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘ldi?
Bu so‘zlar ma’nosiga ko‘ra qanday so‘zlar deyiladi?

! Qanday so‘zlar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar bo‘ladi?

Tut, bor, uch, oy, ter so‘zlarini ikki xil ma’noda qo‘llab, gaplar tuzib yozing. Ularning shakl va ma’nosiga ko‘ra farqini ayting.

53-mashq. *Tilak, istak, tabriklamoq, qutlamoq, minnatdor bo‘lmoq, xursand bo‘lmoq, tavallud kuni, tug‘ilgan kuni, yaxshi, yoqimli, bayram kuni, shodiyona kun* ma’nodosh so‘zlaridan qatnashtirib, „Tabriknoma“ matnini yarating.

54-mashq. O‘qing. Ma’nodosh so‘zlarni topib, juftlab yozing.

Bahs, sovg‘a, tanqis, yashirin, g‘alaba, hadya, munozara, tortiq, kamchil, tortishuv, armug‘on, tahchil, xufiya, zafar, tuhfa, maxfiy.

Shu so‘zlardan qatnashtirib 2ta gap yozing.

55-mashq. O‘qing. Matn mazmunini so‘zlab bering. Matnni o‘qib, qanday xulosaga keldingiz?

Quyosh – o‘zidan nur, **yorug‘lik** va issiqlik taratadigan jism. Agar oftob yorug‘lik va issiqlik taratmasa, **odamlar** qorong‘ida adashib, muzlab qolishi mumkin.

Kitob ham shunday. U odamning ichiga, yuragiga yorug‘lik beradi va uni **ma’noli**, chiroyli gaplari bilan isitadi. Kitob o‘qimagan odam xuddi **qorong‘ida** qolib ketganday bo‘ladi. Nima qilishini yaxshi bilmaydi. **Ko‘p** kitob o‘qigan odamning **yuzi**dan yorug‘lik taralib turadi. Tili **shirin**, gaplari ma’noli bo‘ladi. *(Miraziz A’zam)*

Ajratilgan so‘zlarga ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar toping va ularni guruhlab yozing.

! Qanday so‘zlar zid ma’noli so‘zlar bo‘ladi?

56-mashq. Hikmatli gaplarni o‘qing. Undan qanday xulosaga kelganingizni so‘zlab bering.

1. Otalar so‘zidir biz uchun meros, otalar so‘zining **nafi** beqiyos. 2. Ilmni **buyuk** bil, uquvni ulug‘, Shu ikkov ulug‘lar **kishini** to‘liq. 3. Bilim boylik axir, zavoldan **yiroq**, Uni ola bilmas qaroqchi biroq. 4. Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir. *(Abu Rayhon Beruniy)*

Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarga ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar toping va ularni guruhlab yozing.

57-mashq. Maqollarni o‘qing va yozing. Zid ma’noli so‘zlarni topib, tagiga chizing.

1.To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qilar. 2. Yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og‘izdan chiqadi. 3. Erta ekkan xirmon qilur, kech ekkan armon qilur. 4. Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir.



58-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ma’nodoshi bilan almashtirib, matn mazmunini qayta hikoyalang.

Vatan so‘zini qanchalik **chuqur** tushunsang, shuncha **ulug‘** odam bo‘lasan. Vatanni **nechog‘liq sevsang,** o‘shancha **qudratli** va yengilmas bo‘lasan. Atrofingni o‘rab turgan daraxtlar, **go‘zal** gullar, erka qushlar, **zilol** suvlar **Vatan**ning bir qismidir. Yurtingning **bepoyon** bug‘doyzorlari, osmonlarga borib tutashguvchi qir-adirlari bor.

Sen shu Vatanning egasisan. Aql-u idroking bilan uni shon-shuhratga to‘ldirasan. Bu yo‘lda seni ulug‘ ajdodlaring ruhi qo‘llasin. *(Zulfiya Mo‘minova)*

Matndan foydalanib, „Mening buyuk Vatanim“ mavzusida kichik hikoya yozing. Hikoyangizda ma’nodosh so‘zlardan foydalaning.

59-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Bog‘imizga **olma** ko‘chatini ekdik. 2. Birovning narsasini so‘ramasdan **olma**. 3. Bir yil **tut** ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. *(Maqol)* 4. Ukangni qo‘lidan **tut**.

Ajratilgan so‘zlar nimasi bilan o‘xshash?

60-mashq. *Yaxshi, yomon, katta, kichik, ilmli, ilmsiz* so‘zlari ishtirok etgan maqollar topib yozing.



61-mashq. Matndagi qaysi so‘zlarni bir so‘z bilan umumlashtirish mumkin?

Urushdan so‘nggi yillar

Dadam meni tez-tez bozorga olib borardilar. Xastimom bozorini ko‘rmabsiz, olamga kelmabsiz. To Eski Jo‘vagacha yoyma bozor cho‘zilib ketardi.

Telpakchilar, maxsido‘zlar, kovush, g‘arch-g‘urch tufli sotuvchilar o‘zi bir dunyo. Sandiqsozlar, qutidorlar, beshiksozlar yana bir dunyo. Do‘ppi, jiyak, qiyiq bozori o‘zi bir dunyo.

Bir tomonda qovun bozori. Handalak, oqurug‘, qizilurug‘, cho‘tiri, ananas, bosvoldi, qirqma, bo‘rikalla, ko‘kcha, oqpalak, eh-he… Dadam bu yerdan o‘tayotganda boshlarini sarak-sarak qilib:

– Qovunning yuzdan ortiq turi bo‘lardi, esiz, kamayib ketdi, – deb qo‘yardilar. *(Qutbi Nosirova)*

Matnda tasvirlangan bozor bilan hozirgi bozorlarni taqqoslang. Hozirgi bozorlarni tasvirlab yozing.

62-mashq. „Kim ko‘p so‘z topa oladi?“ musobaqasi.

1. Rang bildiruvchi so‘zlar: …
2. O‘quv qurollari: …
3. Uzum nomlari: …
4. Cho‘llarda o‘sadigan o‘simliklar: …

63-mashq. „Tabiatshunoslik“ darsligingizdan foydalanib, har bir guruhga so‘zlar topib yozing. Ular haqida qiziqarli ma’lumotlarni so‘zlab berishga tayyorlaning.

1. Ko‘l nomlari:
2. Baliq nomlari:
3. Daryo nomlari:
4. Shahar nomlari.

SO‘Z VA SO‘Z TARKIBI

64-mashq. Hikmatlarni o‘qing. Ma’nosini ayting.

Kishi ko‘ngli **tartibli** narsalarga moyil bo‘ladi.
Tartibsiz narsalardan nafratlanadi.

Beruniy

So‘zni ko‘p so‘zlama, biroz ozroq **so‘zla**,
Tuman so‘z ma’nosini bir so‘zda **ko‘zla**.

Yusuf Xos Hojib

Do‘stga agar qo‘shilsa do‘st-yor,
Orzu og‘ochi bo‘lur **hosildor**.

Jomiy

Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarning qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. *Tartibli, tartibsiz* so‘zlari qanday nomlanadi?

tuman – o‘n ming
og‘och – daraxt

Tuman, og‘och so‘zlari tilda hozir ishlatiladimi?
Orzu og‘ochi iborasi qanday ma’noda qo‘llangan?

65-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini aniqlang va ularni izohlang.

Kitobni seving. Kitob yaxshi **maslahatchi** va o‘qituvchi. **Kitobsiz** bilimli, **madaniyatli** kishi bo‘lib yetishish mumkin emas. Kitobni o‘qib, bilimingizni boyiting. Eng yaxshi **kitobxon** bo‘lishga intiling.

-li, -siz, -la, -xon, -dor, -chi qanday qo‘shimchalar deb nomlanadi?

66-mashq. Berilgan so‘zlarga **-li, -siz, -la, -xon, -dor, -chi** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, yangi so‘zlar hosil qiling va yozing.

Navbat, quvvat, kitob, rang, tayyor, tuz, hosil.

Qaysi qo‘shimchalar asosdosh so‘zlarni hosil qiladi?

67-mashq. Maqollarni ko‘chiring. Ularning ma’nolarini izohlang.

1. Do‘st bilan sirdosh bo‘l,
   Ishiga doim qo‘ldosh bo‘l.
2. Suvsiz hayot bo‘lmas,
   Mehnatsiz rohat bo‘lmas.
3. Hamisha chiroyli va mazmundor so‘zla.

So‘zlarning asosi va so‘z yasovchi qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

68-mashq. Matnda nechta kishining suhbati berilgan? Humoyunning javoblari sizda qanday taassurot qoldirdi?

– Nelarni yaxshi koʻrursen? – Humoyundan soʻradi Bobur.

Humoyun bir lahza oʻylanib qoldi. Uning yaxshi koʻrgan narsalari koʻp edi.

– Safarda yurishni, sayohatni yaxshi koʻrurmen. Yaxshi kitob boʻlsa, erta-yu kech oʻqigim kelur.

– Humoyunning bu jihati menga oʻxshabdi, – dedi ichida Bobur... *(Pirimqul Qodirovdan)*

Humoyunning gapini husnixat bilan yozing.

Siz nimani yaxshi koʻrishingizni bir gap bilan ifodalang.

Qaysi qoʻshimchalar gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydi?

69-mashq. Berilgan soʻzlardan gaplar tuzib yozing.

gʻir-gʻir, kuzda, esadi, shabada.
kamroq, quyosh, havoni, isitadi.
daraxtlarning, sargʻayadi, bargi.
dalalarda, ishlari, boshlanadi, yigʻim-terim.

70-mashq. Nuqtalar oʻrniga tushirib qoldirilgan qoʻshimchalarni qoʻyib, matnni oʻqing.

Qadim zamonlar.. odamlar dastxatlari.. toshlar.., daraxt poʻstloqlari.., sopol va mis.. yasalgan ramkachalar.. yozishgan.

Hozir ishlatilayotgan qogʻoz ikki ming yil ilgari Xitoy.. ixtiro qilingan. Xitoyliklar qogʻoz tayyorlashni sir saqlashgan. Keyinchalik Yaponiya va Osiyo mamlakatlari qogʻoz ishlab chiqarishga muvaffaq boʻlishgan.

Hozirgi kunda qog‘oz.. 600 dan ortiq turi bor. *(Oqila Karimova)*

Matndagi birinchi xatboshini ko‘chiring. So‘zlarni o‘zaro bog‘layotgan qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

Ixtiro qilingan so‘zining ma’nosini tushuntiring.

71-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib yozing.

Buloqcha

Men oddiy mehnatsevar buloqchaman. Suvlarim.. dala-bog‘lar.. eltaman. Dehqonlar.. yaxshi hosil olishlariga yordamlashaman. Tegirmon toshi.. aylantiraman. Shuning uchun odamlar.. hurmatiga sazovor bo‘ldim. *(Turg‘unboy G‘oyipovdan)*

Gapda so‘zlarni bo‘g‘lovchi qo‘shimchalar qaysi turkumdagi so‘zlarga qo‘shilgan? So‘roqlar yordamida aniqlang.

72-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

1. Olamda-yu odamda bitta,
   Odoblida ikkita.

	h				

2. Chiziladi ko‘kda qalamsiz,
   Har xil bo‘yoq, rassomsiz.

k						k

Ko‘chiring. So‘z yasovchi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchani olgan so‘zlarni aniqlang. Asos va qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

73-mashq. Hikoyani diqqat bilan tinglang.

Alijon tog‘asining rasm chizayotganini ko‘rib havasi keldi. Tog‘asining sehrli qalamini olib, ot rasmini chizmoqchi bo‘ldi. Lekin chizgan rasmi sira otga o‘xshamadi. Buni ko‘rgan tog‘asi Alijonni yupatib:

– Gap qalamda emas. Yaxshi rasm chizish uchun ko‘p mashq qilish, o‘qish, o‘rganish kerak, – dedi. (*Turg‘unboy G‘oipovdan*)

Nima uchun Alijon tog‘asining qalamini sehrli deb o‘yladi?

74-mashq. O‘qing. So‘zlarni yozing va tarkibini chizmada ko‘rsating.

Mevazordan, sersuv, maktabdosh, shaqilla, tadbirkorga, isyonkor, vahimachi, sportchi, kompyuterchi.

Bir xil qo‘shimchali so‘zlarni toping va ularning ma’nosini izohlang.

75-mashq. Berilgan so‘zlarga avval so‘z yasovchi, so‘ngra so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni qo‘shib 3 ta gap tuzib yozing.

Namuna: *olmazordan*

Olma, uzum, ayb, ish, paxta.

76-mashq. Gaplarning ohangiga diqqat qiling.

Sulton ismli bola o‘z o‘rtog‘i Yusufjonga dedi:

– Yusufjon, Ali akamning yong‘oqlarini ko‘rdingmi? Qanday yaxshi, shirin yong‘oqlar! Yur, shu yong‘oqlardan cho‘ntagimizni to‘ldirib olaylik. Men da-

raxtga chiqib, yong‘oq qoqaman. Sen yong‘oqlarni terib olasan. Bizni hech kim ko‘rmaydi.

– Hech kim ko‘rmasa ko‘rmasin, lekin vijdonimiz ko‘rib turadi-ku! – dedi Yusufjon.

Matn yuzasidan 2 – 3 ta savol tuzing va yozing.

77-mashq. **Ish** so‘ziga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib, so‘zlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni tartiblashtirib, matn tuzib yozing.

78-mashq. **-chi, -kor, -li, -la** qo‘shimchalarini qo‘shib so‘zlar yasang va ular ishtirokida 2 ta gap tuzib yozing. So‘zlarning asosini va hosil bo‘lgan so‘zning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini qavs ichida ko‘rsating.

Namuna: *bokschi – boks (ot), bokschi (ot).*



79-mashq. Matnni o‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz? Tushunganlaringizni so‘zlab bering.

Bizning dono bobolarimiz hikmatlarni xazinaga o‘xshatishgan. Xazinadagi tilla-kumush kamayadi, hatto tugashi ham mumkin. Lekin kitobdagi hikmatlarni o‘qigan odam xazinaga ega bo‘ladi. Aqli boyiydi. Aqli boy odam hammadan kuchli bo‘ladi. Donishmandlarning hikmatlarini o‘qib-o‘rgangan odam hatto o‘limni ham yengishi mumkin. *(Tohir Malik)*

Ko‘chiring. So‘zlarning asosini belgilang. So‘z yasovchi va so‘zlarni o‘zaro bog‘laydigan qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

80-mashq. **-dosh, -chi, -la, -siz, -chan** qo‘shimchalari bilan asosdosh so‘zlar hosil qilib yozing. Ularni

qatnashtirib, „Ijodkor bolalar“ mavzusida kichik matn yarating.

81-mashq. So‘zlarni o‘zaro bog‘laydigan qo‘shimchalarni oladigan so‘zlarni qatnashtirib gap tuzing va yozing. Qaysi so‘z turkumidagi so‘zlarga so‘zlarni o‘zaro bo‘glovchi qo‘shimcha qo‘shish mumkin?

Yoz (ot) – yoz (fe’l), tut (ot) – tut (fe’l), qo‘y (ot) – qo‘y (fe’l), uch (son) – uch (fe’l)



82-mashq. O‘qing. Shoir o‘zi haqida nimalarni yozganligini qayta hikoyalab bering. Siz Anvar Obidjonning qaysi she’rlarini bilasiz?

Shoirchilikni Polosondagi **maktabda boshla**ganman. Men oilamizning to‘ng‘ich o‘g‘loni edim. Shuning uchun tirikchilik tashvishlaridan vaqt orttirib tunlari yozardim. She’rlarimda ko‘nglimdagi borini yashirmay to‘kib solishga urindim. She’rlarimni tugatardim-u, bolalarim yirtib o‘ynashlaridan cho‘chib, … **daftarga** ko‘chirardim. She’rlarim bilan **yurtdosh**larimga goh **darddosh**, goh **zavqdosh** bo‘ldim. *(Anvar Obidjon)*

Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring, asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. So‘zlarning shakli va ma’nosidagi o‘zgarishlarni izohlang.

83-mashq. ***-dosh*** qo‘shimchasi bilan 10 ta so‘z topib yozing. Ularning asos va qo‘shimchalarini belgilang. Ma’nosini izohlang.

84-mashq. Chizmaga mos so‘zlar toping va yozing.

1.  . 2.  . 3.  .

85-mashq. „Mening orzum“ mavzusida hikoya yozing. Hikoya tuzishda quyidagi savollardan foydalaning.

1. Siz nimalarni orzu qilib yashayapsiz? 2. Bu orzu sizda qanday paydo bo‘ldi? 3. Orzungizning ushalishi uchun nima qilmoqchisiz?

86-mashq. Topishmoqni o‘qing, javobini toping.

Shakli o‘xshar **o‘roqqa,**
Doim tutar **so‘roqqa.**

s				

Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

87-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

1. **Bilim** berar u bizga, boydir sehr va **so‘zga**. *(Topishmoq)* 2. Ish **aqllini** topar, aqlli **ishni** topar. *(Maqol)* 3. G‘ayrat – **jonga** madad. *(Maqol)*

4. Toshkent – tinchlik poytaxti,
Undadir xalqlar baxti.
Tinchlikning ishi haqdir,
Tinchlik bo‘lar barqaror.

Islom Nazar



88-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib yozing.

Bug‘doy yurtimiz.. eng ko‘p ekiladigan o‘simlikdir. U kuz.. va bahor.. ekiladi. Bug‘doy.. ekishdan oldin yer shudgor qilinadi. Boshoqlari to‘lganda hosil yig‘ib olinadi. Bog‘doy tegirmon.. maydalanib, un qilinadi.

Gapda so‘zlarni bo‘g‘lovchi qo‘shimchalar qaysi turkumdagi so‘zlarga qo‘shilgan? So‘roqlar yordamida aniqlang.

89-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. So‘roqlar yordamida gapda so‘zlarni o‘zaro bo‘g‘lovchi qo‘shimchalarni belgilang.

Qaldirg‘och ucha olgani bilan suvda suza olmaydi. Kiyik yugursa ham osmonda ucha olmaydi. Bulbul xushovoz bo‘lsa ham gapira olmaydi. Inson ularning ishlarini aql-idroki bilan bajara oladi. Shuning uchun jonzotlar odamlarning aql-idrokiga qoyil qolishar ekan. *(To‘lqin Muhiddindan)*

Matndan qanday xulosaga keldingiz?

90-mashq. Berilgan birikmalarni qo‘llab, „Mening maktabim“ mavzusida kichik hikoya yozing.

Bilim o‘chog‘i, katta, bino, sinf xonasi, ko‘p qavatli, birinchi qavat, kutubxona, oshxona, o‘qituvchilar xonasi, ma’naviyat xonasi, sport zali, lingafon xonasi, kompyuter, jihozlangan.



91-mashq. Bolalar qayerga berkinishganiga diqqat qiling.

Yilbobo to‘rt farzand ko‘ribdi. Ularni Bahorgul, Yozbek, Kuzbeka va Qishjon deb nomlabdi.

Bir kuni Yilbobo sovg‘a-salom olish uchun shaharga ketibdi. Bolalari esa bekinmachoq o‘ynashibdi. Bahorgul Qishjonning oq po‘stini tagiga bekinibdi. Yozbek Quyosh nuriga osilib, oppoq bulutning ustiga

chiqibdi. Kuzbeka qovunning urug‘i ichiga yashirinibdi. Qishjon sanoqni tugatib atrofga qarabdi. Hamma yoq jim-jit emish. Qishjon ularni qidira-qidira terlab, oq po‘stinini yechibdi. *(Olloyor Begaliyevdan)*

Eshitganlaringizni qayta hikoya qiling.

92-mashq. O‘qing. So‘zlarni tarkibiga ko‘ra tahlil qilib, jadvalga yozing.

Namuna: *iqtisodchini – iqtisod* – asos, *-chi – so‘z yasovchi qo‘shimcha, -ni – so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi* qo‘shimcha.

Iqtisodchini, uzumzorga, kasbdosh, shifokorga, qalamdondan, izla, iffatli, savodli, xatosiz, serjilo.

So‘z	Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha	Asosdosh so‘zlar
Iqtisodchini	Iqtisod	-chi	-ni	

Tilda so‘z yasovchi qo‘shimcha olgan hamma so‘zlar asosdosh so‘z hosil qila oladimi?

93-mashq. Matnni o‘qing. Xo‘roz nega hayron bo‘lib qolibdi? Matnni yozma davom ettiring.

Xo‘rozbek va Oftoboyim

Xo‘rozbek Oftoboyim mening ovozimni eshitib uyg‘onadi, deb o‘ylardi. Bir kuni Xo‘roz soyga yiqilib tushibdi.

O‘rdak va uning bolalari Xo‘rozni qutqarishibdi. Bechora Xo‘roz shamollab qolibdi. Bir necha kun ko‘rpa-to‘shak qilib yotibdi. Bir kuni ertalab uyqudan turib derazadan qarabdi. Oftoboyim nurlari bilan olamni charog‘on qilib turganini ko‘ribdi. Xo‘roz hayron bo‘lib qolibdi...

Bilimingizni tekshiring!

So‘zning asosi nimani ifodalaydi?

Qo‘shimchalar nima uchun turlarga ajratiladi?

Qaysi qo‘shimchalar asosdosh so‘zlarni hosil qiladi?

Tildagi so‘zlar qanday ko‘payib borishini bilasizmi?

SO‘Z TURKUMLARI

94-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Nega shoir to‘tining holiga achinadi? She’rni yoddan yozing.

Ona tilim

Ming yillarkim bulbul **kalomi**
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rlik to‘tining holi
O‘zgalarga **taqlid** hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,
Bulbul kuyin **she’rga solaman**.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham **to‘ti** bo‘lib qolaman.

Abdulla Oripov

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering va qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting.

95-mashq. Gaplarning ohangiga diqqat qiling.

Shu payt olma daraxti ustidan Mittining yaqiniga bir nima tap etib tushibdi.

– Voy biqinim-ey, voy qovurg‘am-ey!

Mitti egilib, Tillaqo‘ng‘izni ko‘ribdi.

– Ha, tilla, nima bo‘ldi senga?

– Olmadan yiqildim, shu yerga tiqildim. Oyoqlarim uvushdi.

– Ish qilsang uvushmaydi.

– Ishlab nima qilamiz, yotib yeyishni bilamiz.

– Tekin tomoq – boshga to‘qmoq,

Unutmagin buni, o‘rtoq. *(Yoqubjon Shukurovdan)*

Eshitganlaringizni qayta hikoya qiling.

96-mashq. Matnni o‘qing. Matn sizga kim haqida ma’lumot berdi? Zafar Diyorning qaysi she’rlarini yoddan ayta olasiz?

Zafar Diyor bolalarning sevimli shoiri edi. U quvnoq she’rlari, qo‘shiqlari bilan har bir bolaga o‘rtoq edi. **Zafar Diyor 1912-yilda Chust tumanining Samsoqtepa qishlog‘ida tug‘ildi. Shoir 38 yoshida og‘ir kasallikdan vafot etdi.** *(Shukur Sa’dulla)*

Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Ajratilgan gapni ko‘chiring. Shu gapdagi har bir so‘zning qaysi turkumga kirishini ayting va yozing.

Namuna: *og‘ir* (sifat)

So‘zlar nimalar asosida turkumlarga ajratiladi?

97-mashq. O‘qing. Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring. Ularning nima uchun bosh harf bilan yozilganini ayting.

Parvoz

O‘zbekiston, parvozingni
Qiyos etgum uchqur toyga.
Ona yurtim rivoj topib,
Qo‘limiz ham yetar oyga.
Yo‘llaringda „**Matiz**“, „**Damas**“,
„**Neksiya**“lar qilar poyga.
Tohir so‘rar **Jahongirdan**:
– Bu tulporlar chiqar qaydan?
– Andijonga yo‘ldosh shahar,
Asaka degan joydan.

Tursunboy Adashboyev

Tulporlar deganda nimani tushunasiz?

98-mashq. Chiziqchalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zlar qo‘yib o‘qing va yozing. Ularning qaysi turkumga kirishini ayting.

1. _____ so‘z shakardan shirin. 2. Yetti o‘lchab, _____ kes! 3. Nonni katta tishlasang ham, gapni _____ gapirma. 4. _____ bola – elga manzur.

Matndan belgi, miqdorni bildirgan so‘zlarni tushirib o‘qing. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘ldi?

99-mashq. O‘qing. Siz ham nasihatga amal qiling.

Shayx Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘g‘liga nasihat qilib aytibdi:

– Aziz o‘g‘lim, yomon odamlar bilan suhbatdosh bo‘lmang. O‘rinsiz kulgidan, masxarabozlikdan hazar

qiling. Xushmuomala odam bo‘ling. Olim, fozil odamlarning suhbatlaridan bahramand bo‘ling.

Kim? nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang. Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

OT – SO‘Z TURKUMI

100-mashq. Hikoyat kim va nima haqida ekanini ayting.

Sulton Ulug‘bek navbatdagi safardan Samarqandga qaytayotgan ekan. Ko‘chaning o‘rtasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi. Shoshib otdan tushibdi. Nonni qo‘liga olibdi. Uni o‘pib, peshanasiga surtibdi.

Nonning nomi ulug‘, nomidan o‘zi ulug‘. *(Hikoyatdan)*

Shaxs, narsa va joy nomlarini bildirgan so‘zlarni ko‘chiring.

101-mashq. O‘qing. Matn nima haqida yozilgan?

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo‘lgan. Olis asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha aloqa bog‘lagan. *(Islom Karimov)*

Bosh harf bilan yozilgan joy nomlarini ko‘chiring. Ularning nima uchun bosh harf bilan yozilganini ayting.

102-mashq. O‘qish kitobidagi „Qushlar qayda qo‘noqlar“ she’rini ifodali o‘qing. Tabiat hodisalarini ifodalagan otlarni topib yozing.

103-mashq. O‘qing. Birlik va ko‘plikdagi otlarni ayting.

O‘tgan bahorda Davronjonlarning uyiga yigirmata bolgariyalik yigitlar kelishdi. Ular Davronjonning dadasidan paxta terish mashinasi sirlarini o‘rganishdi. Ular ichida Mancho Jekov ismli yigit ham bor edi.

U Bolgariyadan Davronjonga xat yozdi.

Davronjon katta-katta harflar bilan o‘zbekcha yozilgan xatni o‘qidi:

Xaskovo yaxshi. Bahor yaxshi. Yer yaxshi. Traktor yaxshi. Chigit yaxshi. Mancho yaxshi. Do‘stlik yaxshi.

So‘ng Davronjon ham unga xat yozdi:

Davron yaxshi. O‘qish yaxshi. Bahor yaxshi. May yaxshi. Oyi yaxshi. Dada yaxshi. Traktor yaxshi. Qishloq yaxshi. O‘rtoq yaxshi. *(Xudoyberdi To‘xtaboyev)*

Otlarni aniqlang, ularni ma’nosiga ko‘ra guruhlab yozing:
1. Shaxs nomlari. 2. Narsa nomlari. 3. Joy nomlari.

Siz birorta xorijiy tilni o‘rganyapsizmi va shu tilda xat yoza olasizmi?
Otlar ma’nosiga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?

104-mashq. O‘qing. Reja tuzing va bayon yozing.

Chumchuq

Dadam har bahorda hovlimizga anvoyi gullar ektirar edilar. Ularning yashnab turishini yaxshi ko‘rardilar. Ammo rayhonlarni kimdir uzib ketardi. Dadam rayhonlarni qo‘riqlashni menga topshirdilar.

Dam olish kuni edi. Men hovlida ham dars qilib, ham rayhonlarni qo‘riqlamoqchi bo‘ldim.

Bir mahal rayhonlar yoniga bir chumchuq keldi. Tumshug‘i bilan rayhonni shart uzib olib, uchib ketdi. Men chumchuq rayhon yer ekanmi, deb hayron bo‘ldim.

Keyin bilsam, chumchuqlar o‘z bolalarini qurt-qumursqa, chumolidan saqlashda rayhondan foydalanar ekan. Rayhon hidiga hasharot kelmas ekan. *(Olmosdan)*

anvoyi – turli-tuman, rang-barang

105-mashq. Berilgan otlardagi harflarning o‘rnini almashtiring. Hosil bo‘lgan so‘zlar qaysi turkumga oidligini qavs ichida yozing.

hosil – sohil	nahor –	o‘zak –
tizza –	naqd –	kalit –

OTLARNING EGALIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANISHI

106-mashq. Otlarni o‘qing, asosini aniqlang.

kitobim	kitobimiz
kitobing	kitobingiz
kitobi	kitoblari

So‘zlarni yozing. Asos va qo‘shimchalarni belgilang.

Namuna: *kitobim*

-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -i – egalik qo‘shimchalaridir.

Egalik qo‘shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashliligini bildiradi.

Kitobim so‘zidagi **-im** qo‘shimchasi kitobning qaysi shaxsga tegishliligini bildiryapti? **-ing, -i** qo‘shimchalari-chi?

Tilda 3 ta shaxs bor:
I shaxs – so‘zlovchi.
II shaxs – tinglovchi.
III shaxs – o‘zga.
-m, -im, -miz, -imiz – I shaxs; **-ng, -ing, -ngiz, -ingiz** – II shaxs; **-i, -si, -i** – III shaxs egalik qo‘shimchalaridir.

107-mashq. O‘qing. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang, ularni ko‘chiring. Qavs ichida qaysi shaxsda ekanini yozing.

1. Uzun dala yo‘lida keksa bobo ikki sevikli nevarasi bilan birga borardi. *(Mirmuhsin)* 2. Kapalak, kapalak, qanotlaring ipakday. *(Mirmuhsin)*
3. Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo. *(Abdulla Oripov)*

108-mashq. Matnni o‘qing, unga sarlavha toping. Matnni qismlarga bo‘ling va reja tuzing.

Katta Tagob qishlog‘ida Mahmudjon ismli uyatchan bola yashardi. Bir kuni u ammasinikiga mehmonga

bordi. Ammasi uni uzum, anor, yangi yopilgan non bilan mehmon qildi.

Mahmudjon o‘rniga yotdi. Qorni ochligi uchun hech uyqusi kelmadi. Yangi yopilgan nonning hidi dimog‘iga urilib, ishtahasini qitiqlar edi... *(Xudoyberdi To‘xtaboyev)*

Tuzgan rejangizni yozing. Matn yaratishda ot so‘z turkumining ahamiyati haqida so‘zlab berishga tayyorlaning.



109-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur egalik qo‘shimchalarini qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Bizning bobolar.. kimlar bo‘lgan? Ular qanday zotlar bo‘lgan? Bizning bobolar.. yulduzlar sir.ni topgan Mirzo Ulug‘bek bo‘lgan. Jahon matematika fan.ga asos solgan al-Xorazmiy bo‘lgan. Dunyo xalqlar.ning bosh.ni qovushtirgan buyuk Amir Temur bo‘lgan. Biz yosh avlod ota-bobolar..ga munosib bo‘lib yetishsak, ism. jism.ga munosib bo‘libdi, degan nom olamiz. *(Shukrullodan)*

Otlarning qaysi shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanganini ayting. *Jahon, al-Xorazmiy, jism* so‘zlarining yozilishini yodda tuting.

Matnni to‘liq qayta hikoya qiling.

-m, -im, -ng, -ing, -i, -si – egalik qo‘shimchalari birlik ma’nosini bildiradi.

-miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -i – egalik qo‘shimchalari ko‘plik ma’nosini bildiradi.

110-mashq. Rasmlarni kuzating. Rasmlar asosida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahridagi o‘zgarishlar haqida suhbatlashing.





„Vatanimiz poytaxti – Toshkent“ mavzusida tasvir elementli matn tuzing va yozing.

111-mashq. Hikoyada necha kishining suhbati berilgan?

Qobil boboning ikki nabirasi – Shavkatjon bilan Shuhratjon tortishib qolishdi. Ular bobosining yoniga borib, qaysi birimiz odobli bolamiz, deb so‘rashdi.

– Oldin hassamni olib kelib bering. Keyin kim odobli bola ekanini aytaman, – dedi Qobil bobo *(Xudoyberdi To‘xtaboyev).*

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarning asos va qo‘shimchalarini belgilang. Otlardagi egalik qo‘shimchalarining shaxs-sonini qavsda ko‘rsating.

112-mashq. O‘qing. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarning asosi qaysi tovush bilan tugaganini ayting.

1. Mol-u davlatingiz bilan emas, ilm-u hunaringiz, go‘zal xulq-atvoringiz bilan iftixor qiling. *(Abuyazid*

Hakim) 2. Odam bolasi – elning bolasi. 3. Ra'noga buvisining boychechak haqidagi ashulasi yoqib qoldi. 4. Mening Vatanim – O'zbekiston Respublikasi.

Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarini tegishlicha belgilang. Undosh tovush bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qanday shaklda qo'shiladi? Unli tovushlar bilan tugagan otlarga-chi?

Egalik qo'shimchalari otlarga quyidagicha qo'shiladi:

- unli tovushdan so'ng **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -i** shaklida;
- undosh tovushdan so'ng: **-im, -ing, -i; -imiz, -ingiz, -i** shaklida.

113-mashq. Ko'chiring. Egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning asos va qo'shimchalarini belgilang.

1. Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina adabiyotni sevardi. Ularning uyida she'rxonlik kechalari o'tkazilardi. Shular sababli Alisher kitob bilan qattiq do'stlashdi. *(Oybek)* 2. Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekanligini angladim, otam bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bitardi. *(Xayriddin Sultonov)*

Asosi unli tovush bilan tugagan otlarga qaysi egalik qo'shimchalari qo'shilgan? Undosh tovush bilan tugagan otlarga-chi?

Egalik qo'shimchalarini tushirib o'qing. So'zlar o'zaro bog'landimi? Egalik qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti?

Egalik qo‘shimchalari gapda so‘zlarni o‘zaro bir-biriga bog‘laydi.

114-mashq. „Ona tilim – jon-u dilim“ mavzusida 4–5 gapli matn tuzib yozing. Tuzgan matningizdagi egalik qo‘shimchalarini ko‘rsating.



115-mashq. So‘zlarni o‘qing. So‘zlar asosidagi o‘zgarishni kuzating. Farqini ayting.

burun	**-im**	burnim	bilak	**i**	bilagi
og‘iz		og‘zim	kurak		kuragi
shahar		shahrim	quloq		qulog‘i
singil		singlim	bayroq		bayrog‘i

So‘z asosida qaysi tovushlar tushib qolgan? Qaysi tovushlar almashgan?

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchasini olgan otlarning asosini tegishlicha belgilang.

Namuna: *burnim*

Ba’zi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda asosda quyidagicha tovush o‘zgarishi yuz beradi:

- unli tovush tushib qoladi;
- undosh tovush almashadi.

116-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchasini olgan otlarning asos va qo‘shimchasini belgilang. Tushib qolgan tovushlarni aniqlang.

1. Yigitlikda yig‘ ilmning mag‘zini,
Qarilik chog‘i xarj qilg‘il oni.

Alisher Navoiy

2. Dilni hasaddan, tilni yolg‘on va g‘iybatdan, qorningni harom-xarishdan pok tut.

Farididdin Attor

Hasad so‘zining ma’nosini tushuntiring.



117-mashq. So‘zlarga III shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini qo‘shib o‘qing. Qaysi so‘zlarning asosida o‘zgarish yuz berdi?

Xalq, xulq, buloq, erk, ishtiyoq, ishtirok, istak, baliq, qo‘shiq, zirak, ittifoq.

So‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib yozing.



Otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda so‘z asosida doim o‘zgarish bo‘ladimi?





118-mashq. *O‘rtoq, buloq, so‘roq, bog‘, tog‘* so‘zlariga II shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchalarini qo‘yib o‘qing va yozing. So‘z asosida qanday tovush o‘zgarishi yuz berganini ayting.



119-mashq. Rasmni kuzating „Kitob do‘konida“ mavzusida suhbatlashing. Suhbatingiz asosida 5 – 6 ta gapli matn yozing.





120-mashq. Nuqtalar o‘rniga III shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchalarini qo‘yib, maqollarni o‘qing va yozing.

1. Bilag. zo‘r birni yiqar,
   Bilim. zo‘r mingni.

2. Daraxt yaproq. bilan ko‘rkam,
   Odam mehnat. bilan ko‘rkam.

OTLARNING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANISHI

121-mashq. O‘qing. Gaplarda takrorlanib kelayotgan bir xil otlarni aniqlang. Ularga ajratilgan so‘z orqali so‘roq bering. Shu otlarni ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Mehnat insonni **tarbiyalaydi**. 2. Mehnatning **rohati** ham bor. 3. Bolalar, mehnatni **seving**. 4. Bolalarni yoshlikdan mehnatga **o‘rgating**. 5. Odam mehnatda **sinaladi**. 6. Mehnatdan **kelsa** boylik, turmush bo‘lar chiroyli. (*Maqol*)

Gapda otlar boshqa so‘zlarga qaysi qo‘shimchalar yordamida bog‘lanadi?

Otlarga qo‘shiladigan **-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan** qo‘shimchalari kelishik qo‘shimchalaridir. Otlarda oltita kelishik bor.

Tartibi	Kelishiklar	So‘rog‘i	Qo‘shimchasi
1	Bosh kelishik	kim? nima? qayer?	–
2	Qaratqich kelishigi	kimning? nimaning? qayerning?	**-ning**
3	Tushum kelishigi	kimni? nimani? qayerni?	**-ni**
4	Jo‘nalish kelishigi	kimga? nimaga? qayerga?	**-ga (-ka, -qa)**
5	O‘rin-payt kelishigi	kimda? nimada? qayerda?	**-da**
6	Chiqish kelishigi	kimdan? nimadan? qayerdan?	**-dan**

122-mashq. *Vatan, kutubxona* so‘zlarini 6 ta kelishikda o‘zgartirib yozing. Qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

123-mashq. Matnni o‘qing. Har bir gapda takrorlanib kelayotgan *kitob* so‘ziga ajratib ko‘rsatilgan so‘z orqali so‘roq bering va birga ko‘chiring. Otning qaysi kelishikda ekanini ayting.

Kitob o‘z do‘stining dilini **og‘ritmaydi.** Kitobning suhbatidan inson foyda topadi. Bunday fayzli foydani boshqa hech qayerdan topib bo‘lmaydi. Kitobni **o‘qigan** inson o‘tmishdan va kelajakdan ogoh bo‘ladi.

Ajdodlarimiz o‘z meroslarini kelajak avlodlarga kitoblarda **qoldiradilar.** Inson uchun kitobdan **azizroq** va **yoqimliroq** suhbatdosh yo‘qdir. Shuning uchun ham: „Kitob aql qal’asidir“, – deganlar. *(Muhammad Jabulrudiy)*

qal’a – qasr, qo‘rg‘on

Kelishik qo‘shimchalari qanday vazifa bajaryapti?

124-mashq. O‘qing. Hikoya nima haqida ekan? Hikoyada *yong‘oq* so‘zi qaysi kelishiklarda qo‘llanganiga diqqat qiling. Ular ishtirokida 4 – 5 ta gap tuzib yozing.

Zag‘izg‘onlarning qiziq odati bor. Ular har yili kuzda qirqtacha yong‘oqni o‘g‘irlaydi. Bu yong‘oqlarni yerga ko‘mib qo‘yadi va xohlagan vaqtida olib yeydi. Ko‘pincha bu yong‘oqlardan o‘ttiz sakkiz-o‘ttiz to‘qqiztasini yeb bo‘lib, hisobidan adashib qoladi. Yerda qolib ketgan yong‘oq kelasi bahorda unib chiqadi. *(„G‘uncha“dan)*

Kelishik qo‘shimchalari qaysi qo‘shimchalardan so‘ng qo‘shilgan?

125-mashq. O‘qing. *Oftob, osmon* so‘zlarining ma’nodoshlarini toping.

Turkiy til o‘lkasi

– Oftob, Quyosh, Kun, Shams degan nomlarim bor. Men oltin aravamda hamma o‘lkalarni kezdim.

Biroq turkiy til o‘lkasi bo‘lmish O‘zbekiston meni o‘ziga tortadi.

– Mening ham ismlarim Oftobbibinikidan kam emas. Kitoblarda Koinot, Falak, Fazo, Ko‘k deb qo‘llaydilar. Suhbatlarda Osmon deb ishlatishadi.

Ularning suhbatiga chechaklar, qushlar aralashdi.

Ular ham turkiy til o‘lkasi O‘zbekistonda yashayotganliklaridan quvonishardi. *(Olloyor Begaliyevdan)*

Turkiy til o‘lkasi deganda nimani tushundingiz? Ma’nodosh so‘zlarni guruhlab yozing.



126-mashq. Matnni o‘qing. Unga sarlavha toping.

Qarg‘a – farosati o‘tkir **qush**. **Qarg‘aning** parvozini kuzating. U uchib ketayotib **o‘ljasini** tashlab yuboradi. Mabodo o‘lja suvga tushsa, orqasidan suvga sho‘ng‘ib, uni yana tutib oladi. O‘lja **suvga** tushib, suv bilan quvurga kirib ketsa, qarg‘a o‘ljasini quvurning quyi tomonida poylaydi. O‘lja **quvurdan** chiqishi bilan **tumshug‘ida** ilib oladi.

Ajratilgan so‘zlarga so‘roq berib, qaysi kelishikda qo‘llanganini aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida yozing. Kelishik qo‘shimchalarini belgilang.



BOSH KELISHIK



127-mashq. O‘qing. Matn necha qismdan iboratligini aniqlang. Har bir qismga sarlavha toping.

Buyuk bo‘yoqchi qirqta qozonda bo‘yoqlarini **pishirar ekan.** Bo‘yoqlarga xaridor bo‘lib Bahoroy **kelibdi.** U o‘ziga yashil bo‘yoqni tanlabdi.

Shu payt kunchiqar tomondan Yoz **yetib kelibdi.** Bo‘yoqchi Yozga har xil bo‘yoqlardan beribdi. So‘ng bo‘yoq bozoriga Kuz **kelibdi**. Kuz sariq, zarg‘aldoq ranglardan **olibdi**. Hammadan keyin Qish **kelibdi**. Bu paytda qozonda faqat oq rang qolgan ekan.

Qish boshqa fasllardan xafa bo‘libdi. Shuning uchun odamlar Qish o‘ksimasin deb, Yangi yilda archaning shoxlariga turli rangdagi o‘yinchoqlarni osib qo‘yar ekanlar. *(Olloyor Begaliyevdan)*

Ajratilgan so‘zlar orqali so‘roq berib, bosh kelishikdagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Bosh kelishikdagi ot gapda qaysi bo‘lak vazifasida kelgan? Shu otga bog‘lanib kelgan so‘z-chi?

! Gapda bosh kelishikdagi otni qanday aniqlaysiz?

128-mashq. Chiziqlar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini bosh kelishikda qo‘llab o‘qing va yozing.

Ilgari suvsiz qaqrab yotgan yerlarga _____ chiqarildi. Qaqroq _____ obod bo‘ldi. Bu yerlarga _____ o‘tqazildi. _____ ekildi, _____ qurildi. Qurilgan uylarga _____ ko‘chib kirishdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *odamlarni, ekinlarga, yerlardan, daraxtlarda, uylarga, suvning.*

Bosh kelishikdagi otning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing. Bosh kelishikdagi ot qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘llangan?

129-mashq. Tez aytishni o‘qing va mashq qiling.

Sabiha, Sohiba, Zabiha
Sahifani sinchiklab o‘qidi.

Husnixat bilan ko‘chiring. Bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing.



130-mashq. O‘qing va ko‘chiring. Bosh kelishikdagi otlarni aniqlang.

Har yili kuz keldi deguncha otamning yumushi ko‘payadi. Butun mahallaning bog‘-rog‘lari otamning qo‘lidan chiqar edi. Otam, ayniqsa, tok ishlarini mukammal bilardi. Otam har bir daraxt bilan gaplasha oladi. Ularning tilini biladi. *(To‘lqin)*

Ko‘chiring. Bosh kelishikdagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga o‘qing. Nima hosil bo‘ldi?

131-mashq. Ko‘chiring. Bosh kelishikdagi otlarni aniqlab, tagiga chizing.

Anor O‘zbekistonda ko‘p uchraydi. Anorning barglari mayda, nashtarsimon bo‘ladi. Shoxlari tikanli bo‘ladi. U iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi yirik, dumaloq, qizg‘ish yoki oqish bo‘ladi. Ta’mi shirin, nordon, sersharbat. Anor sovuqqa chidamsiz mevali o‘simlikdir. *(„O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“dan)*

nashtarsimon – o‘tkir, sanchiladigan
sersharbat – sharbati, shirasi ko‘p

Anorning xususiyatlarini so‘zlab bering.

132-mashq. Matnni o‘qing va ko‘chiring. Bosh kelishikdagi otlarni topib, tarkibini tegishlicha belgilang.

Jimitdekkina, xokisorgina qo‘zichoq bo‘lgan ekan. Uning otasi, onasi, akasi va opasi bor ekan. Otasi qo‘zichoqni bo‘rilardan himoya qilarkan. Onasi sut berib boqarkan. Akasi ko‘m-ko‘k o‘tloqlarda o‘ynatar ekan. Opasi qiziq-qiziq ertaklar aytib berarkan. *(Boris Snegurenkovdan)*

Bosh kelishikdagi otning tarkibida qaysi qo‘shimchalar ishtirok etishi mumkin? Matndan qanday xulosaga keldingiz?

QARATQICH KELISHIGI

133-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarga so‘roq bering. Ular qaysi kelishikda qo‘llangan?

Oftob bo‘lsa qanday soz,
Qushlarning to‘yi qizir.
O‘ynoqi **ariqlarning**
Yoqimli kuyi qizir.

Habib Rahmat

Qaratqich kelishigidagi otlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
To‘yi, kuyi so‘zlari qanday ma’noda qo‘llangan?

134-mashq. Matnni o‘qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang.

Barnoning lunjlari osildi. U buvisining oldiga keldi:

– Buvi, Munira yomon qiz ekan. Ko‘chamizdagi gulni ko‘chirib ketdi.

– Munira ko‘chamizning fayzini buzibdi-da, – dedi buvisi.

Shu kuni Barnoning chiroyi ochilmadi.

Kechga yaqin gulzorga kirdi. Gulsapsarning tagini yumshatdi, uni asta ko‘chirib oldi. So‘ng Munira ko‘chirib ketgan gulning o‘rniga o‘tqazdi. *(Latif Mahmudovdan)*

Qaratqich kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasini tegishlicha belgilang.

Namuna: *Barnoning lunjlari*

-ning qo‘shimchasi otni qaysi turkumdagi so‘zlarga bog‘laydi?

135-mashq. *Yaproq, varaq, singil, dars* so‘zlariga mos qaratqich kelishigidagi otlar tanlab, birikma tarzida yozing.

136-mashq. Hikoyadagi qaratqich kelishigidagi otlarning talaffuziga diqqat qiling. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan yozing.

Gulnozning o‘zi aqlli qiz. U xolasining uyiga borsa, jim o‘tirmaydi. Uylarni yig‘ishtiradi.

Bir kuni xolasi Gulnozni o‘zi ishlaydigan fabrikaga olib bordi. U yerda ayollar bolalarning ko‘ylaklarini tikishayotgan edi. Gulnoz chevarlarning ishini kuzatdi.

Tikuvchilardan biri ko‘ylakning yoqasini, ikkinchisi yonini tikardi. Gulnoz ko‘ylakni bir kishi tikadi, deb o‘ylardi. Endi bilib oldi, bitta ko‘ylakni bir necha kishi tikar ekan.

Gulnoz ko‘ylagini kir qilmasdan kiyishga ahd qildi. *(Xayriddin Saloh)*

Qaratqich kelishigidagi otlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?

137-mashq. Rasmni kuzating. „Transportlar xizmati“ mavzusida matn tuzib yozing.



138-mashq. Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib, birikma tuzing va yozing.

o‘quvchining

daraxtning

TUSHUM KELISHIGI

139-mashq. Matnni o‘qing. Ajratilgan otlarga so‘roq bering. Ular qaysi kelishikda qo‘llangan?

Kanareyka

Rashid ayvonda **kanareykasini** tomosha qilib o‘tirardi. O‘rik tomondan boshqa kanareykaning ovozi eshitildi. Qo‘shnisi chap qo‘lida bo‘sh **qafasni** ushlagancha u yoqdan bu yoqqa alanglardi. Rashid tezlik bilan **qafasini** hovliga olib chiqdi. Qo‘liga **matrapni** oldi. Kanareyka qafasning ustiga qo‘ndi. Rashid **matrapni** qushning ustiga tashladi. U **qushni** qo‘liga oldi-da, uyiga qarab chopdi. *(Sh. Mamajonov)*

Tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Tushum kelishigidagi otlar gapda qanday vazifa bajaryapti?

matrap – bedana, kaptar tutish uchun ishlatiladigan asbob, to‘r

140-mashq. O‘qing. So‘roqlar yordamida tushum kelishigidagi otlarni aniqlang.

Biz Kamalaktog‘ etaklariga o‘tovlarni tikdik. Bu yerda sayohatga chiqqan bolalarni uchratdik.

Men tunda safarda foydalaniladigan maxsus xalta-to‘shakni to‘shab yotdim. Ertalab nonushtadan so‘ng shifokor yigit bizlarga yigirma xil dorivor giyohlarni ko‘rsatdi. Fotohavaskor o‘qituvchi bu yerda yashaydigan turli hayvonlarning suratlarini olgani haqida so‘zladi. Men esa yon daftarimni bu yerdan olgan taassurotlar bilan to‘ldirdim. *(A. Aminov)*

Tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma shaklida ko‘chiring. Tushum kelishigi qo‘shimchasini tegishlicha belgilang.

Tushum kelishigidagi otlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?

141-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

1. Baland temir uy yurar,
   Burni tog‘larni surar.
2. Ko‘rinmasdan oqadi,
   Chiroqlarni yoqadi.
3. Yerga tushsa loy qilar,
   Dehqonlarni boy qilar.

b							

e					

t			

y	o				

Ko‘chiring. Tushum kelishigidagi otlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

142-mashq. Matndan nimalarni bilib oldingiz? Matnga sarlavha qo‘ying. Tushum kelishigidagi otlarni toping.

Tabiatni va jonivorlarni asrash hamda ko‘paytirish maqsadida respublikamizda o‘nga yaqin qo‘riqxonalar tashkil etilgan. Bular orasida eng kattasi Hisor qo‘riqxonasidir.

Bu yerda qor va ko‘llarni, tiniq va loyqa oqimli asov soylarni, yilda bir bor inson qadami tegadigan so‘qmoqlarni, ulkan daraxtlarni, nodir o‘simliklarni, chuqur daralarni, sirli g‘orlarni, kamyob parrandalarni, zangori yaylovlarni uchratasiz. *(A. Aminov)*

143-mashq. Matndagi otlarni qavsda berilgan kelishikda qo‘llab o‘qing. Shu otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Singlim menga Orif bobo.. (q. k.) bog‘idagi o‘rikning turshagidan yuboribdi. Bir hovuch turshak.. (t. k.) qo‘limga oldim-u, Orif bobo.. (t. k.) esladim.

Orif bobo erta bahordan qishli-qirovli kungacha bog‘da g‘imirlab yurardi. U kishi allaqachon olamdan o‘tgan. Undan „Orif bobo.. (q. k.) bog‘i“ qoldi. Inson.. (q. k.) qo‘li o‘z egasiga haykal yasab ketar ekan. *(Xudoyberdi To‘xtaboyevdan)*

Turshagi, *singlim* so‘zlarida qanday tovush o‘zgarishi yuz berdi? Nima uchun? Matndagi ma’nodosh so‘zlarni toping.

haykal – yodgorlik

144-mashq. Berilgan tushum kelishigidagi otga mos fe’llar topib, birikma tuzing va yozing.



145-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchasini qo‘yib ko‘chiring.

Anvar bola chog‘idan gulzor.. (-ning, -ni) yaxshi ko‘rardi. Maxdum.. (-ni, -ning) oilasiga kelgach, bog‘cha.. (-ni, -ning) gulzor qismiga o‘zi qaray boshladi. Gulzor.. (-ning, -ni) sug‘orish, o‘tlar.. (-ning, -ni) yulish vazifalari.. (-ning, -ni) o‘zi bajardi. Bolalar..

(-ning, -ni) uyidan gul ko‘chat va urug‘ olib, gulzor.. (-ning, -ni) boyitdi. *(Abdulla Qodiriydan)*

Qaratqich va tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan o‘qing. Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi qo‘shimchalari otni qaysi so‘z turkumiga bog‘laganini ayting.

Saboq so‘ziga ma’nodosh so‘zlar toping.

zaxmsiz – ozorsiz, jarohatsiz.

Otni qaratqich yoki tushum kelishigida qo‘llaganingizda nimaga e’tibor berdingiz?

146-mashq. Nuqtalar o‘rniga qaratqich yoki tushum kelishigi qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib o‘qing.

Bir kuni Oqiljon.. dadasi uch-to‘rt tup gul ko‘chati.. ko‘tarib keldi.

– Qani, o‘g‘lim, qarashib yuboring, ko‘chatlar.. ekamiz, – dedi dadasi.

– Xo‘p bo‘ladi, – javob berdi Oqiljon.

Oqiljon suyunib ketdi. Dadasi chuqurcha qazidi. Oqiljon suv quyib turdi. Har bir chuqurchaga gul ko‘chati.. qo‘yib, ustidan tuproq.. tortdi.

Oqiljon hovlida o‘ynab yurib, ko‘chatlar.. barg yozganini ko‘rib qoldi. U o‘z ishidan quvonib ketdi. *(Hamza Imonberdiyevdan)*

Matnga sarlavha topib ko‘chiring.

147-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchasini qo‘yib, tez aytishlarni yozing. Tez aytishni mashq qiling.

1. Tursun tog‘am tovug‘i.. tuxumi.. tarozida tortmoqda. 2. Toshkentlik Toshtemir.. teshasi toshloqlik Toshbolta.. teshasidanmas. 3. Mashhura moshxo‘rda.., Mastura moshuvra.. pishirdi.



JO‘NALISH KELISHIGI

148-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ajratilgan otlarga so‘roq bering. Ular qaysi kelishikda qo‘llanganini ayting.

Chaman-chaman **gullarga,**
Sayroqi **bulbullarga,**
Ko‘kni quchgan **uylarga,**
Baxt keltirgan **to‘ylarga,**
Quvnoq va sho‘x **kuylarga**
Joydir go‘zal **Vatanim,**
Boydir go‘zal **Vatanim.**

Po‘lat Mo‘min

Ko‘chiring. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini belgilang.

Jo‘nalish kelishigidagi otlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

Ko‘kni quchgan birikmasi qanday ma’noda qo‘llangan?

Baxt, sho‘x so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.

149-mashq. O‘qing. Jo‘nalish kelishigidagi otlarni so‘roqlar yordamida toping. Ularni ko‘chirib, asos va qo‘shimchalarini belgilang.

Chumchuq bolasi

Boboxon chumchuq bolasini rosa qiynadi. Suvga solib suzdirdi. Ikki qanotini yoyib hilpillatdi. Keyin ikki

oyog‘iga ip bog‘lab, ko‘chaga olib chiqdi. Boboxon chumchuqni Tal’atga yarimta o‘chirg‘ich bilan qizil qalamga almashdi.

Tal’at chumchuqchaning oyog‘idagi ipni avaylab yechdi. Keyin osmonga qo‘yib yubordi. *(O‘ktam Usmonovdan)*

Boboxonning qilgan ishiga munosabatingizni yozing.



150-mashq. Ertakka sarlavha qo‘ying.

Tulkining boshiga musibat tushdi. Tomog‘iga suyak qadaldi.

Turna Tulkining tomog‘idan suyakni olib tashladi. Tulki o‘limdan qutuldi. Ular do‘st bo‘lishdi.

Ko‘chiring. Otlarni aniqlab, qaysi kelishikda ekanini qavs ichida ko‘rsating. Otlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang. Jo‘nalish kelishigidagi otlarning asosi va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang





151-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ajratilgan otlarga so‘roq berib, ularning qaysi kelishikda ekanini ayting.

Nodir qishloqqa bordi

Nodir borib **qishloqqa**
Alanglaydi har yoqqa.
Ma’raydi barcha **hayvon,**
Nodir boqadi hayron.
O‘zini qo‘lga oldi,
Aqlini ishga soldi.
Go‘sht berdi **qo‘zichoqqa**,
Tuxum berdi **buzoqqa.**
Mushukka tashladi o‘t,
Xo‘rozboyga berdi sut.
Suyak tashladi **otga,**
Po‘choqni berdi **itga.**
Hayvonlar yemas ovqat,
Nodir-chi,
Bo‘lar diqqat.

Rauf Tolib

Jo‘nalish kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Ularning yozilishini izohlang. Nodir qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi?

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qanday shakllarga ega?
-ka qo‘shimchasi qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo‘shiladi?
-qa qo‘shimchasi-chi? **-ga** qo‘shimchasi-chi?

152-mashq. O‘qing. Matnni to‘liq qayta hikoya qiling.

Tuproqqa salom

O‘tqazilgan nihollar so‘lg‘inlashib, yerga bosh egishdi. Bu holni payqagan Oydin dadasidan so‘radi:

– Nihollarga nima bo‘ldi?

– Ko‘chatlar yerga – tuproqqa salom berishyapti. Ular boshqa tuproqdan keltirildi. „Bizni bag‘ringga olganing uchun rahmat“, deb ta’zim qilishyapti, – dedi dadasi.


Oydin keyingi kun o‘tqazilgan nihollarning ko‘kka bo‘y cho‘zib, yashnab turganini ko‘rdi. Shunda u tuproqqa salom bergan nihollarga quvonch bilan boqdi. *(Oltmish O‘sarovdan)*

Jo‘nalish kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chiring.

Bag‘ringga so‘zida qanday tovush o‘zgarishi yuz bergan?

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi turkumdagi so‘zga bog‘laydi?

153-mashq. Berilgan fe’llarga mos ot tanlab, birikmalar tuzing va yozing.



154-mashq. Nuqtalar o‘rniga **-ga, -ka, -qa** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib o‘qing. Jo‘nalish kelishigidagi otlarning aytilishi va yozilishidagi farqni tushuntiring.

Yangi yilda o‘yimiz:
O‘ssa osmon bo‘yimiz,
Ko‘k.. tegsa archamiz,
Oy.. qo‘nsa sharchamiz,
Oy aylansa saroy.. ,
Oyda o‘ynasak poyga,
Minishib yulduz toy.. .

Quddus Muhammadiy

Ilindi Cho‘rtan
Qarmoq.. .
Kimdir tortqilar
Qirg‘oq.. .
Bolalar turdi
Oyoq.. .
– Onajon, to‘xtang!
Qayoq.. ?!

Anvar Obidjon

Jo‘nalish kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Jo‘nalish kelishigidagi otlarning tagiga tegishlicha chizing.

! Jo‘nalish kelishigidagi otlar gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?

155-mashq. Matnni o‘qing va sarlavha toping.

...Ibn Sino bir haftadan keyin saroyga keldi. Doridarmonlar bemorga ta’sir qilganini ko‘rdi. Binni Mansur Ibn Sinoni ochiq chehra bilan qarshi oldi. Tabibga

o‘z minnatdorchiligini bildirdi. Ibn Sinoga nimani istasa, shuni bermoqchi bo‘ldi. Ibn Sino saroyning kutubxonasida mutolaa qilish uchun ijozat so‘radi.

Podsho puldan ilmni afzal ko‘rgan olimga kutubxonadan foydalanishga ruxsat berdi. *(Mirkarim Osim)*

Matnga reja tuzing. Reja asosida qayta hikoyalang va sarlavha topib, bayon yozing.



156-mashq. O‘qing. Berilgan otlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘shib, so‘zlarni ko‘chiring.

Qarmoq, terak, fazo, maktub, o‘roq, tilak, taroq, quyosh, ohang, avlod, suhbat, ko‘zgu, guruh, tog‘.

Shu so‘zlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.



O‘RIN-PAYT KELISHIGI



157-mashq. O‘qing. Ajratilgan otlarga so‘roq bering. Ular qaysi kelishikda qo‘llangan?

Qadim zamonda bepoyon **o‘rmonda** turli jonzotlar inoq yashar ekan. Sichqon **oftobda** erkalanib yotgan mushukning **bag‘rida** o‘ynarkan. Bo‘ri qo‘zichoqni o‘z bolasidek yalab-yulqar ekan. Tulki jo‘jalarni dondun bilan siylarkan. Yo‘lbars kiyik bolalarini yelkasiga mindirib, **qirlarda** sayr qildirar ekan...

Bolalar, ertakni ijodiy davom ettiring. O‘rin-payt kelishigidagi otlar qatnashgan gaplarni ko‘chiring. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini belgilang. *Bepoyon* so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

O‘rin-payt kelishigidagi otlarni qanday aniqlaysiz?

158-mashq. O‘qing. O‘rin-payt kelishigidagi otlarni aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Jo‘rchi

Jo‘rchi respublikamizning sahrolarida va tog‘ etaklarida, Amudaryo sohillarida, Qarshi cho‘lida uchraydi. Tog‘larda 1600 – 1700 metrgacha balandlikda yashaydi. Afrika va Osiyoda qishlaydi. Jo‘rchilar O‘zbekiston janubiga mart oyi boshlarida uchib keladi. Yerda yaxshi yuradi. U respublikamizdan sentabrda uchib ketadi. *(A. Madrahimov)*

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi turkumdagi so‘zga bog‘laydi?

159-mashq. Maqollarni o‘qing. O‘rin-payt kelishigidagi otlarni so‘roqlar yordamida aniqlang, ularni o‘zi bog‘langan fe’l bilan ko‘chiring.

1. Odob bozorda sotilmas. 2. Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l. 3. O‘tloqda bedana ko‘p, dangasada bahona.



160-mashq. Nima uchun matn „Sayyohlar daraxti“ deb nomlangan?

Sayyohlar daraxti

Amerikada, Braziliyada sayyohlar daraxti deb nomlanadigan ajoyib daraxtni uchratish mumkin. Bu daraxtda shox bo‘lmaydi, yo‘g‘on tanasidan katta-katta

barglar chiqaradi. Barglarining tuzilishi yelpig‘ichga o‘xshaydi. Bargning tanaga tutashgan joyida chuqurcha bo‘lib, bu yerda hamisha suv turadi. Chanqab kelgan sayyohlar ana shu suvdan ichib, yana yo‘lda davom etaveradilar. *(N. Rahmatov)*

161-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, matnni ko‘chiring. Kelishik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

Mirzo Ulug‘bek boshi.. ko‘tarib atrofga qaraydi. Oftob ko‘rinmas, osmon.. qora bulut qoplab olgan edi. Dalalar va adirlar.., o‘rib olingan bug‘doyzorlar.., hatto olis-yaqindagi bog‘lar.. biron-bir odam qorasi ko‘zga chalinmas, hatto qirlar.. mollar ham ko‘rinmas edi. *(O. Yoqubov.)*

O‘rin-payt kelishigidagi ot gapda qaysi gap bo‘lagi bo‘lib keladi?

162-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

1. Osmonda suzar, qanoti yo‘q. b
2. Tunda ko‘rib, cho‘g‘ deysan,
   Tongda ko‘rib, yo‘q deysan. o

Ko‘chiring. O‘rin-payt kelishigidagi otlarning tagiga chizing.

CHIQISH KELISHIGI

163-mashq. Maqollarni o‘qing. So‘roqlar yordamida chiqish kelishigidagi otlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Shirin so‘z boldan shirin. 2. Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q. 3. Yurtidan ayrilganni yov chopar. 4. O‘z mehnatidan non yegan kishi, Yomon minnatidan ozod yoz-qishin. 5. Olamdan g‘amsiz o‘tay desang, ilm-u hunar o‘rgan.

Otlardagi chiqish kelishigi qo‘shimchasini tegishlicha belgilang.

164-mashq. O‘qing. Matnni qayta to‘liq hikoyalang.

Qadim zamonlarda hozirgiga o‘xshash ruchkalar bo‘lmagan. Qamishdan, daraxtlarning novdasidan, qush-larning patidan yasalgan ruchkalardan foydalanganlar. Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari bobolarimiz ham shunday ruchkalarda kitob yozganlar.

Qanaqa ruchkadan foydalanilmasin, faqat yaxshi narsani yozish kerak. Yaxshi so‘zlarning umri boqiy bo‘ladi. *(Oqiljon Husanov)*

Ko‘chiring. Chiqish kelishigi qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

Hozirgi vaqtda yozish uchun nimalardan foydalaniladi?

boqiy – abadiy, mangu, o‘lmas

165-mashq. Berilgan fe’llarga mos otlar toping. Ularni chiqish kelishigida qo‘llab, birikma tuzing va yozing. Chiqish kelishigi otni qaysi so‘z turkumiga bog‘layapti?

Keldi, yozdi, o‘qidi, eshitdi.

Chiqish kelishigidagi otlarni gapda qanday aniq-laysiz? Chiqish kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi so‘z turkumiga bog‘laydi?

166-mashq. O‘qing. She’rning nima haqida ekanini ayting.

1. Kim hunarsiz, kim bekor,
   O‘qish, ishdan qilsa or.
   Unga loyiq maqol bor:
   – Bekorchidan el bezor.
2. Qaynab chiqqan dilimdan,
   Aytay burro tilimdan,
   So‘zing to‘lsin ma’noga
   Hunarlardan, bilimdan.

Po‘lat Mo‘min

Avval aytilishi yozilishiga mos kelgan, keyin aytilishi yozilishiga mos kelmaydigan chiqish kelishigidagi otlarni ko‘chiring.

Nima uchun ba’zi otlarda **-dan** qo‘shimchasi **-tan** tarzida aytiladi?

167-mashq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib o‘qing. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Ubaydullo bobo bugun ish.. sal kech qaytdi.

Malika odatdagidek bobosining quchog‘i.. otildi.

– Jon qizim, senga va’da qilgan narsani olib kelolmadim, – dedi buvasi.

– Nega, buvajon?

– Kassir bank.. bora olmabdi.

– Kassir? Kim u?

– Kassir bankdan pul keltirib, xizmatchilarga maosh tarqatadi.

– Voy, kecha biz oyim bilan bankalar.. pomidor tuzladik-ku!

– Banka emas, bank! Bank daromadlar jam bo‘ladigan joy. Pulning uyi desam ham bo‘ladi. *(Namoz Sa’dullayev)*

Otlardagi jo‘nalish, chiqish kelishigi qo‘shimchalarining aytilishi bilan yozilishini taqqoslang. Yozilishini bilib oling.

daromad – sof foyda, mablag‘
maosh – xizmat, ish uchun beriladigan pul

168-mashq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, matnni o‘qing va ko‘chiring. Kelishik qo‘shimchalarini olgan otlarning tagiga chizing.

Bolalar! Ota-ona.. hurmat qilish, ularning xizmatlari.. bajarish hammamizning vazifamizdir. Ota-ona.. ranjitadigan so‘zlar aytishdan, ko‘ngillari.. qoldiradigan ishlar... doimo saqlaning.

169-mashq. Matnni o‘qing. Otlarni aniqlab, ularni kelishiklar tartibida yozing.

Namuna: b. k. *podsho,* ...

Podsho Beruniyni sinamoqchi bo‘libdi.
– Qani, ayting-chi, men shu boloxonadagi to‘rt eshikning qaysi biri orqali tashqariga chiqishim mumkin?
Abu Rayhon Beruniy qo‘liga bo‘r va taxtacha olib, boloxonani o‘lchabdi. Bir parcha qog‘ozga allanimalarni yozibdi. Podsho xonadan boshqa eshik ochtirib, tashqariga chiqibdi. Qaytib kelib qog‘ozdagi yozuvni o‘qibdi. Unda Beruniy: „Podsho to‘rt eshikning

birontasidan ham tashqariga chiqmaydilar. Yangi eshik ochtirib, o‘shandan chiqadilar“, deb yozgan ekan.

Yozgan otlaringizning asos va qo‘shimchalarini belgilang.

170-mashq. Rasmni kuzating. Berilgan so‘zlardan foydalanib, „Men onamga yordamchi“ mavzusida hikoya tuzib yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *bog‘chaga, ukamni, onamning, uyda, maktabdan, piyolalarni, dasturxonni, likopcha, qoshiq, artmoq, faxrlanmoq, xursand bo‘lmoq.*

171-mashq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib o‘qing. Matnga reja tuzing va yozing.

Yalpiz

Yalpiz – xushbo‘y o‘simlik. Bu ajoyib o‘simlik.. O‘zbekiston.. bir qancha xillari bor.

Erta bahor.. unib chiqqan yalpiz.. terib, somsa yopishadi, chuchvara tayyorlashadi. Barra barglari..

taomlar.. solishadi. Mahalliy aholi yalpiz.. barglari.. quritib, turshak.. aralashtirishadi. Natijada ularga qurt tushmaydi.

Yalpiz nafas yo‘llari va ovqat hazm qilish a’zolari.. faoliyati.. yaxshilaydi.

OT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

172-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarni ko‘chirib, asos va qo‘shimchalarga ajrating.

... Baxtli kunlar, rangin gullar
Quchog‘ida tug‘ilding sen.
Seni o‘ylab uzoq tunlar,
Mijja qoqmas **chegarachi.**
Senga ravon asfalt yo‘llar
Qurayotir minglab **ishchi.**
Senga atab maktab solar,
Binokorlar marmarlardan...

Quddus Muhammadiy

So‘zlar tarkibidagi qaysi qo‘shimchalar so‘z ma’nosini o‘zgartiryapti? Bu qo‘shimchalar qanday nomlanadi?

Ot yasovchi qo‘shimchalardan so‘ng qanday qo‘shimchalar qo‘shiladi?

173-mashq. Rasmda nimalar tasvirlangan? Bu sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarni yozing.






174-mashq. O‘qing. So‘zlarga mos so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

sinf...	**-chi**	tennis...	**-zor**
futbol...	**-zor**	gul...	**-kor**
soat...	**-dosh**	bino...	**-dosh**
uzum...	**-soz**	parta...	**-chi**

So‘zlarning asosi qaysi turkumga oid? Hosil bo‘lgan so‘zlar-chi?



175-mashq. O‘qing. So‘zlarga ot yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

ela – elak	tara – taroq
kura – ...	so‘ra – ...
tila – ...	buta – ...
beza – ...	bo‘ya – ...

Berilgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga xos? Hosil bo‘lgan so‘zlar-chi? Qaysi so‘zlar tarkibida o‘zgarish bo‘ldi? Nima uchun?

-chi, -zor, -dosh, -kor, -k, -q, -loq ot yasovchi qo‘shimchalardir.

176-mashq. Ma’nodosh otlarni guruhlab yozing. Ular ishtirokida ikkita gap tuzing.

Tilak, sovg‘a, odam, bahor, kishi, orzu, tortiq, inson, niyat, istak, hadya, ko‘klam, armug‘on.

177-mashq. **-chi, -zor, -dosh, -kor** qo‘shimchalari bilan ot yasang va yozing. Yozgan so‘zlaringizning ma’nosini tushuntiring.

Namuna: *hisob – hisobchi...*

-chi, -dosh, -kor qo‘shimchalari qanday ma’noli so‘zlar yasadi? **-zor** qo‘shimchasi-chi?



178-mashq. Birikmalarni o‘qing.

ko‘m-ko‘k **o‘t** – ariqdan **o‘t**
uchqur **ot** – koptokni **ot**

Bir xil shakldagi so‘zlarning ma’nosini izohlang.

Tilda *ot, o‘t* so‘zlari necha xil ma’noda qo‘llanadi? Ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzing. Ular qaysi tomoni bilan bir-biriga o‘xshaydi? Nimasi bilan farq qiladi?

179-mashq. Matnni o‘qing. So‘z yasovchi qo‘shimchali otlarni topib, tahlil qiling.

Hovuz bo‘yidagi supada uxlab qolgan Yorqintoy soat ikkilarda uyg‘ondi. Bu vaqtda suvchilar, traktorchilar paxtazordan chiqib kelishardi. Taxminan soat to‘rtlarda shiyponga kelganlarning hammasi birin-ketin tarqalib, yana paxtazor oralab ketishdi. Tolzordagi supada faqat Burhon bobo bilan oshpaz Qo‘chqor amaki qoldi. Yorqintoy qishloq odamlarining mehnatkashligini yoqtirib qoldi. *(Oqiljon Husanovdan)*

Otni tahlil qilish tartibi:
paxtakorlarni – kimlarni?, ot, shaxs oti, *paxta* – asos, **-kor** – ot yasovchi qo‘shimcha, **-lar** – ko‘plik qo‘shimchasi, **-ni** – tushum kelishigi qo‘shimchasi.

180-mashq. *Gul, bodom, kura, tara, maktab, paxta, ish* so‘zlariga ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shib, ot ya-

sang, qo‘shimchani tegishlicha belgilang. Yasovchi qo‘shimchalar qanday otlarni hosil qilgan?



Bilimingizni tekshiring!

Otlarning ma’nosiga ko‘ra turlarini ayting.
Qanday otlarni bosh harf bilan yozasiz?
Otlar qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?
Egalik qo‘shimchalari qanday ma’no bildiradi va qanday vazifani bajaradi?
Egalik qo‘shimchalarini yoddan yozing.
Otlar gapda boshqa so‘zlar bilan nimalar yordamida bog‘lanadi?
Otlar gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?
Otlar qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?



SIFAT – SO‘Z TURKUMI



181-mashq. Matnni o‘qing. Chiziqchalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, matnni qayta o‘qing. Fikr mazmuni qaysi holatda to‘liqroq ifodalandi?

Ertalabga yaqin _____ shamol atrofni larzaga keltirdi. Tog‘ cho‘qqilarini ____ bulutlar o‘rab olgan edi. Dam-badam tog‘ boshida chaqmoq chaqar, go‘yo allaqanday _____ kuch osmon gumbazida _____ toshlarni yumalatib o‘ynardi. Dam o‘tmay selning ovozi, _____ toshlarning sharaqlab oqib kelayotgani barala eshitildi. *(R. Rahmonov)*

Foydalanish uchun so‘zlar: *qop-qora, kuchli, qudratli, katta-kichik, xarsang.*

Matn mazmunini aniq va to‘liq ifodalashga xizmat qilgan so‘zlarga so‘roq bering. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Qanday?, qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi?

182-mashq. Matnni o‘qing.

Archa

Ko‘m-ko‘k archa ona tuproq bag‘ridan unib chiqadi. Quyoshning zarrin nurlarini emib o‘sadi. Uning yam-yashil rangi hech o‘zgarmaydi.

Archa qishning qahraton sovuq havosiga bardosh beradi. Bahorda ham sevimli libosini o‘zgartirmaydi. Faqat yangi novdalar chiqaradi. Kuzda ham o‘zining yashil to‘nini tashlamaydi. *(Jabbor Razzoqovdan)*

So‘roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan yozing.

Novda so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

Sifatlar qaysi turkumdagi so‘zga bog‘lanib keladi?

183-mashq. Maqollarni o‘qing, ma’nosini tushuntiring.

1. Rejali ish – tejamli ish. 2. Befoyda so‘zni ko‘p aytma, foydali so‘zni ko‘p eshitishdan qaytma. 3. Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i.

Ko‘chiring. Sifatlarning otga bog‘lanishini chizmada ifodalang.

Namuna: *rejali ish.*

184-mashq. O‘qing. Birikmalardan qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan matn hosil bo‘lsin. Matnga sarlavha qo‘ying.

Ayyor tulki, katta tulki, oppoq qor, qalin qor, chiroyli archa, ko‘m-ko‘k archa, musaffo osmon, sovuq havo.

185-mashq. Berilgan otlarga mos sifatlar topib, birikmalar tuzing va yozing.



Sifatlar otga nima vositasida bog‘lanadi?
Sifatlar otga ohang vositasida bog‘lanadi.

186-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. Qanday?, qanaqa? so‘roqlari yordamida sifatlarni topib, tagiga to‘lqinli chiziq chizing. Sifatlar nimaning belgisini bildirgan?

Saxiy ona tabiat
Quchog‘ida havo sof.
Onda-sonda ko‘rinar
Nursiz, qizg‘ish oftob.

Ko‘k maysalar nish urib
Yerning baland-pastida.
Go‘zal bahor selkillab,
Yetilar qor ostida.

Qudrat Hikmat

187-mashq. Matn mazmuniga mos qanday rasm chizish mumkin? Rasm mazmunini gaplar bilan ifodalang.

Qor yog‘yapti. Bolalarning beg‘ubor qalbi daryoday to‘lib-toshyapti. Bahorda ko‘m-ko‘k o‘tloqlardan op-

poq kapalaklarni ushlamoqchi bo‘lganday har bir zarrachaga talpinishadi.

Qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga qo‘ndi. Qor qizchaning qo‘lida tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumda hamma yoq oq choyshabga burkandi. Bolalar oppoq qorlarni dumaloqlab, qorbo‘ron o‘ynashdi. *(Jabbor Razzoqovdan)*

So‘roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, ularni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring. Sifatlar nimaning (narsa yoki shaxsning) belgisini bildiryapti? *Beg‘ubor* so‘ziga ma’nodosh so‘zlar topib yozing.

Sifatlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi? Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

188-mashq. Matnni o‘qing. Sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Sifat qaysi turkumdagi so‘zga bog‘langan? U gapda qanday vazifa bajargan?

Zuhra bilan Turna

Zuhra quruq butalar orasida uzun bo‘yli Turnani ko‘rib qoldi. Qush sarg‘ish-ko‘kish ko‘zlari bilan Zuhraga xavotirlanib boqardi. Juda chiroyli qush ekan, deb o‘yladi Zuhra Turnaga tikilib.

Zuhra shu kuni tush ko‘rdi. Tushida o‘sha kulrang patli Turna bilan uchrashdi.

U Turnaga savollar berdi:

– Turnajon, arqondek tizilib uchishni qayerdan o‘rgangansizlar?

– Arqondek tizilib, tartib-intizom bilan uchishni ota-onalarimizdan o‘rganganmiz, – dedi Turna. *(O.Husanov)*

Siz ham turnalarning parvozini kuzatganmisiz? Hikoyadan qanday xulosaga keldingiz?

189-mashq. Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni aniqlang.

Azamatning dadasi tuvakda gul olib keldi. U juda xursand bo‘ldi. Yashil bargli, qizg‘ish, tikansiz gulning atrofidan ketgisi kelmay qoldi. Qarasa, gulning kichkina tugmachasi ham bor ekan. Azamat uni uzib olmoqchi bo‘ldi-yu, lekin yuragi dov bermadi. Yomon bolalargina shunday qilishadi. Azamat esa yaxshi bola. *(Zamira Ibrohimova)*

Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.



SIFATLARNING MA’NO MUNOSABATI

190-mashq. Berilgan sifat va otlardan foydalanib, birikmalar tuzing va yozing.

buyuk, ulug‘, katta, yirik;
olim, yozuvchi, bino, inson, davlat;
chiroyli, go‘zal, barno, suluv, dilbar;
qiz, bola, yigit, kelinchak, shahar, diyor.

Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

Ma’nodosh sifatlarning har biri bitta ot bilan bog‘lana oladimi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

191-mashq. O‘qing. Berilgan sifatlarni ma’nolariga ko‘ra guruhlab yozing. Ularning ma’nolarini izohlang.

1. Betashvish, noiloj, g‘ussasiz, qahrli, g‘amsiz, g‘azabli, ilojsiz, g‘azabnok, chorasiz, tashvishsiz.

2. Sovuq, egri, boy, yumshoq, aqlli, lapashang, to‘g‘ri, issiq, kambag‘al, qattiq, ahmoq, chaqqon.

Yuqoridagi sifatlardan qatnashtirib, kichik hikoya tuzib yozing.

! Sifatlar qanday ma’no munosabatda bo‘lishi mumkin?



192-mashq. O‘qing. Sifatlarning ma’nodoshlarini topib, namunadagidek guruhlab yozing.

Namuna: *ko‘rkam, chiroyli, ...*

Ko‘rkam, sezgir, katta, chaqqon, chiroyli, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur, xursand, qahramon.

Berilgan sifatlardan qatnashtirib, kichik hikoya tuzib yozing.



193-mashq. Birikmalardagi sifatlarning ma’nosini taqqoslang.

Qalin kitob – qalin o‘rtoq, chiroyli gul – chiroyli nutq, og‘ir tosh – og‘ir bola, yaqin yo‘l – yaqin dugona, o‘tkir pichoq – o‘tkir til.

Ko‘chiring. O‘z ma’nosida qo‘llangan sifatlarning tagiga chizing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan sifatlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

! Sifatlar qanday ma’nolarda qo‘llanadi?

194-mashq. O‘qing. Sifatlarni o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llab, birikmalar tuzib yozing.

Achchiq, quruq, sovuq, to‘g‘ri, egri, qora, oq.

Ko‘chma ma’nodagi sifatli birikmalarni qatnashtirib, gap tuzib yozing.

195-mashq. *Qattiq, yumshoq, iliq, qalin, yengil* sifatlarini o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llab, gap tuzib yozing.

SIFATLARNING MA’NO TURLARI

196-mashq. Rasmdagi mevalarning rangini, shaklini, hidini, hajmini, mazasini ayting va nomi bilan yozing.



Sifatlarning tagiga chizing.

> **!** Sifatlar narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildiradi?

197-mashq. Sifatlarning ma’no turlariga misol topib, qatorlarni davom ettiring.

Rang-tus: *moshrang, ...*
Maza-ta’m: *nordon, ...*
Shakl: *qiyshiq, ...*
Hajm: *baland, ...*
Hid: *xushbo‘y, ...*
Xil-xususiyat: *muloyim, ...*

198-mashq. Sifatlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlab yozing.

Keng, taxir, oppoq, kichkina, qo‘lansa, bepoyon, egri, cheksiz, sassiq, qiyshiq, botir, tor, shirin, jasur, dumaloq, badbo‘y, yam-yashil, saxiy, sho‘x, yoqimli, aqlli, qip-qizil, achchiq, yapaloq.

Rang-tus bildiruv-chi sifatlar	Maza-ta’m bildiruv-chi sifatlar	Hajm bildiruv-chi sifatlar	Shakl bildiruv-chi sifatlar	Hid bildiruv-chi sifatlar	Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar

199-mashq. Rasmda tasvirlangan narsalarga mos rang bildiruvchi sifatlarni topib, birikmalar tuzing va yozing.


_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____.

200-mashq. Ertak mazmuniga mos savollar tuzing va o‘z so‘zlaringiz bilan javob yozing.

Asalning yaratilishi

Ari avval duch kelgan narsalarni tamaddi qilar ekan. Shirin, bemaza, achchiq, chuchuk narsalarni yeyish uni bora-bora noziklashtiribdi. So‘ng u o‘ziga ma’qul taomni topmoqchi bo‘libdi. Kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilibdi. Nihoyat, xushta’m taom tayyor bo‘libdi.

Ari chidam bilan mehnat qilib, shifobaxsh va lazzatli taom – asalni yaratibdi. *(„O‘zbek xalq ertaklari“dan)*

201-mashq. Rasmga mos maza-ta’m bildiruvchi sifatlar topib, birikmalar tuzing va yozing.


_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____,

_____.

Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

Maza-ta’m bildirgan sifatlarning tagiga chizing. Qaysi sifatlarning imlosida xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkin? Shu sifatlarni o‘qing.



202-mashq. Topishmoqni o‘qing, javobini toping.

Dum-dum dumaloq,
Yum-yum yumaloq.
Ichi to‘la havo-yey!
Tepsam, otar shataloq.

Shakl bildirgan sifatlarni aniqlab, tagiga chizing. Koptokning ko‘rinishini tasvirlang.

203-mashq. O‘qing. Matn mazmunini yong‘oq haqida eshitganlaringiz bilan boyitib, qayta hikoya qiling.

Tusi va ta’mi turlicha bo‘lgan, dumaloq, qattiq po‘choq bilan qoplangan meva yong‘oq deb ataladi.

Ko‘pchilik oddiy yong‘oqni xush ko‘rib iste’mol qiladi. Uning burushiq mag‘zi silliq po‘choq bilan qoplangan. Ba’zi yong‘oqlar qisman uzunroq shaklda bo‘ladi.

Qadim zamonlarda Sharq hukmdorlari yong‘oqni u o‘smaydigan yurtlarning podsholariga qimmatbaho sovg‘a sifatida yuborishgan. *(„Gulxan“dan)*

So‘roqlar yordamida sifatlarni topib, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Shakl bildirgan sifatlarning tagiga chizing.

Burushiq, qimmatbaho sifatlarining yozilishini yodingizda tuting.

204-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Ular ishtirokida matn tuzing va yozing. Sifatlarning ma’no turlarini ayting.

To‘lqinli, baland, to‘g‘ri, katta, qiyshiq, keng, tor, dumaloq, egri, yassi, tik.



205-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Avval shaxslarning xususiyatini, keyin narsalarning xususiyatini bildirgan sifatlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Temur bobom

Temur bobom
Buyuk bobom,
Ellar aro
Suyuk bobom.
Dono, a’lo,
Oqil bobom,
Adolatli,
Odil bobom.

Mamajon Xoliqov

Jayronlar

– O‘rmonda ochko‘z bo‘ri
Ko‘rindi-yu nogahon,
Shu ondayoq ekranda
Bo‘lib ketdi to‘polon.
Yuvosh jonivorlarni u
Quva ketdi tish g‘ajib.
Eh, ishqilib jayronlar
Qutulgan bo‘lsin qochib.

Ollobergan Po‘lat

Ikkala bo‘g‘inida ham **u** unlisi yoziladigan sifatlarni ayting. *Oqil* va *dono*; *adolat* va *odil* sifatlarining ma’nosini tushuntiring.

Xususiyat bildirgan sifatlar nimalarning belgisini bildiradi?
Shaxs va narsalarning xususiyatini bildiradi.

206-mashq. O‘qing. Matnni qismlarga bo‘ling. Har bir qism asosida reja tuzing. Reja asosida matn mazmunini qayta hikoyalab yozing.

Bir kishi ombor atrofida yotgan chigitlarni sigiriga beribdi. Ular ichidan bitta chigit qochib omborga boribdi. Inoq chigitlar orasiga kirib, uyquga ketibdi. Chigitlar bahorgacha uxlabdilar. Bahorda mehnatkash dehqonlar chigitlarni yuvintirib, cho‘miltirib dalaga ekibdilar. Hademay shoshqaloq chigitlar ko‘m-ko‘k g‘o‘zalarga aylanishibdi. Ular oppoq paxta bo‘lib ochilishibdi.

Oxurdan qochgan chigit paxtalar orasida yotgan mitti chigitlarga nasihat qilibdi:

– Chigitlar, bir-biringizdan aslo ajralmanglar. Ajralganni sigir yeydi-da. *(Aziz Abdurazzoqdan)*

Xususiyat bildirgan sifatlarning tagiga chizing.

207-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dagi Oybekning „Alisherning yoshligi“ asarini o‘qing. Alisherga va kiyikka xos bo‘lgan xususiyat bildirgan sifatlarni ko‘chiring.

208-mashq. Matnni o‘qing.



Bir kuni dangasa chittakka baxt kulib boqdi. Qishning o‘rtalarida tekinxo‘r chittak mehnatkash chumchuqning bo‘sh inini topib oldi. Inga yumshoq momiq to‘shalgan edi. U uchirma bo‘lgandan beri birinchi marta iliq va bexavotir joyda uxladi. Erta tongda chumchuqlarning shodon ovozi chittakni uyg‘otib yubordi. Bechora chittak nima qilishini bilmay qoldi. *(„G‘uncha“dan)*

Chittakning ko‘rinishini tasvirlab bering. Chittakni tasvirlashda nimalardan foydalandingiz? Shu sifatlarni yozing. Sifatlar qanday ma’no bildiryapti?

209-mashq. O‘qing. Rassom shu matn mazmuniga mos rasm chizishda qaysi so‘zlarga alohida e’tibor bergan bo‘lardi? Sifatlarni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring.

Mashina to‘xtashi bilan Vohidni yalangoyoq, yalangbosh bolalar qurshab oldilar.

Vohidni ota-bobolaridan qolgan keksa tutning tagida onasi qarshi oldi. Onasi – Rizvon xola

ko‘kimtir, guldor ko‘ylak kiygan. Boshiga oppoq ro‘mol o‘ragan, oyog‘iga chiroyli amirkon kavush kiygan edi. Chetroqda ayvonning ustuniga suyanib singlisi turardi. U ilgarigi sho‘x, quvnoq, erka Zarifa emas. Oppoq, yumaloq yuzi uyatdan qizarib turgan chiroyli qiz edi. *(Odil Yoqubov)*



210-mashq. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlardan bittadan tanlab, ularga xos belgilarni bildirgan sifatlarni to‘plang va birikma tarzida yozing.

Qora, ola, yuvosh, beozor, muloyim, sezgir, mug‘ambir, semiz, ozg‘in, mo‘ylovdor, chaqqon, sho‘x.



SIFAT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR



211-mashq. Bir xil asosli so‘zlarni o‘qing. So‘roqlar yordamida so‘zlarning qaysi turkumga oidligini aniqlang.

Meva, mevali, mevazor, mevasiz; ish, ishchi, ishli, beish, ishsiz, ishchan, ishla; hosil, hosildor, hosilsiz, serhosil, hosilli.

Har bir so‘zdan nechtadan so‘z hosil bo‘lyapti?

Sifat turkumiga doir so‘zlarni ko‘chirib, tarkibiy qismlarini belgilang. Qaysi qo‘shimchalar sifat yasaydi?

Namuna: *mevali, ...*

ser-, be-, -siz, -li, -chan, -dor, -q sifat yasovchi qo‘shimchalardir.

212-mashq. Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma’noli sifatlar topib, juftlab yozing.

Gulli – _____ , odobli – _____ , unumli – _____, suvli – _____ , ishli – _____ .

Sifatlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Qo‘shimchalar qanday vazifa bajaryapti? Sifat yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

So‘z asosiga sifat yasovchi qo‘shimchalar qanday qo‘shilar ekan?

213-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ularga ma’nodosh so‘zlar tanlab yozing.

Ishchan, hosildor, odobsiz, sersuv, beg‘ubor, foydali.

Sifatlarning tarkibiy qismlarini belgilang. Ularning qaysi qismi bir xil? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi? So‘z ma’nolarini qaysi qism o‘zgartiryapti?

Tanlash uchun so‘zlar: *serhosil, suvli, beodob, harakatchan, g‘uborsiz, foydasiz.*

Sifat turkumidagi so‘zlar qanday ko‘payib boradi?

SIFATLARNING IMLOSI

214-mashq. So‘zlar tarkibidagi o‘zgarishlarni bilib oling. Ko‘chiring. Sifatlarning asos va qo‘shimchalarini belgilang.

tarq**a** → **q** → tarq**o**q
quvn**a** → **q** → quvn**o**q
qayn**a** → **q** → qayn**o**q

Sifatlarga mos otlar tanlab, 6 ta birikma tuzib yozing.

215-mashq. *Porla, chanqa* fe'llariga **-q** sifat yasovchi qo'shimchasini qo'shib, sifatlar yasang. So'zlarda qanday tovush o'zgarishlari bo'ldi? Nima uchun? Ular ishtirokida gap tuzib yozing.

216-mashq. Berilgan sifatlarni o'qing. Yozilishini kuzating.

Qop-qora, bus-butun, bo'm-bo'sh, ko'm-ko'k, tip-tiniq, oppoq, top-toza, tim qora, to'q qizil, eng kuchli.

Sifatlarga mos otlar tanlab, birikma tuzib yozing. Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.



217-mashq. Juftlab berilgan birikmalarni o'qing. Ma'nosidagi farqni ayting.

Katta bola – kap-katta bola.
Yashil qir – yam-yashil qir.
Oq ko'ylak – oppoq ko'ylak.
Tiniq suv – tip-tiniq suv.
Qizil mato – qip-qizil mato.
Pushti gul – och pushti gul.

Ko'chiring. Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

Belgini kuchaytirib va ozaytirib ko'rsatadigan sifatlar qanday yoziladi?

218-mashq. Matnni o'qing. Savollar yordamida sifatlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.

Qoratosh ko'm-ko'k bargli o'rik yonida yotardi. Uning ma'yus ko'zlari yig'layotganga o'xshardi. Qo-

ratosh yonidan yaralangan edi. Juda baquvvat va chiroyli oyoqlari ancha ingichka tortib qolgan edi.

Qip-qizil lolaqizg‘aldoqlar ochilib tugagan kun eng yaqin do‘stimni yo‘qotdim. *(Aziz Abdurazzoqdan)*

219-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Sifatlarni aniqlab, yozilishiga diqqat qiling.

1. Dum-dumaloq jajji oy,
   Chaqib yesang, g‘ij-g‘ij moy.

y					

2. Yashil gumbaz ichida
   Qip-qizil xona.
   Bir xil libos, teng bo‘yli
   Ming bir dugona.

a			

Topishmoqlarni ko‘chiring. Sifatlarning tagiga chizing.

220-mashq. Rasmni kuzating. Rasm asosida insho yozing. Insho yozishda berilgan rejadan foydalaning.

Reja.

1. Qish faslida tabiatning ko‘rinishi.
2. Bolalar tabiat quchog‘ida.



221-mashq. Maqollarni o‘qing. Sifatlarni topib, tahlil qiling.

1. Hunarli kishi xor bo‘lmas.
2. Halol mehnat – yaxshi odat.
3. Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz mehnat.

Sifatni tahlil qilish tartibi: 1. So‘rog‘i, turkumi. 2. Ma’no turi. 3. Asos va qo‘shimchasi. 4. Qaysi so‘zga bog‘langanligi. 5. Nima vositasida bog‘langanligi. 6. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *hunarli* – qanday?, sifat, *hunar* – asos, **-li** – sifat yasovchi qo‘shimcha, xususiyat ma’nosini bildiradi, *kishi* so‘ziga (otga) ohang yordamida bog‘langan, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajargan.

Bilimingizni tekshiring!

Sifatlar qanday ma’nolarni bildiradi?
Sifat nimaning belgisini bildiradi?
Sifat otga qanday bog‘lanadi?
Sifat gapda qanday bo‘lak vazifasini bajaradi?
Sifatlarning imlosini misollar bilan izohlang.

SON – SO‘Z TURKUMI

222-mashq. Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida sonlarni toping.

Hisobchi

6, 8 va 10 yosh atrofidagi 3 bolakay baliq oviga chiqishdi. Qarmoqni suvga tashlashdi... Chelakni suvdan 30 qadam nariga qo‘yishdi. Tutgan baliqlarini chelakka olib borib solishdi.

– Qancha baliq tutdik? – so‘radi katta bola.

– Menimcha, 50 ta baliq tutdik, – dedi o‘rtanchasi.

Kenja bolani baliqni sanab kelishga yuborishdi.

Kenjatoy bor-yo‘g‘i 20 gacha sanashni bilardi. *(Serik Boytuqayevdan)*

Sonlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifodalar bilan yozing.

223-mashq. O‘qing. Sonlarni so‘roqlar yordamida aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

O‘zbek palovi

O‘zbekistonda eng ulkan palov 2017-yil 17-avgust kuni tayyorlangan. Palov tayyorlash uchun 50 nafar oshpaz 6 soat vaqt sarflagan.

2 metr kapgir, 3 tonnalik o‘choq, 8000 litrli qozon Olmaliq kon-metallurgiya korxonasida tayyorlangan.

Palovga 1500 kilogramm mol go‘shti, 400 kilogramm qo‘y go‘shti, 220 kilogramm quyruq yog‘i, 1000 kilogramm guruch, 2700 kilogramm sabzi, 220 kilogramm piyoz. 440 litr o‘simlik yog‘i, 57 kilogramm tuz, 100 kilogramm no‘xat, 190 kilogramm mayiz, 5 kilogramm zira, 2 kilogramm murch, 1 kilogramm zarchava va 350 litr suv ketgan. Tayyorlangan 7360 kilogramm palov Ginness rekordlar kitobiga kiritilgan.

Necha? qancha? nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi?

224-mashq. O‘qing. Chiziqchalar o‘rniga sanalarni qo‘yib, matnni qayta o‘qing. Qaysi birida matn mazmuni to‘liq ifodalangan?

___ -yil ___ -avgust – Mustaqillik e’lon qilingan kun.

___ -yil ___ -noyabrda Davlat bayrog‘i haqidagi qonun tasdiqlandi.

___ -yil ___ -iyulda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi haqidagi qonun tasdiqlandi.

___ -yil ___ -dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

___ -yil ___ -dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.

Sanalarni qo‘yib, matnni ko‘chiring. *Nechanchi?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing.



225-mashq. Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida sonlarni topib, o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing.

Shaxmat tarixidan

Shaxmat o‘yini bundan 1500 yil avval Hindistonda paydo bo‘lgan. Uni dastlab „Chaturanga“ deb atashgan. Bu o‘yinda 4 kishi ishtirok etgan („chatur“ – to‘rt degani). Keyinchalik o‘yinda 2 kishi qatnashadigan bo‘ldi. Nomi „Shatranj“ deb o‘zgartirildi („shatr“ – ikki degani). Shaxmat nomi esa Eronda vujudga kelgan.

1986-yilda shaxmat o‘yini bo‘yicha jahon birinchiligining 100 yilligi nishonlandi. *(„G‘uncha“dan)*

Sonlar qaysi turkumdagi so‘zga bog‘lanadi?

Sonlar otga nima vositasida bog‘lanadi?

226-mashq. O‘qing. Sonlarni aniqlang.

Olimlarning ma’lumotiga ko‘ra, bir tup qora qayin bir soatda bir kilogramm-u yetti yuz gramm kislorod ishlab chiqarar ekan. Bu oltmish to‘rt kishining kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi.

227-mashq. „O‘qish kitobi“dagi „Qovun sayli“ matnidan son ishtirok etgan 4 ta gap topib yozing.



228-mashq. Sonlarni harfiy ifoda bilan yozing.

4-sinf, 9 o‘quvchi, 50-maktab, 7-xonadon, 2-qator, XX asr.

229-mashq. Matnni o‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz? So‘roqlar yordamida sonlarni toping.

Ilgari arablar va musulmon xalqlar hisob amallarini so‘zlar yordamida bajarar edilar.

Hindlar esa har bir sonni raqamlar bilan ifoda etardilar.

Hindlarda to‘qqizgacha sanoq tartibi bor edi.

IX asrda mashhur olim al-Xorazmiy hind hisobiga yangilik kiritdi. U bir raqami yoniga bitta halqa qo‘ydi. Olim o‘n raqamini yaratdi. *(Mirkarim Osimdan)*

Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Sanoq bildirgan sonlarning tagiga chizing. Ularning yozilishini yodingizda tuting.

Sonlar yozuvda necha xil ifodalanadi?

Sonlar yozuvda uch xil ifodalanadi:

1. Harfiy ifoda bilan: *to‘rtinchi sinf, oltinchi uy.*
2. Arab raqami bilan: *2019-yil 1-sentabr.*
3. Rim raqami bilan: *IV sinf, XXI asr.*

230-mashq. Maqollarni o‘qing, ma’nosini tushuntiring.

1. So‘zdan so‘zning farqi bor, 32 narxi bor.
2. 1 yil tut ekkan kishi 100 yil gavhar teradi.
3. Tovuq 7 xazinaning biri.
4. Er yigitga 70 hunar oz.

Maqollarni ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing. Maqollarda sonlar otlarning nimasini bildiryapti?

231-mashq. Rasm asosida o‘rtog‘ingiz bilan suhbatlashing. Nutqingizda mahsulotlarning narxi va miqdorini bildiruvchi so‘zlarni qo‘llang.



232-mashq. Dunyoning yetti mo‘jizasi haqida sonlar qatnashgan 3ta gap tuzing va yozing.



233-mashq. Matn kim haqida ekan? Siz qaysi sohaga qiziqasiz? Istagingizga erishish uchun nimalar qilyapsiz?

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il edik. Men uchinchi o‘g‘il edim. Birinchi she’rimni beshinchi sinfda o‘qiyotganimda yozganman. Birinchi hikoyam 1963-yil 17-aprel kuni „Toshkent haqiqati“ gazetasida bosilgan.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim. Unga „Birinchi ustozim – Onamga“ deb yozib berardim. *(O‘tkir Hoshimovdan)*

Avval narsa va shaxslarning sanog‘ini bildirgan sonlarni, keyin tartibini bildirgan sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Tartib sonlarning asos va qo‘shimchasini belgilang.

234-mashq. Chiziqchalar o‘rniga *qancha?, nechta?* va *nechanchi*? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni qo‘yib o‘qing.

Namuna: *15-maktab, ...*

Biz _____ sinfda o‘qiymiz. Sinfimiz keng va yorug‘. Sinfimizda _____ parta, _____ stol va _____ stul bor. Sinfimizning burchagida _____ kitob javoni bor. Bu javonda kitob, daftar, ruchka va boshqa o‘quv qurollari saqlanadi. Har partada _____ o‘quvchi o‘tiradi. Men o‘rtog‘im Habibulla bilan _____ partada o‘tiraman.

Sinfimizga elektron doska o‘rnatilgan. Undan foydalanish juda qulay. Doskamizning yon qismiga _____ televizor qo‘yilgan. Undan o‘rganayotgan mavzumizga doir multimedia darslarini kuzatamiz.

Biz sinfimizni doim ozoda tutamiz.

Habibulla so‘zi o‘rniga partadoshingizning nomini qo‘ying. Tartibni bildirgan sonlarni raqam bilan yozing. Raqamlardan so‘ng chiziqcha qo‘yishni unutmang.

Siz sinfingizning qanday bo‘lishini istaysiz?

! Sonlar narsa va shaxslarning nimasini bildiradi?

235-mashq. O‘qing. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozib, matnni ko‘chiring. Sonlarning tagiga chizing.

3 oy qish xalq tilida 90 deyiladi. Qish chillasi 40 kun davom etadi. Dekabrning 25-kunidan boshlanib, 5-fevralda tamom bo‘ladi. Bu davr qishning eng sovuq kunlari bo‘ladi.



236-mashq. Rasmni kuzating. Rasm asosida o‘zingiz va oilangiz haqida ma’lumot yozing. Nutqingizda sonlardan foydalaning.



237-mashq. Matnni o‘qing. Tartib bildirgan sonlarni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring. Tartib sonlarni raqam bilan ifodalang.

O‘n uchinchi sayyorada o‘tayotgan sud jarayonini butun galaktika xalqi tomosha qildi. Ayblanuvchi eng kichik sayyoralardan biri – Yer edi.

Ayblovchi – yettinchi sayyoraning bosh olimi fikrini lo‘nda qilib bayon etdi:

– Hammangizga ma’lumki, Yerga hayot o‘n beshinchi „Ezgulik“ sayyorasidan yuborilgan. Lekin bu sayyorada ekologik tanglik vujudga keldi.

Bosh hakam o‘z hukmini o‘qib eshittirdi:

– Yerliklarning o‘zligiga qaytishi uchun yana o‘n yil muhlat berildi. *(Hamza Imonberdiyevdan)*

Sonlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang. Ajratilgan gapning ma’nosini tushuntiring.

238-mashq. Chiziqchalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Men _____ ko‘chasidagi _____ -uyda turaman. _____ -maktabning _____ -sinfida o‘qiyman.

Otam – _____. Onam – _____. Opam (akam) shu maktabning _____ -sinfida o‘qiydi. Ukam (singlim) _____ sinf o‘quvchisi.

239-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ularni sanoq va tartib bildiradigan sonlar bilan qo‘llab, birikmalar tuzing. Sonlarni raqamlar bilan yozing.

Uy, qavat, sahifa, maktab, asr, qism, kitob.

240-mashq. Matnni rollarga bo‘lib o‘qing. Gaplarning ohangidagi farqni izohlang.

– Uchinchi qorishmada sement kam bo‘ldi. Yana biroz sement solinglar. Poydevor bo‘sh bo‘lmasin, – dedi Choriyor aka.

– To‘g‘ri aytasiz. Qahhorga o‘xshab poydevori bo‘sh bo‘lib qolmasin, – dedi akasi Jabbor.

– Qanaqa poydevor? – yig‘lamsirab so‘radi Qahhor.

– Birinchi sinfda yomon o‘qigansan, demak, poydevoring bo‘sh!

Qahhor xo‘rligi kelgan ahvolda ikkita chelakni ko‘tarib borar ekan, birinchi sinfda o‘qigan paytlarini esladi. 4-sinfda yaxshi o‘qishga ahd qildi. *(Oqiljon Husanov)*

Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.
Poydevori bo‘sh iborasi qanday ma’noda qo‘llangan?

241-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Sonlarning turini ayting.

1. 40 o‘rtoqqa
1 ta uy,
1 qiyofa,
1 xil bo‘y.
Ketma-ket
Chiqishar,
Chars-churs
Olov yoqishar.



2. 1 otasi,
1 onasi,
Necha 100 000
Bolasi.





3. Supacha,
Supachada
5 bola.



Raqamlarni harflar bilan ifodalab, topishmoqlarni ko‘chiring. Sonlar otga qanday bog‘langan?



242-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dan sanoq va tartib sonlar qatnashgan 4 ta gap yozing. Sonlarning yozilishini izohlang.

243-mashq. Raqamlarni o‘qing va harfiy ifodalar bilan yozing.

2, 4, 7, 8, 9, 20, 30, 40, 50, 60, 1000, 1 000 000.

Sonlarni otlar bilan qo‘llab, birikma tuzing va yozing. Sonning otga bog‘lanishini namunadagidek chizma yordamida ko‘rsating.

Namuna: *ikki o‘quvchi*

244-mashq. Tarkibida sonlar qatnashgan to‘rtta gap tuzing va yozing. Sonlarning gapdagi vazifasini va qaysi so‘zga bog‘langanini namunadagidek ko‘rsating.

Namuna: *to‘rtta cho‘ntak*



245-mashq. Matn necha qismdan tuzilganligiga diqqat qiling. Matnga reja tuzing. Rejangiz asosida matnni qayta hikoyalang.

Futbol o‘yini tarixidan

XVIII asrda futbol o‘yini keng tus oldi. Ba’zan o‘yinda har bir tomondan besh yuz kishi maydonga tushardi. To‘pni shahar bo‘ylab ma’lum bir joyga birinchi eltgan komanda g‘olib sanalardi. Qo‘y terisidan tikilib, ichiga latta-puttalar to‘ldirilgan to‘p tepilardi.

Futbolni ingliz qirollari ko‘p marta taqiqlaganlar, lekin o‘yin davom etaverardi.

XIX asrda futbol sport turiga kiritildi va o‘n uchta o‘yin qoidasi ishlab chiqildi.


Raqamlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring.

246-mashq. Zarur sonlarni harfiy ifodalar bilan yozib, matnni ko‘chiring. Sonning gapdagi vazifasini belgilang.

Hozirgi kunda … futbol komandasi bor. Har bir komandada … futbolchi ishtirok etadi.

… komandasi … marta jahon birinchiligida g‘olib bo‘lgan.

247-mashq. Katakchalar o‘rniga ertaklarda ko‘p qo‘llanadigan sonlarni topib, birikmalar tuzing va yozing.



248-mashq. Matnni o‘qing. Matn nima uchun „Halollik“ deb nomlangan?

Halollik

Qadim zamonda bir boy dehqon yerining 1 chekkasini sotibdi. Yerni sotib olgan dehqon onasi bilan 9 **jonni** boqar ekan. U yerni 2 **marta** haydabdi. 2-**marta** haydayotganda bir xumcha tilla topib olibdi. Tillani boy dehqonga olib boribdi.

Boy dehqon 2-**dehqonga** shunday debdi:

– Yerni sizga sotganman. U yerdan nima chiqsa, sizniki.

Ular uzoq tortishishibdi. Oxiri boy dehqon va 2-**dehqon** tillalarni beva-bechoralarga bo‘lib berishga qaror qilishibdi. *(„O‘zbek xalq ertaklari“dan)*

Sonlarni o‘zi bog‘langan otlar bilan ko‘chiring. Sonlarni harfiy ifodalar bilan yozing. Sonlarning gapdagi vazifasini belgilang.

249-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Dunyoda eng katta hayvon ko‘k kitdir. Uning uzunligi o‘ttiz metrdan oshadi. Bu ketma-ket qo‘yilgan oltita fildan uzunroqdir. Bitta ko‘k kit yettita vagonga yuk bo‘ladi. *(„G‘uncha“dan)*

250-mashq. O‘qing va ko‘chirib yozing. Sonlarning yozilishini yodingizda tuting.

Ikki, yetti, sakkiz, to‘qqiz, **uch**, yigirma, o‘ttiz, **qirq**, ellik, oltmish, sakson, to‘qson, **yuz**, ming, million.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.



251-mashq. Qayta hikoya qilishga tayyorlaning.

Fillar xartumlilar turkumi oilasiga mansubdir. Asosan, Osiyo va Afrikaning o‘rmon hamda savannalarida tarqalgan. Bo‘yi to‘rt metrdan ortiq, og‘irligi esa besh tonnadan sakkiz tonnagacha bo‘ladi. Terisi kalta va siyrak tukli. Oyoqlari yo‘g‘on, baquvvat. Bir kunda yuz

kilometrcha yo‘l yurishi mumkin. Jag‘ining ustki va pastki qismida bittadan oziq tishi bor. Fillar yetmish-sakson yil yashaydi.

savanna – cho‘l-biyobonlar

252-mashq. O‘qing. Sonlarni tahlil qiling.

1. Men to‘rtinchi sinfda o‘qiyapman.
2. Bir yil to‘rt fasldan iborat.

Sonni tahlil qilish tartibi: 1. So‘rog‘i, turkumi. 2. Ma’no turi. 3. Asos va qo‘shimchasi. 4. Qaysi so‘zga bog‘langanligi. 5. Nima vositasida bog‘langanligi. 6. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *to‘rtinchi* – nechanchi?, son, tartib son, *to‘rt* – asos, *-inchi* – tartib sonning qo‘shimchasi, *sinf* so‘ziga (otga) ohang yordamida bog‘langan, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajargan.

253-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dagi To‘lqin Hayitning „Qodir boboning orzusi“ asaridan son ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Gapdagi vazifasini belgilang.

Bilimingizni tekshiring!

Sonlarni boshqa so‘z turkumlaridan qanday ajratasiz?

Qaysi sonlarda bir xil undoshlar yonma-yon keladi?

Sanoq bildirgan sonlar bilan tartib bildirgan sonlarning yozilishini tushuntiring.

Sanoq bildiruvchi sonlar birdan ortiq so‘z bilan ifodalanganda qanday yoziladi?

KISHILIK OLMOSHLARI

254-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ularga so‘roq bering. *U*, *ular* so‘zlari qaysi so‘zlarning o‘rnida qo‘llangan?

Bahorgi ta’tilda **men**, Murod oromgohda bo‘ldik. **Biz** tabiat qo‘ynida maza qilib dam oldik.

– Ahmad, **sen** oromgohda qaysi to‘garakka qatnashding?

– Ahmad shaxmatni sevadi. **U** shaxmat to‘garagiga qatnashdi, – dedi Shuhrat.

Dilshod, Temur, Gulnoralar maktab oromgohida bo‘lishdi. **Ular** oromgohda sport musobaqasida ishtirok etdilar.

Siz ta’tilda qayerlarda bo‘ldingiz? *(„Gulxan“dan)*

Ko‘chiring. Kishilik olmoshlarining tagiga chizing.

Men, sen, u, biz, siz, ular so‘zlari kimlarni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi?
Qaysi kishilik olmoshlari bitta kishini, qaysilari ko‘p kishini bildiradi?
Kishilik olmoshlari qaysi otlar o‘rnida qo‘llangan?

Men, sen, u, biz, siz, ular so‘zlari kishilik olmoshlaridir.

Kishilik olmoshlari kim?, kimlar? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Men, sen, u olmoshlari bitta shaxsni, **biz, siz, ular** olmoshlari ko‘p shaxsni bildiradi.

Men, biz – I shaxs, **sen, siz** – II shaxs, **u, ular** – III shaxs kishilik olmoshlaridir.

255-mashq. O‘qing. So‘roqlar yordamida kishilik olmoshlarini toping.

1. Agar sen osmonni quchmoqchi bo‘lsang,
   Men nega yelkamni tutib bermayin.

G‘afur G‘ulom

2. Elga baxt, tilga bol
   Keltirdi istiqlol
   Siz uchun – biz uchun.

Po‘lat Mo‘min

3. Ulug‘bek buyuk olim edi. U Ali Qushchidek ko‘plab shogirdlarni yetishtirdi. Ular Ulug‘bekning ishlarini davom ettirdilar.

Ko‘chiring. Qavsda kishilik olmoshlarining shaxsini yozing.

Men, biz, siz kishilik olmoshlari qaysi shaxslarni bildiradi?
U, ular kishilik olmoshlari-chi?

256-mashq. Matn voqeasiga o‘z munosabatingizni yozma ifodalang. Qaysi kishilik olmoshlari matnda ishtirok etmagan? Matndagi kishilik olmoshlarini aniqlang.

Qosim bobo to‘p tepayotgan bolalardan birining non yeyayotganini ko‘rdi. Uning oppoq o‘siq qoshlari chimirildi. Bobo yerdagi ushoqlarni tera boshladi. Zokir uyalib ketdi:

– Meni kechiring, bobo. Siz egilmang, ushoqlarni o‘zim teraman, – dedi u.

– Bo‘tam, men egilganim yo‘q, non ushoqlariga ta’zim qilyapman, – dedi bobo. *(To‘lqin Rasulovdan)*



257- mashq. O‘qing. Husnixat bilan ko‘chiring. Kishilik olmoshlarini topib, tagiga bir to‘g‘ri chiziq chizing.

1. Biz bugun bobomiz Alisher Navoiy nomisiz o‘zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. *(Erkin Vohidov)* 2. Siz o‘zbek tilining benihoya boy, go‘zal, nazokatli til ekanini bilishingiz kerak. *(Erkin Vohidov)* 3. Ulg‘ayarsan bir kun sen, Bo‘lursan yetuk, bardam. *(G‘afur G‘ulom)* 4. Men hayotdan juda ko‘p narsalarni o‘rgandim. *(To‘lqin)*

Yetuk so‘zining ma’nosini tushuntiring.

Kishilik olmoshlarini otlardan qanday farqlaysiz? Kishilik olmoshlari biror shaxsning nomi bo‘la oladimi? Otlar-chi?

258- mashq. Matn kim haqida? Ular haqida yana nimalarni bilasiz? Matnga sarlavha toping.

Keksa otalarimiz Fitrat bobomiz nomlarini tez-tez tilga olishadi. Ba’zan ular haqida so‘zlab turib o‘yga tolishadi va yurak-yuraklaridan ularning hayotlari bevaqt so‘nganiga achinib ketishadi. Bu inson O‘zbekistonni mustaqil ko‘rishni orzu qilgan edi. U yetisholmagan orzuga biz yetishdik.

Biz Vatanni sevishni Fitrat kabi bobolarimizdan o‘rganaylik. *(„G‘uncha“dan)*

Kishilik olmoshlarini toping, ular qaysi shaxsning o‘rnida qo‘llangan?

259-mashq. Quyida berilgan xat namunasini o‘qing.

Hurmatli do‘stim, Komil!

Sen yozgan xatni oldim. Sog‘lig‘ing va o‘qishlaringning yaxshiligini bilib xursand bo‘ldim.

Men senga Navro‘z bayramini qanday o‘tkazganimiz haqida yozmoqchiman. Biz bayramni tabiat qo‘ynida nishonladik. Men bayramda bahor haqida she’r aytdim. 3-sinf o‘quvchilari biz bilan gullar haqida aytishuv qildilar.

Qizlar tayyorlagan milliy taomlari bilan qatnashdilar. O‘g‘il bolalar varrak uchirish musobaqasini o‘tkazdilar.

Salom bilan Shuhrat.

Xat matnini qismlarga ajrating. Har bir qism nimalar haqida ekaniga e’tibor qiling.

Namunadan foydalanib, yaqin kishingizga xat yozing.

KISHILIK OLMOSHLARINING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANISHI

260-mashq. O‘z fikringizni bayon qiling.

Men uyali telefonga qiziqib qoldim. Ammo uning ijobiy va salbiy jihatlari haqida ma’lumotga ega emasman. Siz bu haqda nimalarni bilasiz?

Nutqingizda kishilik olmoshlarini qo‘lladingizmi? Ularni qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘lladingiz?

261-mashq. Kishilik olmoshlarini o‘qing va kuzating.

men + ning ⟶ mening sen + ning ⟶ sening
men + ni ⟶ meni sen + ni ⟶ seni

Ko‘chiring. Kishilik olmoshlarining asos va qo‘shimchalarini belgilang. *Meni, mening, seni, sening* olmoshlarini qatnashtirib, o‘zingizni qiziqtirgan kasb haqida gap tuzib yozing.

Men, sen olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda asosda qanday tovush o‘zgarishi ro‘y berdi?

262-mashq. O‘zingizning hayotingizda yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoya yozing. Unda kishilik olmoshlaridan foydalaning.



263-mashq. Siz nima haqida eshitdingiz? Tabriknoma qanday boshlangan? Tabriknoma nimalar haqida bo‘lishi mumkin? Namuna asosida o‘rtog‘ingizga tabriknoma yozing.


TABRIKNOMA

Hurmatli dugonam Halima! Men Sizni tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman. Sizga uzoq umr, o‘qishlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Dugonangiz Dilafruz.

Siz olmoshi nima uchun bosh harf bilan yozilgan? Kimlarga **sen,** kimlarga **siz** deb murojaat qilasiz?

264-mashq. Kishilik olmoshini o‘qing va yozilishini kuzating.



Ko‘chiring. O‘ng tomondagi kishilik olmoshlarining asosini belgilang.

U kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda qanday tovush o‘zgarishi bo‘ldi?

265-mashq. O‘qing. Matnda qaysi olmoshlar qatnashganini ayting.

1. – **Rahimjon,** otingiz judayam chiroyli ekan, – dedim men. **Rahimjon** yalt etib menga qaradi. **Rahimjonning** ko‘zlarida sevinch, g‘urur bor edi. 2. Rahimjon ikkimiz o‘zimizni oftobga solib yotdik. Men **Rahimjonga** tikilib yotardim. Rahimjonning oftobda kuygan, tog‘ shamoli yalagan badani qizg‘ish cho‘yanga o‘xshardi, hozir unga juda-juda havasim keldi. *(Yo‘ldosh Shamsharovdan)*

Ajratib ko‘rsatilgan otlarning o‘rniga shu otlarni ko‘rsatadigan olmoshlarni qo‘yib ko‘chiring. Matnda qanday o‘zgarish sezdingiz?

Otingiz so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.

Matnda qaysi so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

266-mashq. O‘qing. Berilgan hikmatlardan qanday xulosaga keldingiz? Kishilik olmoshlarini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Bizda kuch-g‘ayrat bor. Kuchni bilim olishga, hunar o‘rganishga sarflashimiz lozim. 2. Agar do‘sting senga aybingni aytib, nasihat qilsa, sen undan minnatdor bo‘l. 3. Do‘stlarning soni bilan emas, ularning halolligi va sodiqligi bilan faxrlan. 4. Mening aziz Vatanim tong kabi musaffodir. Tong mening yuragimda ajib hislar uyg‘otadi. *(„G‘uncha“dan)*

Kishilik olmoshlari qanday gap bo‘lagi vazifasida keladi?

267-mashq. Matnni o‘qing. Undagi ot, sifat, son va olmoshlarni aniqlang. Ularni guruhlab yozing.

Yunus Rajabiy kuy va qo‘shiqlari bilan xalqqa tanildi. Uning hayoti va ijodi O‘zbekiston radiosi bilan bog‘liq. Bastakor radioda maqomchilar ansamblini tuzgan. Yigirma yil davomida to‘plagan asarlarini tartibga keltirib, ajoyib kitob qilgan.

Yunus Rajabiyning 5 jildli „O‘zbek xalq musiqasi“, 6 jildli „Shashmaqom“ kitoblari xalqimizga o‘lmas meros bo‘lib qoldi.

268-mashq. „Assalom, Navro‘z!“ mavzusida insho yozing. Unda quyidagi so‘zlardan foydalaning: *an’ana, milliy libos, xalq sayli, sumalak, milliy taomlar.*

269-mashq. O‘qing. She’rni husnixat bilan ko‘chiring. Yozganingizni tekshiring.

Qalam bilan suhbat

– Qalam, jajji toychoq,
Qayga boshlayin seni?
– Daftar beti – oq maydon,
Unga yetakla meni.
– Sehrli bo‘lib qolsang,
Sendan qilardim faxr.
– O‘zingning mo‘jizakor
Qo‘llaring bor-ku axir.

To‘lqin Ilhomov

Kishilik olmoshlarini topib, asos va qo‘shimchalarini belgilang. Uning qaysi kelishikda ekanini qavs ichida ko‘rsating. Olmoshlarda qanday tovush o‘zgarishlari bo‘lganini ayting.

Qaysi so‘zlarda xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkin? Shu so‘zlarning tagiga chizing.

270-mashq. Chiziqchalar o‘rniga kishilik olmoshlarini qo‘yib, gaplarni o‘qing va yozing.

1. Yaxshilik tilayman odamga,
_____ (I sh., birl., t. k.) tanitgan olamga.
Parvarish, xizmatin oqlay deb,
Imlayman huzurbaxsh soyamga.

(E. Majidov)

2. Ana shu qishloqda Shoir, Mohir va O‘roq ismli tengqur bolalar yashar ekanlar. _____ (III sh., ko‘p., b. k.) faqat tengqurgina emas, oralaridan qil ham o‘tmaydigan qalin do‘st ekanlar. *(Oqiljon Husanov)*

3. Beshta o‘g‘il-qizlarim bor. _____ (II sh., birl., b. k.) oltinchisi bo‘lasan. *(Parda Tursun)*



271-mashq. Kishilik olmoshlari ishtirokida 4 ta gap tuzing va yozing.



Bilimingizni tekshiring!

Kishilik olmoshlarini ayting

Kishilik olmoshlarining nutqdagi ahamiyati haqida gapiring.

Kishilik olmoshlari qanday qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?

Kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan kishilik olmoshlarida bo‘ladigan tovush o‘zgarishlarini misollar bilan izohlang.

Kishilik olmoshlari gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?



FE’L – SO‘Z TURKUMI



272-mashq. Hikoyadagi har bir gap oxiridagi so‘zlarga diqqat qiling. Ular qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? Shu so‘zlardan foydalanib 4 ta gap yozing.

Ota etik, ona etik va bola etik poygakda ahil yashashardi.

Bir kuni bola etik yig‘ladi:

– Hamma yog‘im og‘riyapti. Beshafqat bola men bilan suv kechdi. Katta-kichik toshlarni tepdi.

Ota etik bilan ona etik bola etikka achinishdi. O‘yinqaroq bola bemor etikchani yana qiynayverdi. Qish kunlarining birida bola etikning jag‘i yirtildi.

Yomon bolaning tuzalmasligini bilib, etiklar uy egalaridan qochishdi... *(Zulfiya Mo‘minovadan)*

Ertakni o‘zingiz davom ettiring.

Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi?

273-mashq. O‘qing. Matndagi fe’llarni ko‘chirib yozing. Shu fe’llar asosida matn mazmunini qayta hikoya qiling.

Kechqurun Mannon akamning oldiga bordim. Uyimizning buzilishini aytdim.

– Sen xafa bo‘lma, hammamizning uyimiz buziladi. Bu yerga kattakon teatr quriladi, – dedi Mannon akam.

Uyimiz buzildi. Biz boshqa yoqqa, Mannon akam boshqa yoqqa ko‘chib ketdik.

Bir kuni akam menga surati bor bir kitob berdi. Bir mahal menga tanish odamning suratini ko‘rib qoldim.

Suratning tagiga teatrning bosh rejissori Mannon Uyg‘urning nomi yozilgandi.

O‘sha kuni men yo‘qotgan odamimni topdim. *(Aziz Abdurazzoqdan)*

Fe’llarning voqea-hodisalarning ketma-ketligini ifodalashdagi ahamiyatini tushuntiring.

Teatr, rejissor so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qiling va ma’nosini tushuntiring.

274-mashq. Boshqotirmani yeching. Maqolni o‘qing va yozing.

b		l		m		b		x		k		l	t		r		r		

275-mashq. She’rda qaysi turkumdagi so‘zlar ohangdosh bo‘lib kelganligini aniqlab yozing.

O‘yin bo‘lsa

O‘yin bo‘lsa, o‘ynaymiz,
Bo‘lmasa-chi, topamiz.
Topolmasak zir yelib,
To‘rt tomonga chopamiz.

Yiqilamiz, turamiz –
Shu ham o‘yin atalar.
Bizday necha yiqilib,
Katta bo‘lgan otalar.

Tolib Yo‘ldosh

276-mashq. O‘qing. Berilgan fe’llarni ma’nolariga ko‘ra guruhlab, jadvalga yozing.

Shodlanmoq, bezovtalanmoq, hayajonlanmoq, faxrlanmoq, ajablanmoq, sevinmoq, achchiqlanmoq, to‘lqinlanmoq, hayron qolmoq, g‘azablanmoq, nafratlanmoq, hayratlanmoq.

Ijobiy	Hayajon	Ajablanish	Salbiy

Har bir guruhdan bittadan so‘z tanlang va gap tuzing. Gap mazmunini ifodalashda fe’llarning ahamiyatini tuzgan misollaringiz asosida tushuntirib bering.

277-mashq. Rasmda tasvirlangan narsalarning harakatini bildiradigan so‘zlarni toping.






Topgan so‘zlaringiz ishtirokida 3–4 ta gap tuzib yozing.

278-mashq. Matnni o‘qing. Fe’llarni aniqlang va ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Lolalar kuldi,
Gullar ochildi.
Zarrin quyoshdan
Nurlar sochildi.

Har yoq to‘la gul,
Ochildi sumbul.
Qo‘shiq boshladi
Daraxtda bulbul.

N. Xolmurodov

Fe’llarning ma’nosini tushuntiring.

279-mashq. Matnni o‘qing. Hikoya voqealari qaysi gap bilan boshlanib, qaysi gap bilan tugaganini aniqlang.


Bir kuni otasi Azimga yaylovdan ikkita kiyik bolasini keltirdi. Azim ularni ko‘rib sevindi.

– Ota, bitta kiyikchani o‘zim boqmoqchiman, ikkinchisini Azizga bermoqchiman. Lekin kiyikchalar mendan hurkib qochyapti, – dedi Azim.

– Sen ularga sut ber, boshini sila. Shunda kiyikchalar senga asta-sekin o‘rganadi, – dedi otasi. *(Safar Barnoyevdan)*

Nega hikoyaning boshlanishida *keltirdi* fe’li, tugallanishida *o‘rganadi* fe’li qo‘llangan?

280-mashq. Rasmdagi holatlarni ifodalovchi fe’llarni yozing.



281-mashq. O‘qing. Matnni qismlarga bo‘ling. Har bir qismga sarlavha toping. Mazmunini o‘z so‘zingiz bilan qayta hikoya qiling.

Uquv-idrok kishini pokizalaydi. Bilim yuksaltiradi. Inson boshqa mavjudotlardan o‘z bilimi bilan farq-lanadi. Dunyodagi turli-tuman hunarlar o‘quv va bi-limga tayanadi...

Zakovat ont ichishib do‘stlashgan kishilarga o‘x-shaydi. Bilim yaqin qarindoshlarga o‘xshaydi, inson do‘stlari, qarindoshlari davrasida o‘zini kuchli sezadi. Bilimsizlar-chi? *(Yusuf Xos Hojibdan)*

So‘roqlar yordamida fe’llarni aniqlab, uning gapdagi vazifasini ayting.

uquv-idrok – fahm, did
zakovat – o‘tkir aql-idrok, zehn

Harakatni bildirgan so‘zlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi? Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

282-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing va ko‘chirib yo-zing.

1. Tushunmoq, anglamoq, uqmoq.
2. Yordam bermoq, qarashmoq, ko‘maklashmoq.
3. Aytmoq, gapirmoq, bayon qilmoq.

Har bir qatordagi so‘zlar nimasi bilan o‘xshash? Siz shu so‘zlardan qaysilarini ko‘proq ishlatasiz?

283-mashq. Qavs ichida berilgan fe’llardan mosini qo‘yib, maqollarni yozing. Nima uchun aynan shu so‘zni tanladingiz?

1. Oz (so‘zla, gapir), ko‘p (tingla, eshit).
2. To‘g‘ri odam egri so‘zdan (or qilar, uyalar).
3. Kishining so‘ziga emas, ishiga (boq, qara.)
4. Aytar so‘zni (ayt, so‘zla)
   Aytmas so‘zdan qayt.



284-mashq. She’r nima haqida? She’rda tasvirlangan manzarani rasmda tasvirlay olasizmi?

Shabadada to‘lqindek
Chayqaladi boshoqlar.
Dalalarda yaralar
Rizq-ro‘zimiz shu chog‘lar.
Dehqon bobo shod boqar
Kaftga olib donlarni.
Mana, endi onalar
Yopar oppoq nonlarni.

Valijon Ahmadjon

285-mashq. „Non rizq-u ro‘zimiz“ mavzusida 5 – 6 ta gapdan iborat hikoya tuzing. Hikoyangizda qo‘llagan fe’llarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.

286-mashq. O‘qing va ko‘chiring. Fe’llarni aniqlab, asos va yasovchi qo‘shimchalarini belgilang.

Sizning bobolaringiz Alpomish avlodlari bo‘lgan. Ularni arslon kelbatli, sheryurak deb **ta’riflashgan.** Chavandozlik, merganlikda ular bilan **tenglashadigan** odamlar bo‘lmagan. Aql, tafakkurda ham dunyoni lol qoldirishgan. Siz ularga munosib voris bo‘ling. *(Muhabbat Hamidovadan)*

voris – ota-bobolar ishini davom ettiruvchi

Ajratilgan fe'lga yaqin ma'noli fe'l topib yozing.

BO‘LISHLI FE'LLAR, BO‘LISHSIZ FE'LLAR

287-mashq. Maqollarni o‘qing, ma'nosini izohlang.

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
2. Kishining ishiga boqma, so‘ziga boq.
3. Do‘st so‘zini tashlama,
   Tashlab boshing qashlama.

Ko‘chiring. Harakatning bajarilmaganini bildirgan fe'llarning tagiga chizing.


Fe'llarga qo‘shiladigan **-ma** qo‘shimchasi qaysi ma'nodagi harakatni bildiradi?

288-mashq. Alining yiqilib tushishiga sabab bo‘lgan voqea ifodalangan gapni aniqlang.

Bahor keldi. Giloslar g‘arq pishdi. Ali gilos daraxtiga chiqdi. Shox uchlaridagi giloslar unga kattaroq, shirinroq tuyuldi.

Ali sekin-sekin daraxtning uchiga chiqdi. Daraxtning shoxi qarsillab sindi. Ali yerga yiqilib tushdi. *(„Gulxan“dan)*

Rasm asosida hikoyani davom ettiring.



Hikoyangizdagi bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlang va tagiga chizing.

289-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.



U yoqqa qarasangiz, ko‘rinmaydi,
Bu yoqqa qarasangiz, ko‘rinmaydi,
Boshingizga qarasangiz, ko‘rinmaydi,
Soyangizga qarasangiz, ko‘rinadi.

Chopsa, chopilmaydi.
Kessa, kesilmaydi.



Ko‘chiring. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarning tagiga chizing.

290-mashq. O‘qing. Hikoyaning boshlanishi va tugallanishini ifodalagan gaplarni aniqlang. Bu gaplarni o‘zgartirmagan holda 2–3-gaplardagi bo‘lishsiz fe’llarni bo‘lishli fe’llarga aylantiring. Hikoyani qayta tuzing.

Otasi Jamshidni shaxmat-shashka to‘garagiga olib bordi. Ammo u to‘garak mashg‘ulotlariga muntazam qatnashmadi, shuning uchun shaxmat sirlarini o‘rgana olmadi. Musobaqalarda ham qatnashmadi. Kimki

tanlagan hunarini bilib olishga qunt bilan kirishmasa, u hunarni yaxshi egallay olmaydi.

Berilgan hikoya bilan o‘zingiz yozgan hikoyaning farqini ayting.

291-mashq. O‘qing. Bo‘lishli fe’llarni bo‘lishsiz fe’llarga aylantirib yozing. Bo‘lishsiz fe’llarni hosil qilgan qo‘shimchaning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Namuna: *kuyladi – kuylamadi*

ko‘rdi –
yedi –
yugurdi –
oqladi –
ko‘kardi –
uxladi –


292-mashq. O‘qing. Berilgan fe’llarga zid ma’noli fe’llar toping. Ularni qatnashtirib 3 ta gap tuzing va yozing.

kelmoq –
chiqmoq –
yig‘lamoq –
topmoq –
uchmoq –
olmoq –

293-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Tengsiz, saxiy ona yer
Bir maromda aylanar.
Ramzi porloq – hur bayroq,
Birdamlikka chorlaydi.
Peshtoqida oy, yulduz
Kecha-kunduz porlaydi.

Valijon Ahmadjon



She’rni yoddan yozing. Fe’llarning tagiga chizing.

294-mashq. Rasmni kuzating. Respublikamiz gerbini tasvirlab yozing.



295-mashq. Maqollarni o‘qing. Ularning mavzusini aniqlang.

1. Mehnatdan qo‘rqma, minnatdan qo‘rq.
2. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
3. Ish seni yengmasin, sen ishni yeng.

Maqollar tarkibidagi fe’llarni aniqlang. Ular qanday shakllarda qo‘llangan? Nima uchun?

296-mashq. Matnni o‘qing. Abu Rayhon Beruniy ilm olishni va til o‘rganishni qachon boshlagan ekan?

Men bolaligimda ko‘proq bilim olishga intildim. Biz yashaydigan joyga bir yunon ko‘chib keldi. Men har xil donlarni, urug‘larni, mevalarni olib borib unga ko‘rsatardim. Bu narsalarning uning tilida qanday nomlanishini so‘rardim. Qog‘ozga nomini yozib qo‘-yardim. Men shunday qilib yunon tilini o‘rgandim. *(Hamidjon Homidiy)*

Fe’llarni tushirib qoldirib, gaplarni o‘qing. Fikr tushunarli bo‘ldimi?

Fe’llarni ko‘chiring, qavs ichida so‘roqlarini yozing.

297-mashq. Chiziqchalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘yib, gaplarni yozing.

1. Biz mustaqilligimizni mustahkamlashga bor kuchimizni _____. 2. Men quyosh botishini ko‘p _____. Quyosh botayotganda alvon tusga _____. Siz quyoshning botishini _____? 3. Dehqonlar yerni sabzavot ekish uchun _____.

Foydalanish uchun so‘zlar: *kuzatganman, sarflaymiz, kuzatganmisiz, tayyorladilar, kiradi.*

Gaplarni shakllantirishda fe’llarning qanday ahamiyati bor?

298-mashq. O‘qing. Chiziqchalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘yib, matnni yozing.

Bahor _____. Quyosh iliq nurlarini _____. – Salom, Quyosh bobo! – dedi Qor va sevinganidan _____. Soylar uni bag‘riga _____. *(Rauf Tolib)*

Fe’llarning tagiga tegishlicha chizing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *keldi, sochdi, erib ketdi, oldi.*

299-mashq. Muallif o‘rik guliga achinishini qaysi so‘zlarda ifodalagan? Bu so‘zlar qaysi so‘z turkumiga mansub?

Derazamning oldida bir tup o‘rik o‘sgan. U erta bahorda oppoq bo‘lib gullaydi. Shu o‘rik gullaganda jonimni hovuchlab turaman.

Mana, qor aralash yomg‘ir yog‘yapti. O‘rik bechora oppoq, nozik gullarini qayoqqa yashirishni bilmayapti.

Buni ko‘rib mening yuragim ezilmoqda... *(Muxtor Xudoyqulovdan)*

300-mashq. Siz quvonchingizni ifodalash uchun qaysi fe’llardan foydalanasiz? Ularni yozing. Yozgan fe’llaringizdan foydalanib 2 – 3 ta gap yozing.

301-mashq. O‘qing va ko‘chiring. Fe’llarning asosi va bo‘lishsizlik qo‘shimchasini belgilang.

Namuna: *tushundi...*

Tushundi, sinamoqchi, aytdi, ko‘rmagan, quvmayapti, kuzatyapti, tanimadi, eshitdi, ekkan, eslamadi, yurmadi.

Qaysi fe’llarning talaffuzi va yozilishida qanday farq sezdingiz?



302-mashq. Tasvirlangan voqealar qachon ro‘y berganini aniqlang. Buni qanday aniqladingiz?

Bahor. Quyosh charaqlab nurini sochmoqda. Uning nuri shunday yoqimliki, undan dov-daraxtlar yayramoqda. Daraxtlar qizg‘ish tusga kiryapti. Maysalar nish uryapti. Hamma yoqqa o‘t-o‘lanlarning yoqimli hidi taralmoqda. Osmonda yakka-yakka oppoq bulutlar quvlashmachoq o‘ynashmoqda. *(M. Tursunovdan)*

303-mashq. Matnni o‘qing. Unga bulbulning tasvirini qo‘shib, qayta hikoyalang.

Bulbul

Qo‘shni tomondan bir qushning yoqimli ovozi keldi. Qobiljon devorga tirmashdi, lekin chiqolmadi.

– Dada, nega bizning bog‘imizga bulbul kelmaydi? – dedi Qobiljon.

– Bulbul sendan qo‘rqadi. Sen qushlarga kesak otasan, quvlaysan, – dedi dadasi.

Qobiljon o‘ylanib qoldi. *(Hakim Nazirdan)*

Fe’llarni topib, kim?, nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar bilan birga ko‘chiring. Nima hosil bo‘ldi?

304-mashq. O‘qing va ko‘chiring. So‘zlarning yozilishi va ma’nosini bilib oling.

Xohlamoq, hurmatlamoq, uxlamoq, uhlamoq, bahslashmoq, hidlamoq, xayrlashmoq, taxminlamoq.

Shu so‘zlarni qatnashtirib, 4 ta gap yozing.



FE’L YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

305-mashq. She’rda fe’llarning qo‘llanishiga diqqat qiling. Ular qanday ma’noda qo‘llangan?

Bahor so‘zi

Tog‘lar bag‘ri – adirlarda
Lolaman, lovullayman.
Ko‘piraman, guvullayman,
Sho‘x soyday shovullayman.
Uyg‘onaman, ko‘z ochaman,
Go‘zal, sirli tong bo‘lib.
Tovlanaman kamalakday,
Turfa-turfa rang bo‘lib.

Rauf Tolib

She’r kimning tilidan aytildi?

306-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing va yozing. Ularning asosini aniqlang va tegishlicha belgilang.

Lovullayman, qarsilla, guvullayman, shovullayman, uyg‘onaman, ochaman, tovlanaman.

Qaysi fe’llarning tarkibida **-ulla, -illa, -lan** qo‘shimchalari bor?

-la, -lan, -sira, -illa (-ulla), -lash fe’l yasovchi qo‘shimchalardir.

307-mashq. Nuqtalar o‘rniga fe’l yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring. Fe’l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

Shar.., soz.., shod.., o‘t.., oq.., tinch.., zavq.., chir.., viz.., bir.., ov.. .

308-mashq. Nuqtalar o‘rniga fe’l yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib o‘qing va fe’llarni ko‘chirib yozing.

Iqtisodiy bilimga ega bo‘lgan odam hamyonidan ayrilmaydi. Har kim iqtisodni o‘z xonadonidan bosh..-mog‘i kerak. Elektr quvvatidan, suvdan, gazdan tejab foyda..ishni odat qiling. Ovqat..ish uchun ortiqcha narsa xarid qilmang, oshqozon buziladi. Shularga amal qilgan bolakaydan yaxshigina iqtisodchi chiqadi. *(Namoz Sa’dullayevdan)*

309-mashq. Chiziqchalar o‘rniga mos fe’l qo‘yib o‘qing. Ularning gapdagi vazifasini ayting. Kesim orqali so‘roq berib, gapning egasini toping.

Mustaqillik yillarida o‘lkamizda ko‘plab bog‘lar _____. Buning oqibatida bozorlarda yong‘oq, mayiz, turshaklar _____ va _____.

Aziz bolajonlarim! „Sharq jannati“ deb atalgan bog‘larimiz o‘z qadrini _____. Siz ham yangi bog‘ yaratishga o‘z hissangizni _____.

Ega va kesimni birga ko‘chiring. Fe’llardagi yasovchi qo‘shimchani belgilang.

Foydalanish uchun fe’llar: *ko‘paydi, yaratilmoqda, arzonlashdi, qo‘shing, topsin.*

310-mashq. Berilgan so‘zlarga fe’l yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib, juftlab yozing. Ularning ma’nosini qiyoslang.

Iz, toza, yaxshi, bosh, qo‘l, es, bir, ikki.

Namuna: *iz – izla, ...*

311-mashq. Savollar o‘rniga so‘zlar topib yozing.

kim?
nimani?
kimga?
kimdan? → oldi

kim?
nimani?
nimaga?
nimadan? → yozdi

Fe’llar qaysi kelishikdagi so‘zlar bilan bog‘langan? Kelishik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

312-mashq. O‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Ikkita chittak qirq tup olma daraxtini zararkunandalardan tozalaydi. Ular yoz kunlari erta tongdan

to qorong‘i tushguncha „ishlaydilar“. Agar chittakning yozda hasharotlarni ovlab, uchib o‘tgan yo‘lini bir-biriga qo‘shsak, Yer shari aylanasiga to‘g‘ri keladi.

Bizda bunday foydali qushlar juda ko‘p. *(„Gulxan“dan)*

Hikoyani „Bizda foydali qushlar juda ko‘p“ jumlasi bilan boshlab, matnni qayta hikoya qiling. Qanday o‘zgarishni sezdingiz?

Fe’llarni ko‘chiring. Fe’l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang. Ular qaysi so‘z turkumidan yasalgan?

Fe’llar qaysi so‘z turkumlaridan yasaladi?
Tilimizda so‘zlar qay tarzda ko‘payib boradi?

313-mashq. O‘qing va ko‘chiring. Fe’l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

Salomlashib sizlashamiz,
Bir-birimiz izlashamiz.

Obid Rasul

Fe’llarni aniqlang, asos va fe’l yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

314-mashq. „O‘qishni sevaman“ mavzusida insho yozing. Mavzuni yoritishda qaysi turkumdagi so‘zlardan ko‘proq foydalandingiz? Qaysi turkumdagi so‘zlar gapingizni tugallashingizga yordam berdi?

315-mashq. Matnni o‘qing. Fe’llarni tahlil qiling.

Yer yuzida tinchlik, xavfsizlik, osoyishtalikni saqlash uchun 1945-yilning 24-iyunida xalqaro tashkilot

tuzildi. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti deb nomlandi. U xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni o‘rnatadi. *(„Gulxan“dan)*

Namuna: *nomlandi* – nima qilindi?, fe’l, bo‘lishli fe’l, *nom* – asos, -lan – fe’l yasovchi qo‘shimcha, gapda kesim vazifasida kelgan.

316-mashq. O‘zingiz haqingizda taqdimot tayyorlang.

Bilimingizni tekshiring!

Fe’llar qanday ma’nolarni bildiradi? Misollar keltiring.

Fe’llarning gapdagi o‘rni va ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.

Fe’l yasovchi qo‘shimchalarni ayting. Ular qaysi so‘z turkumlaridan fe’l yasaydi?

Misollar keltiring.

GAP

317-mashq. She’rni ifodali o‘qing. She’rga sarlavha toping va husnixat bilan ko‘chiring.

Sahrolar gul ochar senda,
Samolar nur sochar senda.
Yulduzlaring so‘nmasin hech,
Bag‘ringga g‘am qo‘nmasin hech.
Mening uchun aziz bo‘ston,
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

Mirpo‘lat Mirzo

Tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bering.
She’rda nechta gap borligini ayting.
So‘nmasin so‘ziga ma’nodosh so‘zlar toping.

318-mashq. O‘qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Gaplar qanday mazmun bildiryapti? Ularning oxiriga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Boybo‘ri o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi Hakimbek olti yoshga to‘ldi u Alpinbiy bobosidan qolgan yoyni ko‘tarib tortdi yoy Asqar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib ketdi dunyodan bir kam to‘qson alp o‘tdi alplarning boshlig‘i Rustami doston edi oxiri Alpomish alp bo‘ldi. *(„Alpomish“ dostonidan)*

Gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib yozing.

Namuna: *Boybo‘ri kimning otini Hakimbek qo‘ydi?*

alp – bahodir, pahlavon

Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo‘yiladi? Gapni qanday harf bilan boshlaysiz?

319-mashq. O‘qing. Matnda nechta gap bor? Har bir gap qanday mazmun bildiryapti? Matnga sarlavha qo‘ying.

Siz kim kimga salom berishi kerakligini bilasizmi? Kim oldin salom berishi lozim?

Ko‘pchilikka yolg‘iz kishi salom beradi. Otliq yoki mashinadagi kishi piyodaga salom berishi kerak. Yurgan kishi o‘tirganga, o‘tirgan yotgan kishiga salom beradi. O‘zingizdan kattalarga salom berishni unutmang! *(Mahmud Sattor)*

Gaplarning oxiriga qaysi tinish belgilari qo‘yilgan? Nima uchun?

Piyoda so‘zini qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin?



320-mashq. Matn nima haqida? Do‘stlik haqidagi yana qanday voqealarni bilasiz?

Siz it bilan ilonning do‘st bo‘lishiga ishonasizmi?

Ali boboning iti har kuni bir vaqtda g‘oyib bo‘lib qolarkan. Kunlarning birida bobo itini kuzatibdi. U g‘alati voqeaning ustidan chiqibdi.

It yo‘g‘onligi bilakdek keladigan ilon bilan o‘ynayotgan ekan. It oyoqlari bilan ilonni goh yerga bosar, goh ko‘tarar edi. Ilon ham itga erkalanib suykalardi. *(Abdusaid Ko‘chimovdan)*

Matn maqsadga ko‘ra qanday gaplardan tuzilgan? Buni qanday aniqladingiz?

Ajratilgan gaplarni ko‘chiring, ifoda maqsadiga ko‘ra turini qavs ichida yozing.

321-mashq. Darak gap, so‘roq gap va buyruq gaplarni ohangiga rioya qilib o‘qing. Ko‘chiring.

Boburning ustozlari

Bobur Mirzoning ustozi Umarshayx Mirzoga dedi:

– Farzandingizni boshqa ustozga bering. Uning savollariga javob berishga ojizlik qilib qolyapman...

Umarshayx Mirzo: „Endi nima qilamiz?“ – degan lahzada Bobur Mirzo o‘nga yaqin kitoblar bilan kirib keldi:

– Padari buzrukvor, mana mening ustozlarim! – deya kitoblarga ishora qildi. *(To‘lqin Hayitdan)*

Bobur Mirzoning javobi sizda qanday taassurot qoldirdi?



322-mashq. Gaplarni tinch ohang bilan o‘qing, chegarasini aniqlang. Ibn Sino haqidagi gaplarni ko‘chiring.

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi uning tagiga bir yo‘lovchi keldi kun issiq yo‘lovchi daraxt soyasida dam oldi

Yo‘lovchi ochiqqan edi qarasa, daraxtdagi mevalar pishgan u daraxtga tosh otdi mevalar duv to‘kildi yo‘lovchi to‘yguncha yedi, so‘ng yo‘lga ketdi.

Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi.

Bu daraxtning nomi „Yaxshilik“ edi. *(O‘tkir Hoshimovdan)*





323-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Gaplarning maqsadga ko‘ra turini ayting. Undov belgisi qo‘yilgan gaplarni qanday ohang bilan o‘qidingiz? Ular ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplar?

Yaxshi niyat

– Sening jajji yuragingda
Olam orzu ovozi.
Yaxshi niyat o‘lmaydi hech,
Yuksak bo‘lur parvozi.
O‘g‘lim xursand. So‘zlar shodon:
– Yaxshi niyat o‘lmaydi!
Yashasin-ay!
Yashasin-ay!
Endi urush bo‘lmaydi!

Habib Rahmat

Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni ko‘chiring. Qavs ichida gapning turini yozing.

324-mashq. Rasmni kuzating. Rasm mazmunini to‘rt-beshta gap bilan ifoda etib yozing.



Tuzgan gaplaringiz qanday mazmunni bildiryapti?

325-mashq. Gaplarni tinish belgilariga rioya qilib o‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz? Matn mazmunini ijodiy qayta hikoyalab berishga tayyorlaning.

Oqtovdagi yashil pista va bodomzorlar qanday paydo bo‘lganini bilasizmi?

Sayroqi qushlar daraxt ostiga to‘kilgan danaklarni olib, xarsang qoyaga qo‘nishadi. Tumshuqlaridagi pista va bodomlarni kovaklarga qo‘yishadi. Ancha vaqt danak tashish musobaqasi shu tarzda davom etadi.

Bir kun kelib, qoyaning yon bag‘rida pista va bodom nihollari unadi. *(G‘ulomjon Qodirovdan)*

Ko‘chiring. Xato yozishingiz mumkin bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing.

xarsang – katta tosh

GAPNING BOSH BO‘LAKLARI

326-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Uning qaysi diyor haqida ekanini ayting. She’rni yoddan yozing.

Bunda bulbul kitob **o‘qiydi**.
Bunda qurtlar ipak **to‘qiydi**.
Bunda ari **keltiradi** bol.
Bunda qushlar **topadi** iqbol.
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun **so‘ylaydi** olqish.

Hamid Olimjon

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. Ularning qaysi gap bo‘lagi ekanini aniqlang. Kesim orqali so‘roq berib, egani toping.

Qaysi bo‘lak gap hosil qila oladi?
Kesim va ega gapning asosini tashkil etadi.
Kesim nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.
Ega kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

O‘qiydi, keltiradi, topadi, so‘ylaydi so‘zlari qanday ma’noda qo‘llangan?

Taqqoslang: *o‘quvchi o‘qiydi – bulbul o‘qiydi.* So‘zlar gapda qanday ma’nolarda qo‘llanadi?

iqbol – baxtli taqdir, baxt, omad
olqish – maqtash, ulug‘lash

327-mashq. Berilgan so‘zlardan gaplar tuzing. Gaplardagi ega va kesimning tagiga chizing.

1. Kiyim issiq, ilitadi, tani,
   so‘z, shirin, ilitadi, jonni.
2. Yarashadi bulbul bog‘ga,
   yarashadi, aql odamga.

328-mashq. Matndagi gaplar qanday ohang bilan o‘qiladi? Nima uchun?

Tog‘lar yozda garmselning yo‘lini to‘sadi. Ular issiq shamolni o‘tkazmaydi. Bunday joylarda o‘simliklar yaxshi o‘sadi.

Ko‘chiring. So‘roqlar yordamida gapning kesimini aniqlang. Gaplarning ega va kesimining tagiga tegishlicha chizing.

garmsel – issiq, yoqimsiz, zararli shamol

IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR


329-mashq. Hikmatlarni o‘qing. Gaplar qanday mazmun bildiryapti?

1. Siz ilmli kishilarni ulug‘lang. 2. Siz rostgo‘y bo‘ling. Siz noma’qul so‘zni so‘zlamang. *(Husayn Hofiziydan)* 3. Mard to‘g‘ri va haq gapni gapiradi. *(Rahimjon Usmonov)*

Ko‘chiring. So‘roqlar yordamida gapning kesimi, egasi va ikkinchi darajali bo‘laklarini aniqlab, tagiga chizing.

Gapning kesimi yoki egasiga bog‘lanib kelgan bo‘laklar qanday nomlanadi?

330-mashq. Shartli belgilarga mos keladigan gaplarni topib yozing.



Men o‘zimning fikrimni aytmoqchiman.
Kecha majlisda Akmal, Ikrom qatnashdi.
Konstitutsiyamiz necha bobdan iborat?

Gaplar qanday bo‘laklardan tuzilgan? Buni qanday aniqladingiz?

Konstitutsiya – Davlatning asosiy qonuni

331-mashq. Matndagi savolga javob bering. Gaplarni mazmuniga mos ohangda o‘qing.

Gullar kechasi uxlaydimi?

Gullar kun bo‘yi quyoshning nurlaridan oziqlanadi. Gullar kechasi ko‘zlarini yummaydi. Gullar quyoshsiz o‘smaydi. Ular ham tunda ishlamaydi.

Ayting-chi, gullar tunda uxlaydimi yoki yo‘qmi? *(„Mo‘jiza kitobi“dan)*

Ko‘chiring. Gaplardagi ikkinchi darajali bo‘laklarni tushirib, matnni qayta o‘qing. Gapning mazmunida qanday o‘zgarish yuz berdi?

Qaysi gapda mazmun to‘liq ifodalangan? *Ko‘zlari, ishlamaydi* so‘zlari qanday ma’noda qo‘llangan?



GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI

332-mashq. Karimjon to‘g‘ri ish qildimi?

Bog‘da chiroyli **kapalak** guldan gulga **qo‘nardi**. Karimjon kapalakni **tutib oldi**. Kapalak Karimjonning **barmoqlari** orasida tinmay pitirlardi.

So‘roqlar yordamida ajratilgan so‘zlarga bog‘langan so‘zlarni aniqlang. Ular gapning qaysi bo‘lagiga bog‘langanligini ayting. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Gapda so‘zlar o‘zaro nimalar vositasida bog‘lanadi?

333-mashq. Chizmani kuzating. So‘roqlarga mos so‘z topib, ikkita gap tuzing.



Gapda so‘zlar o‘zaro bog‘lanadi.
- Ega kesimga bog‘lanadi.
- Ikkinchi darajali bo‘laklar kesimga yoki egaga bog‘lanadi.

334-mashq. O‘qing. So‘roqlar yordamida gapning kesimga bog‘langan bo‘laklarini aniqlang.

1. Men elimning yuragida yashayman. *(Hamid Olimjon)* 2. Biz qovunlarni, tarvuzlarni mashinalarga ortdik. *(Shukur Sa’dulla)*

Ularning bog‘lanishini chizmada tasvirlab yozing.

335-mashq. Obid Rasul she’rlaridan berilgan parchalarni o‘qing. Ma’no jihatdan noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni aniqlang va boshqa so‘z bilan almashtirib yozing.

1. Osmon chamanida
   Yig‘lardi quyosh.

2. Ishyoqmasni sevmayman,
   Elga undan ko‘p foyda.

Gapda so‘zlar o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanadi.

336-mashq. O‘qing. Matndagi ma’no jihatdan bog‘-lanmagan so‘z va gaplarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib, matnni ko‘chiring.

Yoz qayerga berkinadi?

Yoz daraxt kurtaklarining bag‘riga, ustiga kirib, qishning qahridan jon saqlardi. Qish qishligini qilib, oxiri ketibdi, Quyosh kulib, yig‘lab irmoqlar yana qo‘shiq aytibdi. Daraxtlarning kurtaklari bo‘rtib, birin-ketin ochilishibdi.

Ular ochilishi bilan Yoz yana erkinlikka chiqib, Yer yuziga tushibdi. Barglar to‘kildi. O‘shandan buyon Yoz Qish kelishi bilan novdalar ichiga yashirinib olarkan. Qizlar gulchambar taqdi. Qish ketishi bilan yana yer yuziga tushar ekan. *(Boris Snegurenkovdan)*

Fikr ifodalashda nimalarga e’tibor berishingiz kerak?

337-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dagi „Kichik Vatan“ hikoyasidan dastlabki ikkita gapni ko‘chiring. Gapda so‘zlarning bog‘lanishini chizmada ko‘rsating.


338-mashq. Rasmni kuzating. Berilgan so‘zlar ish-tirokida 7 – 8 ta gapli hikoya tuzib yozing.



Munavvar, Qahhor, do‘ppi, avtobus, hassa, minnatdorchilik bildirdi, Izzat bobo.

Gap qanday bo‘laklardan tuziladi?

339-mashq. Berilgan chizmaga mos gaplar tuzib yozing.



340-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Ularga ikkinchi darajali bo‘laklarni qo‘shib, gapni qayta tuzing.

1. Yomg‘ir yog‘di.
2. Gullar ochildi.

Xabar mazmunidagi gapni so‘roq, buyruq mazmunidagi gapga aylantirish mumkinmi?

Fikringizni misol bilan asoslang.

Bilimingizni tekshiring!

Gap nimani ifodalaydi?

Gap oxiriga nuqta, so‘roq va undov belgilarining qo‘yilish sababini izohlang.

NUTQ. MATN

341-mashq. Rasmni kuzating.



Rasm asosida 3 – 4 ta gapli hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo‘ying.

Rasm asosida tuzgan hikoyangiz nima deyiladi?

342-mashq. She’r nima haqida ekan?

Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini „Yaxshilik“ ata.
Niholning yoniga bir gul ekib qo‘y,
Bu gulning nomini „Go‘zallik“ deb qo‘y.
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga „Mehr“ deb qo‘y ot.

Erkin Vohidov

Siz kelgusida Vataningiz ravnaqiga qanday hissa qo‘shmoqchisiz? Fikringizni uch-to‘rt gap bilan yozing.

She’rni yod oling.

Nutq necha xil shaklda ifodalanadi?

343-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dan Aziz Abdurazzoqning „Danak ichidagi daraxt“ ertagini o‘qing. Ra’noning „Danak ichiga qanaqa qilib sig‘ding?“ savoliga niholning javobini yozing. Yozgan javobingiz nima deb nomlanadi? Qavsda yozing.

344-mashq. O‘qing. Chap va o‘ng tomonda berilgan fikrlarni taqqoslang. Ulardan qaysi biri matn? Nima uchun uni matn deb hisoblaysiz?

1. Isiriq Sharq va O‘rta Osiyoda ishonchli dori-darmon bo‘lib kelgan. *(M. Nabiyev)*

2. Savolni o‘z vaqtida, o‘z o‘rnida berishni o‘rganing.

3. Ko‘m-ko‘k bo‘lib turgan yaproqlar kuzda nega sarg‘ayib qoladi? *(„Gulxan“dan)*

Samarqanddagi Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug‘bek madrasasi 1471-yili barpo etilgan. Madrasada diniy ilmdan tashqari, turli dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bu yer Ulug‘bek davrida ilm-fanning markazi bo‘lgan. Madrasada Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergan. *(„Gulxan“dan)*

Matn nutqning qanday shakli?

Matn nutqning yozma shaklidir.

Matnni qismlarga bo‘lish, unga sarlavha qo‘yish, reja tuzish mumkin.

345-mashq. Matnni o‘qing. Gaplar o‘zaro qanday bog‘langan?

Beysbol

Beysbol Amerikada juda taraqqiy etgan. U sportning bir turi. 1999-yili O‘zbekistonda beysbol federatsiyasi tuzildi. O‘zbekiston jahon va Osiyo federatsiyasiga a’zo bo‘ldi. Beysbolchilarimiz 2001-yil xalqaro maydonga chiqishdi. Ular 2001-yil Indoneziyaning Jakarta shahrida o‘tkazilgan beysbolchilar musobaqasida qatnashdilar.

Toshkent shahrining Rohat ko‘li bo‘yida beysbolchilar shaharchasi qurilgan. *(„Gulxan“dan)*

Matnni nechta qismga ajratish mumkin? Matnga reja tuzing. Rejangiz asosida matnni qayta hikoyalang. Hikoyangiz nima deb yuritiladi?

346-mashq. O‘qing. Gaplarni o‘z o‘rniga qo‘yib, matn tuzing va sarlavha qo‘yib yozing.

Nihollarning orasini uch-to‘rt metrdan qoldirib tashlab chiqdik. Bobom va men ko‘chatlarni ko‘tarib tomorqa tomon bordik. Keyin nihollarni ekib chiqdik.

Biz ko‘chatlarni ekib bo‘lguncha kun yarimladi. Ular oldiga chuqurchalar qazidik. Ilk ko‘klamda ekkan nihollarimiz gulladi, meva tugdi.

Bu bog‘ bobomni yerdan topgan oltinlaridek edi. *(Abdusattor Hotamovdan)*

Matnda gaplar qanday bog‘lanadi?

Matnda gaplar mazmunan bog‘lanadi.

347-mashq. Voqea kimning tilidan hikoya qilingan?

Hovliga chiqdik. Yo‘lakda bir chumchuq bolasi og‘zini kappa-kappa ochmoqda. Bir oyog‘i singan. Bahodir ikkimiz chumchuq bolasining singan oyog‘iga qog‘oz o‘radik. Ip bilan bog‘ladik. Botinka qutichasiga solib, uy tokchasiga qo‘ydik.

Bahodir pashsha tutib berdi. Bahrom non uvog‘i bilan boqdi. Qushcha uy ichida aylanib uchadigan bo‘ldi.

Bola chumchuq ona chumchuqning ovozini eshitib, chirqillay boshladi. U onasini sog‘inib yig‘layapti, deb o‘yladik. Chumchuqqa rahmimiz keldi. Bahrom uni asta qo‘liga oldi-da, uchirib yubordi. *(Malik Murodovdan)*

Matn necha qismdan tuzilgan? Matnga reja tuzing. Reja asosida matn mazmunini to‘liq qayta hikoyalang.

348-mashq. O‘qing. Matnda qayer tasvirlangan?

Bolalar o‘tloqqa chiqishdi. O‘tloq yam-yashil o‘tlar, oq, sariq, qizil gullarga boy joy edi. Cho‘qqidan oqib tushgan tip-tiniq suv qum-toshlar orasida ariqchalar hosil qilgan. Bu ariqchalar bo‘yida o‘tkir hidli qoramtir yalpizlar, sershox jambillar o‘sib yotardi. O‘tloqning sof va xushbo‘y havosi kishiga orom bag‘ishlaydi. *(Hakim Nazirdan)*

Shu matn asosida rasm chizing. Rasm chizishda matndagi qaysi so‘zlardan foydalandingiz?

349-mashq. Savollarga „O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi“ kitobidan javob toping va yozing.

1. O‘zbekiston xalqining huquqi, burchi va vazifasi qaysi kitobda belgilab berilgan?
2. Konstitutsiya kitobidan o‘z huquqlaringizdan misollar keltiring.
3. Konstitutsiyada sizning qaysi burchlaringiz ifoda etilgan?
4. Siz burchlaringizni qanday bajaryapsiz?

Yozgan matningiz necha qismdan iborat? Har bir qismga reja tuzing.



350-mashq. Matn qaysi voqea bilan boshlandi?

Bobur Mirzo tug‘ilganda

Yunusxon beshik ustidan bir hovuch tanga sochdi. Kanizaklar tangalarni terib olishdi.

– Nabiram bahodir sarkarda bo‘lsin! – deb duo qildi buvasi Yunusxon.

– O‘g‘lim olamgir podsho bo‘lsin! – deb tilak bildirdi otasi Umarshayx mirzo.

– Nuri diydam olim bo‘lsin! – deb niyat qildi buvisi Eson Davlatbegim.

– Bolaginam shoir bo‘lsin! – deb orzu qildi onasi Qutlug‘nigorxonim. *(Xayriddin Sultonovdan)*

Niyatlarni ketma-ketlikda aytib bering.

Bahodir sarkarda, olamgir podsho, nuri diydam so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Matndagi ma’nodosh so‘zlarni toping.

Boburning buvasi, buvisi, otasi va onasining gaplarini ko‘chiring.

351-mashq. Rasmda qaysi ertak tasvirlangan? Rasm asosida ertakni yozing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *laylak, chol, qaynarxumcha, ochildasturxon, urto‘qmoq.*

352-mashq. „Dorivor o‘simliklar“ mavzusida 5 – 6 gapli matn tuzing va yozing.

353-mashq. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, matnni yozing. Matnga sarlavha toping.

_____ daraxtlar ko‘cha va istirohat bog‘larini bezaydi. _____ va _____ bo‘ylariga _____, _____, _____ kabi daraxtlar ekiladi. Ularning barglari _____ chiqaradi, odamlarni yozning _____ issig‘idan pana qiladi.

Bundan tashqari, manzarali daraxtlar _____ va

_____ tutib qoladi. Havoni mashinalarning _____ gazlaridan _____.

Foydalanish uchun so‘zlar: *manzarali, yo‘l chetlari, ariq, terak, tol, archa, kislorod, jazirama, chang, zararli gazlarni, zararli, tozalaydi.*

Qo‘ygan so‘zlaringiz qaysi so‘z turkumlariga kirishini ayting. *Daraxt* so‘zining talaffuzi va yozilishini tushuntiring.

354-mashq. „Zamonaviy bog‘“ mavzusida 5 – 6 ta gapdan iborat matn tuzib yozing.

355-mashq. Xonangiz va hovlingizning qanday ko‘rinishda bo‘lishini istaysiz? „Mening uyim – mening bog‘im“ mavzusida kichik hikoya yozing.



356-mashq. O‘qing. Matnda qaysi fasl tasviri berilgan?

Quyosh charaqlab nurini sochmoqda. Uning nuri shunday yoqimliki, undan dov-daraxtlar yayramoqda. Daraxtlar qizg‘ish tusga kiryapti. Maysalar nish uryapti. Hamma yoqqa o‘t-o‘lanlarning yoqimli hidi taralmoqda. Osmonda yakka-yakka oppoq bulutlar quvlashmachoq o‘ynashmoqda. *(M. Tursunovdan)*

Ko‘chiring. Tabiat tasvirida qo‘llangan so‘zlarning tagiga chizing. Matn asosida rasm chizing.

357-mashq. O‘qing. She’r kimning tilidan aytilgan?

Talpinaman quyoshga

Ona-Vatan bag‘rida
Ulg‘ayaman baxtiyor.

Muncha suluv, bepoyon
O‘zbekiston gul – diyor.
Sirdosh bo‘lgim keladi
Har giyohga, har toshga,
Zamin mehriga qonib,
Talpinaman quyoshga.

Muqimjon Qodirov

Ko‘chiring. Ohangdosh so‘zlarning turkumini ayting.

358-mashq. Matn mazmunini qayta hikoyalang. Tabiatni tasvirlashda matndagi so‘zlardan foydalaning.

Quyosh baland-baland daraxtlar ortiga berkindi. Atrofni qorong‘ilik qopladi. Onasining qanoti ostidagi Chumchuqcha so‘radi:

– Ayajon, Oftoboy yaxshimi?


– Bolajonim, Oftoboy saxiy. U erta tongda tog‘larning orqasidan mo‘ralaydi. „Kim uyg‘ondi, kim uyg‘onmadi?“ deb so‘raydi Oftoboy. „Hamma uyg‘ondi“ deb qushlar sayrashadi.

Bundan Oftoboyning mehri ortadi. U yerdan haroratini ayamaydi. *(Sofiya Fayziyevadan)*

Ayasining gapini husnixat bilan ko‘chiring. Matnda gaplar o‘zaro qanday bog‘langan?

Saxiy so‘ziga ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar toping.

359-mashq. Rasm asosida „Ipak qurti“ mavzusida hikoya yozing. Hikoya yozish uchun „Tabiatshunoslik“ darsligidan mavzuga doir ma’lumotlarni topib o‘qing.




Foydalanish uchun so‘zlar: *Aprel oyining boshlari, tuxumdan chiqariladi, tut bargi, uy sharoiti, chitir o‘simligi, uy harorati, 28 – 30 gradus, havo namligi, yangi chiqqan mayda qirqib maydalangan barglar, 5 – 6 kundan so‘ng, maydalanmagan barglar, 23 – 25 kunda, pilla, ipak tolalar…*

360-mashq. „Kulib keldi gul bahor“ mavzusida insho yozing.

Mavzuni yoritishda Yusuf Xos Hojibning „Bahor ta’rifida“ matnidan, kuzatishlaringiz asosida to‘plagan materialla-ringizdan foydalaning.

Reja:

1. Bahor ob-havosi.
2. Bahorda tabiat manzarasi.
3. Bahorgi yumushlar.

Yozgan inshoyingizni o‘qing. Xato va kamchiliklarini aniqlang va to‘g‘irlang.

361-mashq. „O‘qish kitobi“ darsligidan tabiat (inson, hayvon)ning tasviri berilgan o‘rinlarni topib ko‘chiring. Tasvirlashda qo‘llangan so‘zlarning tagiga chizing.

362-mashq. „Men sevgan kasb“ mavzusida hikoya yozing. Nima uchun bu kasbga qiziqish paydo bo‘lganligini asoslang.






363-mashq. „Eng yaxshi hikoyachi“ tanlovini tashkil qiling. O‘zingiz mustaqil o‘qigan ertak (hikoya, masal) mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.

364-mashq. O‘qish darsida yoki mustaqil o‘qigan asaringiz mazmunini qisqartirib yozing. Unda voqeaning boshlanishi, ketma-ketligi va yakunlanishiga e’tibor bering.

365-mashq. 4-sinf „O‘qish kitobi“dagi „Erkacholning o‘rigi“ hikoyasining o‘zingizga yoqqan qismini tanlang. Uni ichingizda qayta hikoyalang. Hikoyaning shu qismini yozing.

366-mashq. Rasmni kuzating. „O‘zbek milliy taomlari“ mavzusida og‘zaki hikoya tuzing.



367-mashq. Rasmni kuzating va taqqoslang. O‘ylang! Nima uchun „Tabiat mening uyim“ deyishadi? Fikringizni misollar bilan asoslang.



„Tabiat mening uyim“ mavzusida 5 – 6 ta gapli matn yozing.

368-mashq. Matnga sarlavha toping.

Bahor bilan xayrlashdik. Saraton kirdi. Yoz fasli boshlandi. Jazirama oftob hamma yoqni qizdiradi.

Osmon-u falakda laylaklar suzib yuradi, undan ham balandda to‘rg‘aylar sayraydi. Pastda – o‘t-o‘lanlar orasida chigirtkalar „chir-chir“ qiladi. Tush paytida havo nihoyatda isib ketadi, hamma yoq jimib qoladi. Tabiat butun borlig‘i bilan dam olayotgandek mudroq uyquga kiradi. *(Oqiljon Husanov)*

Matndagi ot, sifat, fe’l so‘z turkumlarini aniqlang va ko‘chirib yozing.

369-mashq. Matnni o‘qing. Matnga sarlavha toping.

– Sizlarni odamlar nima uchun yaxshi ko‘rishadi? Bizni esa qayerda ko‘rishsa, quvib haydashadi, – debdi Qovog‘ari hayron bo‘lib.

Asalari javob beribdi:

– Chunki biz bahordan to qishgacha mehnat qilib, odamlarga asal yig‘ib beramiz. Meni ishdan qoldirmang.

Asalari shunday debdi-da, bir guldan ikkinchi gulga qo‘nib, ishga mashg‘ul bo‘libdi.

Matn yuzasidan savollar tuzing va yozing.

370-mashq. „Yoz – o‘tadi soz“ mavzusida matn tuzib yozing. Matn yaratishda „O‘qish kitobi“dagi asarlar ma’lumotidan foydalaning.

371-mashq. Matnni o‘qing. Matnda necha kishining suhbati berilgan? Ular nima haqida suhbatlashishdi?

– Bolalar, siz Mustaqillik binosining hayotbaxsh kuchlari, ustunlarisiz. Ustunlar baquvvat bo‘lishi kerak.

Ayting-chi, bolajonlar, yaxshi bilan yomonni ajratish uchun nima qilish kerak?

– Bobojon, ko‘p kitob o‘qish kerak.

– Bolajonlarim, eng yaxshi kitobxon kim?

– Ko‘p kitob o‘qigan bola.

– Yo‘q, nabiralarim. Kitoblardagi fikr – ma’noni yaxshi uqib, o‘z boyliklariga aylantirgan odam. *(Hakim Nazirdan)*

Matnni rollarga bo‘lib o‘qing. Matn ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplardan tuzilgan? Matndan qanday xulosaga keldingiz? Bobosining oxirgi aytgan gapini ko‘chiring va unga munosabatingizni bildiring.

372-mashq. Matn nima haqida ekan? Maktab o‘quvchilarining qilgan ishlariga o‘z munosabatingizni bildiring.

Suvi qurigan ariqlarning bo‘yiga 22-maktab o‘quvchilari 200 tacha chinor ekib ketishdi. Chinorlar ham **gaplashar** ekan:

– Hammalaring eson-omon **joylashib** oldilaringmi? – dedi novcha nihol.

– Bolalar ekishayotganda mening bitta **shoximni** sindirib qo‘yishdi, – deb **zorlandi** singan niholcha.

Ertasiga quyosh nurini sochdi.

Bir necha **kundan** so‘ng niholchalar:

– Suv! Suv! Suv! – deb baqirishdi.

Ularning ovozini hech kim eshitmadi. Nihollar tik turgancha qotib qoldilar. *(Xudoyberdi To‘xtaboyevdan)*

Matnda nimalarning suhbati berilgan? Matnda voqealar qanday rivojlanib bordi?

Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring. Ularning tarkibini tegishlicha belgilang. Matnni qayta hikoya qiling.

Qotib qoldi so‘zi qanday ma’noda qo‘llangan?

373-mashq. Ta’til rejasini tuzing.



Bilimingizni tekshiring!
Nutq nima? Nutqning qanday shakllari bor?
Nutqning yozma shakli nima deb nomlanadi?
Matn qanday gaplardan tuziladi?
Matnni nimalarga bo‘lish mumkin?
Matnga nima qo‘yiladi?

O‘QUV YILI OXIRIDAGI TAKRORLASH

1-mashq. O‘qing. So‘zlarni alifbo tartibida yozing. Juftlab berilgan so‘zlar ma’nosini izohlang.

Yod – yot, eg – ek, sut – sud, darz – dars, o‘zdi – o‘sdi, yoriq – yorug‘.

2-mashq. Berilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

Tovush, harf, unli tovush, undosh tovush, bo‘g‘in, bo‘g‘in ko‘chirish.

3-mashq. **-chi, -zor -li, -siz, -la, -illa** yasovchi qo‘shimchalar yordamida so‘zlar yasang va yozing. Ularning asos va qo‘shimchalarini belgilang.

4-mashq. O‘qing. Gaplarning maqsadga ko‘ra turini ayting.

1. Qirqoyoqning ayrim turlarida 270 juft oyoqlilari ham uchraydi. 2. Siz chivinning tishi nechtaligini bilasizmi? Uning rappa-raso 22 ta tishi bor. 3. Yozgi mehnat – qishki rohat. *(Maqol)*

Ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing. Ot, sifat, fe’llarni toping.

5-mashq. Gaplarni tugallangan ohang bilan o‘qing. Matnda nechta va ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplar bor? Uni qanday aniqlaganingizni tushuntirib bering.

Bahorning har bir kuni insonlarda xush kayfiyat uyg‘otadi borliq zumrad yashillikka burkanadi dov-daraxtlarda kurtak nish uradi tollar bargak chiqaradi qizlar undan sochpopuk taqadilar mevali daraxtlar oq, pushti rangga kiradi.

Birinchi gapni ko‘chiring. Gap bo‘laklarini aniqlab, tegishlicha belgilang.

6-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Tong ketidan tong otar,
Nurafshon kun muborak.
Yillar o‘tar, ong oshar,
Ezgu zamondan darak.
Shaxdam qadamlar tashlang,
Bo‘lingiz otashyurak,
Ming tomirli elatmiz,
Buyuk Turon mushtarak.

Yo‘ldosh Muqim o‘g‘li Otash

Shoir she’r orqali nimalar demoqchiligini tushuntiring.

LUG‘AT

A

agronom
aholi
akvarium
anhor
antenna
arslon
avtomobil
a’lo
an’ana

B

baho
bahor
baland
behi
binafsha
bodring
boychechak

D

daromad
davlat
dasht
dehqon
diktant
dorixona

E

ehtiyoj
ehtiyot
ekskavator
eskalator
e’zoz

F

familiya
farzand
farrosh
fasl
faxr

G

garmdori
gavjum
giyoh
gulsapsar

H

hadya
halol
hammom
hamroh
handalak
harbiy
harorat
havas
havo
hayot
hayvonot
hazil
hashar
hasharot
himoya
hissa
hosil
hovli
hovuz
hovuch
hunar
husn

I

insof
in’om
iste’dod
istirohat bog‘i

J

jahon
jamoat
jarroh
javon
jonivor
juft

K

kakao
karam
kasseta
kulrang
kungaboqar
kutubxona
ko‘hna

L

lavlagi
loviya
lug‘at

M

madhiya
makkajo‘xori
manfaat
mavsum
mashaqqat
ma’no
ma’yus
mehribon
metall
me’mor
minnatdor
mudofaa
muhandis
mukofot
muqaddas
murabbo
muvaffaqiyat
muxbir
mug‘ambir
mo‘jiza

N

naqsh
navbat
na’matak

ne’mat
nihol
no‘xat

O

oltinrang
omad
oqko‘ngil
oromgoh

P

parashut
payvand
poytaxt
po‘stloq

Q

qahramon
qandil
qasd
qimmatbaho
quduq
qulupnay
qumursqa
qunt

R

radio
rahm
rahmdil
rasm
rassom
respublika
rostgo‘y
ruxsat

S

sahifa
samolyot
sayyoh
sirk
supurgi

T

taassurot
tabiat
tanaffus
taxir
tashakkur
ta’m
ta’til
ta’zim
tennis
timsoh
tomorqa
tomosha

U

ufq
ulug‘
urf-odat

V

varrak
va’da
velosiped

X

xabar
xarsang
xayol
xayr
xavf
xazon
xashak
xirmon
xiyobon
xohlamoq
xokkey
xomush
xursand
xo‘roz

Y

yantoq
yassi
yax
yaxmalak
yorug‘
yovvoyi

Z

zahar
zavod
zangori
zehn
zog‘orabaliq
zog‘cha

O‘

o‘tkir
o‘troq
o‘chirg‘ich

G‘

g‘amxo‘r
g‘ijjak

Sh

shaftoli
shamol
shaxmat
shavla
she’r

Ch

charxpalak
chavandoz
choyshab
chumchuq

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Takrorlash....3
Tovushlar va harflar 4
Bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish....16
So‘z va uning ma’no turlari....21
So‘z va so‘z tarkibi....27
So‘z turkumlari....37
Ot – so‘z turkumi....40
Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi....42
Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi....49
Bosh kelishik....52
Qaratqich kelishigi....55
Tushum kelishigi....58
Jo‘nalish kelishigi....62
O‘rin-payt kelishigi....66
Chiqish kelishigi....68
Ot yasovchi qo‘shimchalar....73
Sifat – so‘z turkumi....76
Sifatlarning ma’no munosabati....80
Sifatlarning ma’no turlari....82
Sifat yasovchi qo‘shimchalar....88
Sifatlarning imlosi....89
Son – so‘z turkumi....92
Kishilik olmoshlari....105
Kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi....108
Fe’l – so‘z turkumi....113
Bo‘lishli fe’llar, bo‘lishsiz fe’llar....119
Fe’l yasovchi qo‘shimchalar....125
Gap....129
Gapning bosh bo‘laklari....134
Ikkinchi darajali bo‘laklar....136
Gapda so‘zlarning bog‘lanishi....137
Nutq. Matn....141
O‘quv yili oxiridagi takrorlash....154
Lug‘at....156

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

81.2O‘zb(ya71)
O-58

Ona tili [Matn]: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik/R. Ikromova va boshqalar. – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 9-nashri. – T: „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-22-049-2

UO‘K: 811.512.133(075)
KBK 81.2O‘zb(ya71)

RA’NO IKROMOVA, XOLIDA G‘ULOMOVA,
SHAROFAT YO‘LDOSHEVA,
DILOROM SHODMONQULOVA

ONA TILI

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 9-nashri

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

Muharrir *N. Rustamova*
Badiiy muharrir *Q. Shomurodov*
Dizayner *D. Usarova*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Sobirova*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040. 10.12.2019. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 06.07.2020. Bichimi 70x90$^{1}/_{16}$. Kegli 12 shponli. AG_Helvetica garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 11,70. Hisob-nashriyot t. 10,0. Adadi 483456 nusxa. Buyurtma № 20–212.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1–uy. Shartnoma № 11–20.

„O‘zbekiston“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100011, Toshkent, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.